181. O.Yoqubov nechanchi yilga qadar Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasining birinchi vitse-prezidenti lavozimida ishlagan?

- A) 2004-yilga qadar  
B) 2003-yilga qadar  
C) 2005-yilga qadar  
D) 2000-yilga qadar

182. O.Yoqubovning ilk asari qanday nomlanadi?

- A) «Tengdoshlar»  
B) «Dastlabki qadam»  
C) «Tilla uzuk»  
D) «Muqaddas»

183. «Tengdoshlar» asari qaysi janrda yozilgan?

- A) qissa B) hikoya  
C) roman D) pyesa

**184. «Tengdoshlar» qachon, qayerda bosilib chiqqan?**

- A) 1952-yili «Mushtum» jurnaiida  
B) 1950-yili «Sharq yulduzi» jurnalida  
C) 1951-yili «Sharq yulduzi» jurnaiida  
D) 1953-yili «O'zbekiston san'ati va adabiyoti» gazetasida

**185. O.Yoqubovning qaysi asari harbiy xizmatda ekanida yozilgan?**

- A) «Ikki muhabbat» hikoyalar to'plami  
B) «Qanot juft bo'ladi» qissasi  
C) «Billur qandillar» qissasi  
D) «Tengdoshlar» qissasi

**186. O.Yoqubovning qanday hikoyalar to'plamlari bor?**

- A) «Ikki muhabbat», «Tilla uzuk»  
B) «Dastlabki qadam», «Qanot juft bo'ladi»  
C) «Ikki muhabbat», «Dastlabki qadam»  
D) «Tengdoshlar», «Dastlabki qadam»

**187. «Ikki muhabbat» hikoyalar to'plami qachon nashr etilgan?**

- A) 1955-yili B) 1954-yili  
C) 1953-yili D) 1956-yili

**188. «Tilla uzuk» asari muallifi kim, u qanday janrda yozilgan?**

- A) O.Yoqubov, qissa va hikoyalar to'plami  
B) O.Yoqubov, roman  
C) Oybek, hikoya  
D) O'.Hoshimov, pyesa

**189. O.Yoqubovning pyesalarini toping.**

- A) «Ikki muhabbat», «Yurak yonmog'i kerak», «Izlayman», «Larza»  
B) «Chin muhabbat», «Aytsam tilim, aytmasam dilim kuyadi», «Yurak yonmog'i kerak», «Olma gullaganda»

- C) «Olma gullaganda», «Bir felyeton qissasi», «Muqaddas», «Billur qandillar»  
D) «Chin muhabbat», «Er boshiga ish tushsa», «Muqaddas», «Aytsam tilim, aytmasam dilim kuyadi»

**190. O.Yoqubovning qissalarini toping.**

1. «Bir felyeton qissasi». 2. «Muqaddas». 3. «Qanot juft bo'ladi». 4. «Izlayman». 5. «Billur qandillar». 6. «Larza». 7. «Matluba». 8. «Qaydasan, Morik»  
A) 1, 3, 5, 7, 8 B) 1, 2, 4, 6, 8  
C) 1, 2, 4, 6, 7 D) barchasi

**191. O.Yoqubovning so'nggi asari qaysi?**

- A) «Muzaffar Temur» pyesasi  
B) «Osiy banda» romani  
C) «Bir koshona sirlari» pyesasi  
D) «Adolat manzili» romani

**192. O.Yoqubovning romanlarini toping.**

1. «Er boshiga ish tushsa...». 2. «Ulug'bek xazinasini». 3. «Ko'hna dunyo». 4. «Izlayman». 5. «Oq qushlar, oppoq qushlar»  
A) 1, 2, 4, 3 B) 1, 2, 4, 5  
C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

**193. O.Yoqubov mustaqillik yillarida qanday pyesalar yaratgan?**

- A) «Chin muhabbat», «Bir koshona sirlari»  
B) «Muzaffar Temur», «Bir koshona sirlari»  
C) «Muzaffar Temur», «Olma gullaganda»  
D) «Yurak yonmog'i kerak», «Chin muhabbat»

**194. O.Yoqubov mustaqillik yillarida qanday roman yaratgan?**

- A) «Adolat manzili», «Osiy banda»  
B) «Diyonat», «Osiy banda»

- C) «Ko'hna dunyo», «Adolat manzili»  
D) «Oq qushlar, oppoq qushlar», «Osiy banda»

**195. «Ulug'bek xazinasini» romanida Ulug'bekka Abdullatifning hujumi haqidagi maktubni kim olib keladi?**

- A) Sakkokiy  
B) Shayxulislom Burhoniddin  
C) Xo'ja Miskin  
D) Ali Qushchi

**196. Shayxulislom Burhoniddin Ulug'bek kimdan chopar kelganini aytadi («Ulug'bek xazinasini»)?**

- A) Sulton Jondordan  
B) Iskandar barlosdan  
C) Amir Idrisdan  
D) Bobo Husayndan

**197. Amir Iskandar barlos Ulug'bekka yozgan maktubida Abdullatif bilan bo'lgan jangda nima uchun dorussaltana qatnashishga majbur bo'lganini aytadi («Ulug'bek xazinasini»)?**

- A) Sulton Jondorning xiyonat qilgani bois  
B) Abdullatif qo'shini orasida fillarning borligi suvoriylarga dahshat solgani sabab  
C) Abdullatif qo'shining ko'pligi bois  
D) Abdullatifning qo'shini orasida arrodalar borligi sababli

**198. Abdulaziz kim («Ulug'bek xazinasini»)?**

- A) Ulug'bekning suyuqli navkari  
B) Ulug'bekning shogirdi  
C) Ulug'bekning o'g'li  
D) Ulug'bekning jiyani

**199. «Hirovul» nima?**

- A) qo'shinning old tomoni  
B) qo'shin markazi  
C) qo'shin yon tomoni  
D) qo'shinning orqa tomoni

**200. «Arroda» nima?**

- A) qo'shin  
B) fillar  
C) toshotar qurol, manjanik  
D) chodir

**201. Ulug'bekning suyuqli navkari kim edi («Ulug'bek xazinasini»)?**

- A) Amir Idris B) Bobo Husayn  
C) Sulton Jondor D) Iskandar barlos

**202. Ulug'bekka xiyonat qilgan beklar ... («Ulug'bek xazinasini»)?**

- A) Amir Jondor, dorug'a Mironshoh, Ibrohim Po'lat o'g'li  
B) Amir Idris, dorug'a Mironshoh, Ibrohim Po'lat o'g'li  
C) Bobo Husayn, Amir Idris, Amir Iskandar  
D) Amir Iskandar, Sulton Jondor, Ibrohim Po'lat o'g'li

**203. Amir Sulton Jondorning xiyonat qilgani, qochgani haqidagi xabarni Ulug'bekka kim aytadi («Ulug'bek xazinasini»)?**

- A) Abdulaziz  
B) Iskandar barlos yozgan maktubida aytadi  
C) shayxulislom Burhoniddin  
D) Bobo Husayn yozgan maktubida aytadi

**204. «Darvozayi ohanin» dorug'asi kim edi («Ulug'bek xazinasini»)?**

- A) Ibrohim Po'lat o'g'li  
B) Mironshoh  
C) Bobo Husayn  
D) Amir Idris

**205. «Humo qushi kimning boshiga qo'nur, buni yolg'iz Haq taolo biladur. Humo qushi meni tark etsa, sening baxting! Valekin falakning gardishi bilan toj-taxt qo'limda qolsa... esingda bo'lsin: oyog'ingdan dorga osib, ostingdan o't**

qo'yaman». Ushbu gaplar kimniki («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) Abdulaziz
- B) Ulug'bek
- C) Abdullatif
- D) shayxulislom Burhoniddin

206. «Humo qushi kimning boshiga qo'nur, buni yolg'iz Haq taolo biladur. Humo qushi meni tark etsa, sening baxting! Valekin falakning gardishi bilan toj-u taxt qo'limda qolsa... esingda bo'lsin: oyog'ingdan dorga osib, ostingdan o't qo'yaman». Ushbu gaplarni Ulug'bek kimga aytgan («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) Amir Sulton Jondorga
- B) dorug'a Mironshohga
- C) Abdullatifga
- D) Ibrohim Po'lat o'g'liga

207 Ibrohim Po'lat qaysi qal'a dorug'asi edi («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) Ko'ksaroy
- B) Shohruxiya
- C) Dimishq
- D) Xuroson

208. Bir paytlar uzoq Yassidan haqiqat izlab Ulug'bek taxtiga bosh urib kelgan, undan ko'p yaxshiliklar ko'rgan iste'dodli shoir, arslonyurak jangchi kim («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) Qalandar Qarnoqiy
- B) Bobo Husayn
- C) Temur Samarqandiy
- D) Sulton Jondor

209. Ali Qushchiga jahongirdan qolgan oltinlarni yashirishga ko'mak bergan shaxslar ... («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) Qalandar Qarnoqiy, Xo'ja Miskin
- B) Bobo Husayn, Temur Samarqandiy
- C) Qalandar Qarnoqiy, Temur Samarqandiy
- D) Amir Iskandar, Temur Samarqandiy

210. Jahongirdan qolgan ... haqida shohga yetkazgan shaxs («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) Qalandar Qarnoqiy
- B) Xoja Salohiddin zargar
- C) Temur Samarqandiy
- D) shayxulislom Burhoniddin

211. Kim makruh kitoblari haqida ... li so'zlar aytgan («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) sayxulislom Burhoniddin
- B) Sakkokiy
- C) Xo'ja Miskin
- D) Nizomiddin Xomush

212. Ulug'bek kimni dorga osib ... asrab qolgandi («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) Sulton Jondorni
- B) Temur Samarqandiy
- C) Qalandar Qarnoqiy
- D) Nizomiddin Xomushni

213. Temur Samarqandiy kimni ... osmoqchi bo'lgan («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) Shohrux
- B) Abdullatif
- C) Sulton Muhammad
- D) Abu Said mirzo

214. Nima uchun Shohrux ... T.Samarqandiyini dorga osmoqchi bo'lgani ladi («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) qilich yasab bermagani uchun
- B) sandiq yasab bermagani uchun
- C) shohga itoat etmagani uchun
- D) shohga xiyonat qilgani uchun

215. Nima uchun T.Samarqandiy, Shohrux mirzoga qilich yasab bermagan ... xohlamaydi («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) Shohrux mirzoni yomon ko'rgan uchun
- B) qo'li jarohat olgani uchun
- C) qilich yasamaslikka ont idigan uchun
- D) otasi ruxsat bermagani uchun

216. T.Samarqandiy oltinlarni yashim maqsadida nechta sandiq yasaydi («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) 25 – 30 tacha
- B) 15 – 20 tacha
- C) 10 – 20 tacha
- D) 15 – 25 tacha

217. Ulug'bekka olib kelingan patir ichidan chiqqan xatda nimalar yozilgan («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) Abdullatifning o'zini shoh deb ta'rif qilgani, o'z nomidan pul zarb etish haqida fatvo berilgani
- B) Ulug'bekning Movarounnahr g'arbini qat'iy e'lon qilgani
- C) Ulug'bekka xizmat qilgan sarkarmanavkarlar hibsga olingani, Ulug'bekni hijga jo'natmoq bo'layotgani
- D) barchasi

218. Ulug'bekka qochmoqchi bo'lsa, uning qochib ketish xabar berishini kim aytadi («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) sharob ichidan chiqqan xatda yozilgan edi
- B) patir ichidan chiqqan xatda yozilgan edi
- C) tovoq ichidagi osh ichidan chiqqan xatda yozilgan edi
- D) choy ichidan chiqqan xatda yozilgan edi

219. Ulug'bek Abdullatifni ko'rganida uning qanday nima dedi («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) burgut
- B) padarkush
- C) qora kalxat
- D) shahzodayi juvonbaxt

220. «Muqarrab» so'zining ma'nosi nima?

- A) anig'
- B) barcha ilm egasi
- C) dushman
- D) yaqin, do'st

221. Dorussaltana qozi ul-quzzoti kim edi («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) Nizomiddin Xomush
- B) shayxulislom Burhoniddin
- C) Xoja Miskin
- D) Temur Samarqandiy

222. Ulug'bek kelganida a'yonlar o'rinlaridan turmoqchi bo'lganlarida kimning qahrli nigohi ostida joylariga o'tiradilar («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) Mirzo Abdullatifning
- B) hazrat Xomushning
- C) Xo'ja Miskinning
- D) Sayid Abbosning

223. Abdullatif kimning asarida padarkush 6 oydan ortiq toj-u taxtda tura olmasligi haqidagi ma'lumotni o'qiydi («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) Sakkokiy
- B) N.Ganjaviy
- C) X.Dehlaviy
- D) A) Jomiy

224. Tushida barkashda Abdullatifga uning boshini kim tutadi («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) Sayid Abbas
- B) Amir Jondor
- C) Amir Iskandar
- D) Amir Idris

225. A.Oripov qachon, qayerda tug'ilgan?

- A) 1941-yili Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida
- B) 1942-yili Surxondaryo viloyati Denov tumani Xo'jasoat qishlog'ida
- C) 1941-yili Qashqadaryo viloyati Koson tumani Neko'z qishlog'ida
- D) 1943-yili Xo'jand viloyati hududidagi Kengqo'l qishlog'ida

226. A.Oripovning otasi kim?

- A) Orif Abdulla o'g'li
- B) Orif Ubaydulla o'g'li
- C) Orif Sulton o'g'li
- D) Turdi Karvon o'g'li

227. A.Oripovning onasi kim?

- A) Turdixol momo
- B) Dono momo
- C) Oyshabibi
- D) Ma'suma aya

228. A.Oripovlar xonadonida nechta farzand bo'lgan?

- A) 5 o'g'il, 3 qiz
- B) 4 o'g'il, 4 qiz
- C) 7 o'g'il
- D) 3 o'g'il, 4 qiz

229. «Birinchi she'rlar yoza boshlaganingma nima turtki bo'lganini aniq bilmayman. Har holda, so'zlarni qo'fiyalashga ishqiboz bo'lib qolganim esimda. Balki, zerikkanimdan, balki, zavqim toshib nimadir yozgim kelaverardi. Fikr esa yo'q. Yozmaslikning ham iloji yo'q». Ushbu tarjimayi hoi kimga tegishli?

- A) Oybekka
- B) Mirtemirga
- C) A.Oripovga
- D) E.Vohidovga

230. A.Oripov nechanchi yili O'zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish qo'mitasi raisi lavozimida ishlagan?

- A) 1983-yili
- B) 1985-yili
- C) 1988-yili
- D) 1990-yili

231. A.Oripov O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasini nechanchi yillarda boshqargan?

- A) 2000 – 2009-yillar
- B) 1983 – 1988-yillar
- C) 1996 – 2009-yillar
- D) 1994 – 1996-yillar

232. A.Oripov qanday mukofot va unvonlarga munosib ko'rilgan?

- A) «O'zbekiston xalq shoiri», «El-yurt hurmati» ordeni, «O'zbekiston Qahramoni»
- B) Hamza nomidagi davlat mukofoti, «O'zbekiston xalq shoiri», Alisher Navoiy nomidagi respublika davlat mukofoti, «O'zbekiston Qahramoni»

- C) Hamza nomidagi davlat mukofoti, «Do'stlik» ordeni, «O'zbekiston xalq shoiri», «O'zbekiston Qahramoni»
- D) «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni, «O'zbekiston xalq shoiri», «O'zbekiston Qahramoni»

233. A.Oripovning ilk she'ri qanday nomlangan?

- A) «Onajon»
- B) «Mitti yulduz»
- C) «Qushcha»
- D) «Sarob»

234. A.Oripovning birinchi she'ri to'plami qanday nomlanadi?

- A) «Mitti yulduz»
- B) «Onajon»
- C) «Ko'zlarim yo'lingda»
- D) «Yurtim shamoli»

235. A.Oripov qanday to'plamga e'lon qilgan?

- 1. «Ko'zlarim yo'lingda» (1967)
- 2. «Onajon» (1969).
- 3. «Ruhim» (1971)
- 4. «O'zbekiston» (1972).
- 5. «Jannatga yo'l» (1972).
- 6. «Xotiro» (1974).
- 7. «Yurtim shamoli» (1974).
- 8. «Jannatga yo'l» (1978).
- 9. «Hayrat» (1979).
- 10. «Hakim» (1980).
- 11. «Najot qal'asi» (1981).
- 12. «Yillar armoni» (1983).
- 13. «Hajr» (1984).
- 14. «Saylanma» (1985).
- 15. «Sohibqiron» (1996).

- A) 1, 4, 6, 7, 11, 14
- B) 2, 3, 5, 7, 8, 15
- C) 1, 5, 8, 9, 10, 13, 14
- D) barchasi

236. A.Oripovning necha jildlik to'plamlangan asarlar mavjud?

- A) 4 jildlik
- B) 6 jildlik
- C) 8 jildlik
- D) 10 jildlik

237. A.Oripov kimning asarini tarjima qilgan?

- A) Gyote «Faust»
- B) Balzak «Insoniyat komediyasi»

- C) Dante «Ilohiy komediya»
- D) Pushkin «Mis chavandoz»

238. A.Oripovning qaysi she'ri «olti yilki she'r yozmayman, yuragim za-  
dab boshlanadi?»

- A) «Bahor»
- B) «Sarob»
- C) «Genetika»
- D) «Kuz manzaralari»

239. Nimanidir axtaraman –  
she'rdan ham ulug'.

Nimanidir axtaraman – nondan azizroq.  
Uu misralar A.Oripovning qaysi  
she'ridan olingan?

- A) «Sarob»
- B) «Kuz manzaralari»
- C) «Bahor»
- D) «Genetika»

240. A.Oripov qaysi she'rida odam-  
ning maymundan tarqalganini inkor  
qiladi?

- A) «Bahor»
- B) «Kuz manzaralari»
- C) «Genetika»
- D) «Sarob»

241. «Bugun to'nib atrofimga qarayman  
sekin». Misradagi «to'nib» so'zi qanday  
ma'noni anglatadi?

- A) qayrilib
- B) muzlash, sovish
- C) keksayib
- D) voz kechmoq

242. «Bir vaqtlar sajda qilgan hazrati  
mon»ni A.Oripov qanday ta'riflaydi?

- A) «O'z nafsin deb dunyoni bulg'ar»
- B) «Ko'zlarimga goh ko'rinar telba  
misoli»
- C) «Ko'zlarimga ko'rinar nari»
- D) «Qalbda qiynoq hayvon misoli»

243. «O'n oykim so'nmishdir u tanish  
na'ra». Bu misra A.Oripovning qaysi  
she'ridan olingan?

- A) «Sarob»
- B) «Bahor»
- C) «Kuz manzaralari»
- D) «Genetika»

244. «O'n oykim so'nmishdir u tanish  
na'ra». Bu misrada nima nazarda tutil-  
gan?

- A) G'.G'ulomning o'limi
- B) M.Shayxzodaning o'limi
- C) onasining o'limi
- D) otasining o'limi

245. A.Oripov «Bahor» she'rida kim-  
ga murojaat qilib fikrini yetkazadi?

- A) onasiga
- B) Vatanga
- C) yomg'irga
- D) xalqqa

246. «Bu qanday muloqot? Ne hol?

Yoningda Joy olmish o'zga bir  
suyukli daho».

Bu misralarda nima nazarda tutilgan?

- A) bobosining o'limi
- B) G'.G'ulomning o'limi
- C) M.Shayxzodaning o'limi
- D) Mirtemirning o'limi

247. «Dilbar kelinchakning ko'ksida g'ulu,  
Zardoli shoxiga tashlar ko'z qirin».

Bu misralar A.Oripovning qaysi  
she'ridan olingan?

- A) «Sarob»
- B) «Bahor kunlarida kuzning havosi»
- C) «Bahor»
- D) «Kuz manzaralari»

248. «Bahor kunlarida kuzning havo-  
si» she'ri muallifi kim?

- A) Oybek
- B) E.Vohidov
- C) Mirtemir
- D) A.Oripov

249. «Titroq yulduz kabi muzlagan  
shuur» ifodasi A.Oripovning qaysi  
she'ridan olingan?

- A) «Bahor kunlarida kuzning havosi»
- B) «Bahor»



- C) «Sarob»  
D) «Kuz manzaralari»

250. «Kuz manzaralari» she'ri muallifi kim?

- A) A.Oripov B) Mirtemir  
C) Oybek D) A.Muxtor

251. A.Oripov «Kuz manzaralari» she'rida nimani «bu mening chuvalgan, so'ngsiz o'ylarim» deydi?

- A) bargni B) muhabbatni  
C) yillarni D) mezonni

252. «Ohu bolasi bu – ohuday boqqan, Shervachchada esa sherning shiddati».

Bu misralar A.Oripovning qaysi she'ridan olingan?

- A) «Sarob»  
B) «Bahor»  
C) «Kuz manzaralari»  
D) «Genetika»

253. «Genetika» she'rida kimga «Buyuk bardoshimiz qolg'usi» deya bashorat qilinadi?

- A) farzandlariga  
B) shogirdlariga  
C) yosh qalamkashlarga  
D) kelajak avlodga

254. «Genetika» she'ri qaysi misralar bilan tugallanadi?

- A) Qahkashon sayrida hur  
quyosh bilan  
Kezarsan to abad shodumon,  
xurram  
B) Labda tabassum-u ko'zda  
yosh bilan  
Senga talpinaman, buyuk  
nabiram...  
C) Kechmish kamolotin ko'tarib  
boshga,  
Yiroq asrlarga ko'z tikib xushhol

- D) Valekin bilmadim, mening qonim  
Qaysi bir bobomning xislati

255. «Genetika» she'rida qaysi xiy shaxslar tilga olinadi?

- A) Beruniy, Xorazmiy, Bobur, Alisher Bobo Kayfiy  
B) Temur, Ulug'bek, Bobur, Lutfiy, Bobo Kayfiy, Bayron  
C) Bobo Kayfiy, Ulug'bek, Muqanna Bobur, Alisher, Pushkin  
D) Bobo Kayfiy, To'maris, Beruniy, Muqanna, Dante, Pushkin

256. Quruqshagan o'zbek she'riyiga o'ychil g'am va g'amchil o'y olib bergan ijodkor kim?

- A) A.Muxtor B) Sh.Rahmonov  
C) A.Oripov D) E.Vohidov

257. «Asablar tuproqqa to'kkan tiz» misralarida nima aks etgan?

- A) zilzila paytidagi odamlarning ruhi holati  
B) o'zining pokiza yoshlik davri  
C) o'zbek xalqining yig'ma obrazi  
D) A va C

258. «Yiroq-yiroqlardan mungli va turli Turnalar tovushin tinglardim faqat»

Bu misralarda A.Oripov nimani ta'virlagan?

- A) o'zining pokiza yoshlik davrini  
B) o'zbek xalqining yig'ma obrazi  
C) A va B  
D) o'zining pokiza yoshlik davrini

259. Sonsiz egatlarga sochilmish, mening orzuim, mening o'ylarim.

Misralarda nima aks ettirilgan?

- A) zilzila  
B) kelajak orzulari  
C) paxta terimi  
D) o'zbek xalqining yig'ma obrazi

260. *Shabnam shovullaydi bog'lar*  
qo'ynida,  
*qulqin tuman ichra bo'zalar tonglar.*  
*Quyoshning erinchak yog'dularida*  
*qulqin yaltiraydi bargi xazonlar.*  
Misralarda A.Oripov nimani tasvirla-

- A) bahorni B) tabiatni  
C) umrni D) Vatanni

261. *Oyoqlangan qo'ziday dovdidar*  
yelda mayssa,  
*Ko'm-ko'k, moviy osmonda kezib yurar*  
oq bulut.

Misralar muallifi kim?

- A) Mirtemir B) A.Oripov  
C) Oybek D) M.Yusuf

262. *Oyoqlangan qo'ziday dovdidar*  
yelda mayssa,  
*Ko'm-ko'k, moviy osmonda kezib yurar*  
oq bulut.

Misralarda nima tasvirlangan?

- A) bolalik B) tabiat  
C) bahor D) Vatan

263. *Sevgini yorilmagan yaraga o'x-*  
*shatgan ijodkor kim?*

- A) U.Nosir B) Oybek  
C) A.Oripov D) E.Vohidov

264. *«Qizg'aldoq bargidek uchar*  
dildan g'am,

*Toshqinlar kiradi qalbimga manim».*

Ushbu misralar muallifi kim?

- A) E.Vohidov B) Mirtemir  
C) M.Shayxzoda D) A.Oripov

265. *Badiiy adabiyotda she'riyatdagi*  
*qaysi timsollar lirik qahramon darajasi-*  
*ga ko'tarila olmaydi?*

1. «Raqib». 2. «Rind». 3. «Soqiy».  
4. «Ag'yor».  
A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 4  
C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 3, 4

266. *Lirika atamasi kim tomonidan*  
*qachon fanga olib kiritilgan?*

- A) 1846-yil Vilyam Toms  
B) 1921-yili rus olimi Y.N.Tinyanov  
C) 1921-yil Dobrolyubov  
D) 1926-yili rus olimi Y.N.Tinyanov

267. *«Sohibqiron» dramasi muallifi*  
*kim?*

- A) M.Shayxzoda B) O.Yoqubov  
C) A.Oripov D) P.Qodirov

268. *«Sohibqiron» dramasi qanday*  
*shaklda yozilgan?*

- A) she'riy  
B) nasriy  
C) ham she'riy, ham nasriy  
D) dramatik

269. *«Sohibqiron» dramasiida Temur*  
*yov qo'shinini tahlilikaga solish uchun*  
*nima qilishni maslahat beradi?*

- A) tunda gulxanlar yoqishni  
B) to'rtta otning biqiniga shox-shab-  
balarni bog'lab qo'yishni  
C) pistirma qo'yish  
D) A va B

270. *«Sohibqiron» dramasiida keltiri-*  
*lishicha, tungi hujumlar nima deyiladi?*

- A) to'lg'ama B) shabxun  
C) qoralama D) tarkin

271. *«Sohibqiron» dramasiida Temur-*  
*ga kimdan chopar keladi?*

- A) Amir Husayndan  
B) Shohrux mirzodan  
C) Boyaziddan  
D) Mironshohdan

272. *Boyazidning Temurga jo'natgan*  
*elchisi kim edi («Sohibqiron»)?*

- A) Sulton Shabli  
B) Sulton Kamoliddin  
C) Aloviddin  
D) Kayxusrav

273. Temurning xufyasi kim («Sohibqiron»)?

- A) Buqalamun B) Qosimbek  
C) Itolmas D) A va C

274. Temurning xufyasi Buqalamunning asl ismi nima («Sohibqiron»)?

- A) Qosimbek B) Aloviddin  
C) Itolmas D) Jondor

275. «Sohibqiron» dramasi da Temur o'ng qanotni kimga topshiradi?

- A) Shohrux mirzoga  
B) Mironshohga  
C) Buqalamunga  
D) Amir Husaynga

276. Temur so'l qanotni kimga topshiradi («Sohibqiron»)?

- A) Mironshohga  
B) Shohrux mirzoga  
C) Buqalamunga  
D) Qosimbekka

277. «Sohibqiron» dramasi da shatranj ustasi kim?

- A) Shayxulislom B) Boyazid  
C) Itolmas D) Aloviddin

278. Temur Boyazidga qarshi jangida qaysi jang usulidan foydalanadi («Sohibqiron»)?

- A) to'lg'ama B) shabxun  
C) qoralama D) tarkin

279. Temur shatranj o'yinidagi g'alabasini nimaning ishi deb baholaydi («Sohibqiron»)?

- A) piyodaning B) ruxning  
C) shohning D) farzin

280. Boyazidning asir olinganligi haqidagi xabarni Temurga kim yetkazadi («Sohibqiron»)?

- A) Qosimbek B) Buqalamun  
C) Shayxulislom D) Itolmas

281. Boyazidning asir olinganligi haqidagi xabarni yetkazgan Qosim qaysi lik edi («Sohibqiron»)?

- A) buxorolik B) qashqarlik  
C) samarqandlik D) keshlik

282. Temur Qosimbekni qanday mas-kofotlaydi («Sohibqiron»)?

- A) bir sandiq oltin beradi  
B) nevarasini nikohiga beradi  
C) sulton etib tayinlaydi  
D) hokim etib tayinlaydi

283. Sen yildirim laqabli bir qudratli

cho'ng temirga urilding-u chilparchin bo'lmas

Misralar qaysi asardan olingan?

- A) «Sohibqiron» dramasi da  
B) «Ulug'bek xazinasi» romani da  
C) «Yulduzli tunlar» romani da  
D) «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi da

284. Qaysi asarda Temur janglar orada emas, o'ylar girdobida tasvirlangan?

- A) «Yulduzli tunlar» romani da  
B) «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi da  
C) «Sohibqiron» dramasi da  
D) «Avlodlar dovoni» romani da

285. «Sohibqiron» dramasi da Temur davlatni ushlab turuvchi uch tayanch sifatida nimalarni keltiradi?

- A) mo'l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar  
B) boy xalq, yagona shoh, yengilmas lashkar  
C) mo'l xazina, yagona shoh, adolatli siyosat  
D) mo'l xazina, adolatli siyosat, yengilmas lashkar

286. «Unutmagil, muzaffarman haqqim uchun». Ushbu fikr kimga tegishli («Sohibqiron»)?

- A) Boyazidga  
B) Temurga  
C) Buqalamunga  
D) Mironshohga

287. Temurning o'z dushmanlarini kuchi ra olishi kimni kechirishida yordam beradi («Sohibqiron»)?

- A) Sulton Boyazidni  
B) Sulton Jondorni  
C) Amir Husaynni  
D) Kayxusravni

288. Temurning haddidan oshgan talablarini jazosiz qoldirmasligi kimni ta'kidlaganida ko'zga tashlanadi («Sohibqiron»)?

- A) Sulton Boyazidni  
B) Amir Husaynni  
C) Kayxusravni  
D) Sulton Shablani

289. Temurning ezgu amalli kishiirani taqdirlashi kimlarni taqdirlashida ko'ri-nadi («Sohibqiron»)?

- A) Qosimbek, Buqalamunni  
B) Mironshoh, Shohrux mirzoni  
C) Hofiz Sheroziy, Qosimbekni  
D) Hofiz Sheroziy, Itolmasni

290. «Sohibqiron» dramasi da eng ko'p shatranj lavhalar Temurning kim bilan uchrashuvida berilgan?

- A) Bibixonim bilan  
B) A.Yassaviy bilan  
C) Boyazid bilan  
D) Qosimbek bilan

291. Temur A.Yassaviyning qaysi so'ziga javob topib berishga qiynaladi («Sohibqiron»)?

- A) Temur, sen besabab qon to'kkanmisan?  
B) Savob qila olganmisan?  
C) Mazlumlarga rahm qilganmisan?  
D) Biror kun tinch uxlay olganmisan?

292. Niyat qancha jozibali bo'lsa ham, Temur, qilich bilan murod hosil bo'lmog'i gumon. Bu fikr kim tomonidan aytilgan («Sohibqiron»)?

- A) Temur B) A.Navoiy  
C) A.Yassaviy D) A.Yugnakiy

293. Vilyam Shekspir qachon, qayerda tug'ilgan?

- A) 1565-yili London shahrida  
B) 1564-yili Yorkshir grafligidagi Stratford shahrida  
C) 1563-yili Venetsiya shahrida  
D) 1564-yili Yorkshir grafligidagi Dyuseldorf shahrida

294. Vilyam Shekspir haqida bizgacha qanday ma'lumotlar yetib kelgan?

- A) cherkovda 1584-yili stratfordlik Syuzen ismli qizga uylanganligi, Hamlet, Xetuey, Judit kabi farzandlarining cho'qintirilganligi haqida ma'lumot bor  
B) cherkovda 1582-yili stratfordlik Enn Xetuey ismli qizga uylangani, Syuzen, Hamlet, Judit kabi farzandlarining cho'qintirilganligi haqida ma'lumot bor  
C) cherkovda Syuzen, Hamlet, Judit kabi farzandlarining cho'qintirilganligi haqida ma'lumot bor  
D) hech qanday ma'lumot yo'q

295. Vilyam Shekspir necha yoshiga qadar birorta asar e'lon qilmagan?

- A) 30 yoshigacha B) 28 yoshigacha  
C) 29 yoshigacha D) 25 yoshigacha

296. Vilyam Shekspirning ilk asari qanday nomlangan?

- A) «Lukreetsiya»  
B) «Venera va Adonis»  
C) «Xatolar komediyasi»  
D) «Venetsiya savdogari»

297. «Venera va Adonis» asari qaysi janrda yozilgan?

- A) qissa B) hikoya  
C) roman D) doston

298. «Venera va Adonis» asari kimga bag'ishlangan?

- A) F.Meres B) U.Jaggard  
C) Sautgempton D) B va C

299. «Venera va Adonis» asari qaysi mavzuda yaratilgan?

- A) o'sha vaqtlarda urf bo'lgan erotik yo'nalishda  
B) ijtimoiy ruhda  
C) hajviy ruhda  
D) didaktik yo'nalishda

300. Vilyam Shekspirning qaysi asari ketma-ket sakkiz marta nashr etilgan?

- A) «Lukretsiya»  
B) «Venera va Adonis»  
C) «Tit Andronik»  
D) «Otashin ziyoratchi»

301. Vilyam Shekspirning «Lukretsiya» asari qachon yozilgan?

- A) 1592-yili B) 1593-yili  
C) 1594-yili D) 1595-yili

302. «Lukretsiya» asari qaysi janrda yozilgan?

- A) roman B) hikoya  
C) qissa D) doston

303. 1594-yil 28-dekabrda «Greyya Inn» teatrida Shekspirning qaysi asari o'ynalgan?

- A) «Tit Andronik»  
B) «Otashin ziyoratchi»  
C) «Aql xazinasi»  
D) «Xatolar komediyasi»

304. Shekspirning qaysi asari muqovasida muallifi e'lon qilinmagan holda nashr etilgan?

- A) «Tit Andronik»  
B) «Otashin ziyoratchi»

- C) «Aql xazinasi»  
D) «Xatolar komediyasi»

305. «Tit Andronik» asari qaysi janrda yozilgan?

- A) doston B) pyesa  
C) tragediya D) roman

306. Kim Shekspir asarlarini chop etirish evaziga boyimoqchi bo'lib Shekspirning 4 ta sonetini kiritib «Otashin ziyoratchi» nomli asar e'lon qilgan?

- A) F.Meres B) U.Jaggard  
C) Sautgempton D) B va C

307. «Otashin ziyoratchi» kitobiga Shekspirning nechta soneti kiritilgan?

- A) 6 ta B) 8 ta C) 5 ta D) 4 ta

308. Vilyam Shekspir qaysi teatrida faoliyat olib borgan?

- A) «Globus» B) «Greyz Inn»  
C) «Blekfrayez» D) A va C

309. Komerdinerlar kimlar?

- A) xor ijrochilari B) uy xizmatchilari  
C) aktyorlar D) gersoglar

310. Aktyor sifatida Vilyam Shekspir qanday rollarni ijro etgan?

- A) «Hamlet»da arvoch rolini  
B) «Sizga bu yoqadimi?» spektaklida Odam rolini  
C) Ven Jonsonning «O'ziga yetguncha», «Seyan» pyesalarida rol ijro qilgan  
D) barchasi

311. Aktyor sifatida Vilyam Shekspir so'nggi rollarini qaysi pyesada o'ynagan?

- A) «Hamlet»da arvoch rolini  
B) Ven Jonson «O'ziga yetguncha»  
C) «Seyan» pyesasida  
D) B va C

312. Vilyam Shekspirning bizgacha qanday komediyalari yetib kelgan?

1. «Qirol Lir». 2. «Romeo va Julyetta». 3. «Hamlet». 4. «O'n ikkinchi kecha». 5. «Venetsiya savdogari». 6. «Otello». 7. «Makbet». 8. «Yoz kechasidagi tush».  
A) 1, 2, 3, 5, 6, 7, 8  
B) 5, 8  
C) 4, 5, 8  
D) barchasi

313. Vilyam Shekspirning bizgacha qanday tragediyalari yetib kelgan?

1. «Qirol Lir». 2. «Romeo va Julyetta». 3. «Hamlet». 4. «O'n ikkinchi kecha». 5. «Venetsiya savdogari». 6. «Otello». 7. «Makbet». 8. «Yoz kechasidagi tush».  
A) 1, 2, 3, 6, 7 B) 5, 8  
C) 4, 5, 8 D) barchasi

314. V.Shekspirning bizgacha nechta dramatik asari yetib kelgan?

- A) 30 ta B) 36 ta C) 40 ta D) 42 ta

315. V.Shekspirning bizgacha nechta soneti yetib kelgan?

- A) 154 ta B) 145 ta  
C) 150 ta D) 125 ta

316. «Otello» tragediyasini kim tarjima qilgan?

- A) Oybek B) G'.G'ulom  
C) A.Muxtor D) M.Shayxzoda

317. «Otello» tragediyasida Gratsiana kim?

- A) senator  
B) Brabansioning ukasi  
C) Brabansioning qarindoshi  
D) venetsiyalik boy yigit

318. Lodoviko kim («Otello»)?

- A) Brabansioning qarindoshi  
B) Brabansioning ukasi  
C) venetsiyalik boy yigit  
D) Qibrisning oldingi hokimi

319. Nima uchun Yago Kassiodan o'ch oladi («Otello»)?

- A) Dezdemonani uni rad etib, Otelloni tanlagani uchun  
B) Kassioning o'rniga leytenant bo'lmoqchi edi  
C) boyligi uchun  
D) barchasi

320. Nima uchun Rodrigo Otellodan o'ch olishga intiladi («Otello»)?

- A) Dezdemonani uni rad etib, Otelloni tanlagani uchun  
B) Kassioning o'rniga leytenant bo'lmoqchi edi  
C) boyligi uchun  
D) barchasi

321. «Ishqqa o'lim – tabiatning qonuniga zid». Tragediyadagi ushbu fikrlar kimga tegishli («Otello»)?

- A) Otello B) Rodrigoga  
C) Dezdemonaga D) Emiliyaga

322. Rodrigoni kim o'ldirib qo'yadi («Otello»)?

- A) Kassio B) Emiliya  
C) Yago D) Otello

323. Yagoning Rodrigoni o'ldirib qo'rganini kim aytadi («Otello»)?

- A) Kassio B) Emiliya  
C) Yago D) Dezdemona

324. Emiliya kim («Otello»)?

- A) Otelloning 1-xotini  
B) qo'shni ayol  
C) Yagoning xotini  
D) Rodrigoning xotini

325. «O', muhabbat, haqoratga bo'lmish masqara». Bu fikr kim tomonidan aytilgan («Otello»)?

- A) Otello B) Emiliya  
C) Dezdemona D) Lodoviko

326. «O'h, razillik! Bu to'g'rida men o'ylaymanki, Sezmoqdaman razolatning sassiq hidini...»

Bu fikr kim tomonidan aytilgan («Otello»)?

- A) Otello B) Dezdemon  
C) Rodrigo D) Emiliya

327. Dezdemon o'limi oldidan Emiliya bilan birga qaysi qo'shiqni kuylaydi («Otello»)?

- A) «Majnunol» B) «Oqqush»  
C) «Sarvi roz» D) «Ko'ngil»

328. Otellodan keyin Qibris oroli hukmdori kim bo'ldi («Otello»)?

- A) Kassio B) Montano  
C) Brabansio D) Gratsiono

329. Qibris orolidagi ushbu voqeani Venetsiyaga yetkazishini kim aytadi («Otello»)?

- A) Yago B) Rodrigo  
C) Lodoviko D) Kassio

330. «Otello» tragediyasida ezgu sifatli odamlarning o'limi bir fojia bo'lsa, nima fojining darajasini yanada oshiradi?

- A) ularning arzimas bir odamning mayda manfaatlari yo'lida halok bo'lishi  
B) yaqinlari tomonidan o'ldirilishi  
C) o'z yaxshi ko'rgan narsalari yo'lida qurbon bo'lishlari  
D) barchasi

331. Yagoni kim fosh etadi («Otello»)?

- A) Kassio B) Emiliya  
C) Rodrigo D) Dezdemon

332. 1797-yili Olmoniyaning Dyusseldorf shahrida tug'ilgan ijodkor kim?

- A) A.S.Pushkin B) H.Hayne  
C) H.K.Andersen D) S.Ekzyuperi

333. H.Hayne qanday oiida dunyoga kelgan?

- A) dehqon B) savdogar  
C) harbiy D) kosib

334. Samson Hayne o'g'li Haynrixning kim bo'lishini orzu qitardi?

- A) napoleonchi harbiy bo'lishi  
B) aktyor bo'lishini  
C) moliyachi bo'lishini  
D) haykaltarosh bo'lishini

335. Napoleon mag'lub bo'lganidan so'ng ota-onasi Haynrixning kim bo'lishini istashadi?

- A) huquqshunos B) savdogar  
C) aktyor D) moliyachi

336. Haynrix Hayne kimni sevib qoladi?

- A) qo'shni qiz Emiliyani  
B) amakisining qizi Amaliyani  
C) tog'asining qizi Emiliyani  
D) amakisining qizi Emiliyani

337. Haynrix Hayne amakisining uyida qancha muddat yashaydi?

- A) 4 yil B) 3 yil  
C) 5 yil D) 7 yil

338. Haynrix Hayne qaysi universitetda o'qigan?

- A) Bonn B) Hetingen  
C) Berlin D) barchasi

339. Haynrix Haynening mutasavvisligi nima edi?

- A) moliyachi B) aktyor  
C) huquqshunos D) haykaltarosh

340. Haynrix Haynening ilk asari qanday nom bilan bosilib chiqqan?

- A) «Qo'shiqlar kitobi»  
B) «Romansero»  
C) «E'tirof»  
D) «Yo'l lavhalarini»

341. Haynrix Haynening qaysi kitobidagi she'rlarida yosh shoir dunyoning tushunarsiz, hayotning murakkab va odamlar orasidagi munosabatlarning chigalligini o'ta ta'sirchan yo'l bilan tasvirlagan?

- A) «Yo'l lavhalarini»  
B) «Qo'shiqlar kitobi»  
C) «E'tirof»  
D) «Romansero»

342. «Ba'zisi do'st, kelar qoshimga, ba'zilari dushmandan battar».

Bu misralar Haynrix Haynening qaysi asaridan olingan?

- A) «Yo'l lavhalarini»dan  
B) «Qo'shiqlar kitobi»dan  
C) «E'tirof»dan  
D) «Romansero»dan

343. Haynrix Haynening yo'l ocherkidan iborat asari qanday nomlanadi?

- A) «Sileziya to'quvchilari»  
B) «Germaniya. Qish ertagi»  
C) «Yo'l lavhalarini»  
D) «Qullar kemasi»

344. Haynrix Haynening qaysi asari Olmoniyaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy darajasini haqqoniy aks ettirganligi bilan boshqa asarlaridan ajralib turadi?

- A) «E'tirof»  
B) «Yo'l lavhalarini»  
C) «Romansero»  
D) «Lyutetsiya»

345. La'natlar bu yurtga, yolg'on vatanga, Unda baxt ko'radi tubanlik, xo'rlik.

Misralar Haynrix Haynening qaysi asaridan olingan?

- A) «Qullar kemasi» balladasidan  
B) «Bo'sh xayollar kechmish olis» she'ridan  
C) «Lyutetsiya» asaridan  
D) «Sileziya to'quvchilari» she'ridan

346. Haynrix Haynening dostoni qanday nomlanadi?

- A) «Qullar kemasi»  
B) «Sileziya to'quvchilari»

- C) «Germaniya. Qish ertagi»  
D) «Yo'l lavhalarini»

347. Haynrix Haynening balladasini qanday nomlanadi?

- A) «Qo'shiqlar kitobi»  
B) «Yo'l lavhalarini»  
C) «Qullar kemasi»  
D) «Germaniya. Qish ertagi»

348. «Germaniya, to'qimiz biz kafaningni». Bu misralar Haynrix Haynening qaysi asaridan olingan?

- A) «Sileziya to'quvchilari» she'ridan  
B) «Qullar kemasi» balladasidan  
C) «Bo'sh xayollar kechmish olis» she'ridan  
D) «Lyutetsiya» asaridan

349. Haynrix Haynening qaysi asari fransuz siyosiy hayotining o'ziga xos yilnomasi sifatida e'tirof etiladi?

- A) «Lyutetsiya» B) «Romansero»  
C) «Atta Troll» D) «Fransuz ishlari»

350. «Fransuz ishlari» asari qachon yozilgan?

- A) 1830-yili B) 1834-yili  
C) 1835-yili D) 1832-yili

351. Haynrix Haynening majoziy xarakterdagi asari qanday nomlanadi?

- A) «Fransuz ishlari»  
B) «Atta Troll»  
C) «Qullar kemasi»  
D) «Germaniya. Qish ertagi»

352. «Atta Troll» asari qaysi janrda yozilgan?

- A) hikoya B) qissa  
C) roman D) doston

353. «Atta Troll» dostoni kimlar haqida?

- A) fransuz siyosiy hayotining o'ziga xos yilnomasi haqida

B) hayvonlar misolida tepsa tebranas, yurt ravnaqi uchun biror narsa qilishga qodir bo'lmagan millatdoshlari haqida

C) hayvonlar misolida yurt ravnaqi uchun biror ishga qodir bo'lmagan amaldorlar haqida

D) A va C

**354. «Atta Troll» dostoni qachon yozilgan?**

A) 1842-yili B) 1840-yili

C) 1843-yili D) 1841-yili

**355. Haynrix Haynening fransuz hatini aks ettirgan she'riy to'plami qanday nomlanadi?**

A) «Qullar kemasi»

B) «Sileziya to'quvchilari»

C) «Yo'l lavhalari»

D) «Lytetsiya»

**356. Haynrix Haynening qaysi she'riy kitoblari nemis millati she'riy tafakkuri taraqqiyotida jiddiy voqea bo'ldi?**

A) «Yo'l lavhalari», «E'tirof»

B) «Qullar kemasi», «Romansero»

C) «Fransuz ishlari», «Sileziya to'quvchilari»

D) «E'tirof», «Romansero»

**357. Haynrix Hayne qancha muddat vatanidan yiroqda ayriliqda yurgan?**

A) 10 yil B) 15 yil C) 13 yil D) 8 yil

**358. «Men vatanni sizlardan kam sevmayman. Shu sevgim tufayli men o'n uch yil quvg'inda bo'ldim, ayni mana shu sevgim tufayli oh-voh qilmasdan, iztirobdan yuzimni bujmaytirmasdan, yana, ehtimol, butun umrga quvg'in joyimga qaytmoqdaman». Ushbu parcha Haynrix Haynening qaysi asaridan olingan?**

A) «Yo'l lavhalari» kitobidan

B) «Germaniya. Qish ertagi» dostoni so'zboshisidan

C) «E'tirof» kitobidan

D) «Romansero» kitobidan

**359. Haynrix Haynening asarlari kimning tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi?**

A) Cho'lpon, Oybek, Mirtemir, Alxolaj la Sher, Xayriddin Sultonov

B) E.Vohidov, Oybek, Mirza Kuyubek, A.Muxtor, Abdulla Sher

C) X.Sultonov, X.Saloh, Cho'lpon, A.Oripov, H.Xudoyberdiyeva

D) A.Suyun, U.Azim, Mirtemir, M.Ali Cho'lpon, A.Oripov

**360. Haynrix Haynening she'rlarini aniqlang.**

1. «Bo'sh xayollar chekinmish olis»

2. «Obod etar kun-u tunimni». 3. «O, sen qo'rqma, chekmagin tashvish». 4. «Suvdan boshin chiqarib asta». 5. «O'tkir bo'lsa ko'zlaring agar». 6. «Onam Fon Helder B.Haynega».

A) 1, 3, 4, 6 B) 1, 2, 5, 6

C) barchasi D) 1, 2, 3, 6

**361. Haynrix Haynening «Bo'sh xayollar chekinmish olis», «Obod etar kun-u tunimni», «O, sen qo'rqma, chekmagin tashvish», «Suvdan boshin chiqarib asta», «O'tkir bo'lsa ko'zlaring agar» «Onam Fon Helder B.Haynega» kabi she'rlarini o'zbek tiliga kim o'g'irgan?**

A) X.Saloh B) X.Sultonov

C) E.Vohidov D) M.Yusuf

**362. Qaysi shoir kuyarida yashayotgan go'zalni «suluvlardan ko'ra suluv roq» deb ta'riflaydi?**

A) A.S.Pushkin B) Haynrix Haynrix

C) R.Hamzatov D) S.Yesenin

**363. Habash Ibrohim Hanibalning nevarasi kim bo'lgan?**

A) A.S.Pushkin

B) A.S.Pushkinning onasi Nadojda Osipovna

- C) otasi Sergey  
D) enagasi Arina Radionovna Yakovleva

364. A.S.Pushkin qachon, qayerda tugʻilgan?

- A) 1800-yili Rossiyaning Orenburg guberniyasida  
B) 1797-yili Sankt-Peturburg shahrida  
C) 1799-yili Moskva shahrida  
D) 1799-yili Rossiyaning Ryazan guberniyasiga qarashli Konstantinovo qishlogʻida

365. A.S.Pushkin ma'naviyatining shakllanishida kimning xizmati katta boʻlgan?

- A) enagasi Arina Radionovna Yakovleva  
B) onasi Nadejda Osipovna  
C) otasi Sergey  
D) shoir Jukovskiy

366. A.S.Pushkin Ivan Pushin, Anton Delvig, Vilgelm Kyuxelbeker singari bilan do'stlarni qayerda o'rtirdi?

- A) Moskvada  
B) Rossiya poytaxti Sankt-Peterburg yaqinidagi Sarskoye selo imperatorlik litseyida  
C) Mixaylovskoye qishlogʻida  
D) imperiyaning janubida

367. A.S.Pushkinning ilk she'ri qachon, qayerda bosilib chiqqan?

- A) 1814-yili litseyda chiqadigan «Ovro'po xabarlari» jurnalida  
B) 1815-yili litseyda chiqadigan «Ovro'pa xabarlari» jurnalida  
C) 1817-yili «Moskva» gazetasida  
D) 1816-yili «Qizil yulduz» gazetasida

368. Kim o'limidan ikki yil avval litsey imtihonlarida qatnashib A.S.Pushkinning buyuk shoir bo'lishini bashorat qilgan?

- A) Jukovskiy B) Anton Delvig  
C) Ivan Pushin D) Derjavin

369. A.S.Pushkin qanday dostonlar yaratgan?

- A) «Ruslan va Lyudmila», «Kapitan qizi»  
B) «Mis chavandoz», «Belkin qissalari»  
C) «Ruslan va Lyudmila», «Mis chavandoz»  
D) «Dubrovskiy», «Toppon xonim»

370. A.S.Pushkin 1817-yili qaysi asarini yozgan?

- A) «Erkiniik» she'rini  
B) «Ruslan va Lyudmila» dostonini  
C) «Yevgeniy Onegin» she'riy romanini  
D) «Mis chavandoz» dostonini

371. A.S.Pushkinning qaysi asariga shoir Jukovskiy yuqori baho bergan?

- A) «Erkinlik» she'riga  
B) «Ruslan va Lyudmila» dostoniga  
C) «Mis chavandoz» dostoniga  
D) «Belkin qissalari» hikoyasiga

372. Qaysi shoir Pushkinning «Ruslan va Lyudmila» dostoni qo'iyozmasi bilan tanishib, «G'olib shogirdga mag'lub ustozdan» degan yozuv bilan o'z portretini sovg'a qiladi?

- A) Jukovskiy  
B) Derjavin  
C) Anton Delvig  
D) Vilgelm Kyuxelbeker

373. A.S.Pushkin qaysi qishloqqa surgun qilingan bo'lib, shoir bu vaqtlarda qishloq folklor namunalaridan anchasini yozib olishga erishgan?

- A) Orenburg qishlogʻiga  
B) Konstantinovo qishlogʻiga  
C) Mixaylovskoye qishlogʻiga  
D) imperiya janubidagi qishloqqa



**374. A.S.Pushkin «Yevgeniy Onegin» she'riy romanini qachon yozib tugatgan?**

- A) 1828-yili
- B) 1830-yili
- C) 1833-yili
- D) 1831-yili

**375. A.S.Pushkin «Yevgeniy Onegin» she'riy romanini necha yildan beri yozayotgan edi?**

- A) 10 yildan beri
- B) 5 yildan beri
- C) 8 yildan beri
- D) 12 yildan beri

**376. 30-yillarda A.S.Pushkinning qanday asarlari nashr etildi?**

- A) «Belkin qissalari», «Dubrovskiy», «Toppon xonim»
- B) «Dubrovskiy», «Erkinlik», «Mischavandoz»
- C) «Belkin qissalari», «Yevgeniy Onegin», «Kapitan qizi»
- D) «Toppon xonim», «Ruslan va Lyudmila», «Kapitan qizi»

**377. A.S.Pushkinning «Kapitan qizi» asari qachon yozilgan?**

- A) 1834-yili
- B) 1833-yili
- C) 1836-yili
- D) 1835-yili

**378. A.S.Pushkin qanday nasriy asarlar yaratgan?**

- A) «Dubrovskiy», «Erkinlik», «Mischavandoz», «Belkin qissalari»
- B) «Yevgeniy Onegin», «Kapitan qizi», «Toppon xonim», «Ruslan va Lyudmila»
- C) «Dubrovskiy», «Toppon xonim», «Dubrovskiy», «Erkinlik»
- D) «Belkin qissalari», «Dubrovskiy», «Toppon xonim», «Kapitan qizi»

**379. A.S.Pushkin qaysi asarida turli personajlarning taqdiri misolida inson hayotini rejalashtirib bo'lmazligi, u har**

**daqiqada kutilmagan o'zgarishlarga yuz tutishi mumkinligini ta'sirli aks ettirgan?**

- A) «Toppon xonim»
- B) «Belkin qissalari»
- C) «Kapitan qizi»
- D) «Ruslan va Lyudmila»

**380. A.S.Pushkin qanday vafot etadi?**

- A) yurak xuruji sababli 1837-yil 25-yanvarda vafot etadi
- B) Gollandiya elchisining tubrog' o'g'li Dantes bilan duelda yaralanib o'ldirildikundan so'ng – 1837-yil 29-yanvarda vafot etadi
- C) Germaniya elchisining tubrog' o'g'li Derjavin bilan duelda yaralanib o'ldirildikundan so'ng – 1838-yil 29-yanvarda vafot etadi
- D) otdan yiqilib 1836-yil 27-yanvarda vafot etadi

**381. A.S.Pushkin she'rlarini o'zbek tiliga kimlar tarjima qilgan?**

- 1. Cho'lpon. 2. G'.G'ulom. 3. Oybek
- 4. Mirtemir. 5. E.Vohidov. 6.A.Oripov
- 7. Muhammad Ali. 8. A.Suyun. 9. H.Saidov
- 10. U.Azim. 11. M.Kenjabeq
- A) 1, 3, 5, 10, 11
- B) 1, 2, 4, 8, 9
- C) 1, 3, 5, 7, 11
- D) barchasi

**382. «Yevgeniy Onegin» she'riy romanini o'zbek tiliga kimlar tarjima qilgan?**

- A) Oybek, Asil Rashidov
- B) Mirkarim Osim, Nosir Fozilov
- C) Oybek, M.Kenjabeq
- D) Maqsud Shayxzoda, Mirza Konjabeq

**383. «Yevgeniy Onegin» she'riy romanida Tatyana kimning qizi edi?**

- A) oqsochning
- B) aslzoda Larinning
- C) knyazning
- D) aslzoda Borlarning



384. Yevgeniy qishioqqa nima maqsadida keladi («Yevgeniy Onegin»)?

- A) sayohatga
- B) amakisining mehmoniga
- C) amakisining mulkiga egalik qilish maqsadida
- D) Tatyana ni ko'rish uchun

385. «Tatyana ning Onegin ga maktubini» romanning nechanchi faslidan o'rin olgan («Yevgeniy Onegin»)?

- A) 3-faslidan
- B) 4-faslidan
- C) 8-faslidan
- D) 10-faslidan

386. Tatyana ning maktubini Onegin ga kim olib boradi («Yevgeniy Onegin»)?

- A) Filipevna
- B) oqsochining nevarasi
- C) qo'shni qiz
- D) enagasi

387. Tatyana ning oqsochi kim («Yevgeniy Onegin»)?

- A) Lukretsiya
- B) Shura
- C) Lyudmila
- D) Filipevna

388. Tatyana kimga turmushga chiqadi («Yevgeniy Onegin»)?

- A) Onegin ga
- B) qarindoshiga
- C) knyazga
- D) aslzoda Ruslanga

389. Tatyana ning knyazga turmushga chiqqaniga qancha bo'lgan edi («Yevgeniy Onegin»)?

- A) 1 yil
- B) 2 yil
- C) 3 yil
- D) 5 yil

390. Knyaz Onegin ga kim bo'ladi («Yevgeniy Onegin»)?

- A) qarindoshi, do'sti
- B) ukasi
- C) amakisi
- D) hech kim

391. Yo'qdir biron soxta jilvasi,  
Yo'q taqlidiy biron ifoda,  
Bonu tamom sokin va sodda.

Ta'rif kim haqida («Yevgeniy Onegin»)?

- A) Yevgeniy
- B) knyaz
- C) Filipevna
- D) Tatyana

392. Qarshingizda qotmoq g'ussada,  
Bo'zarmoq va so'nmoq... rohat bu».

Misralar kimning maktubidan olingan («Yevgeniy Onegin»)?

- A) Tatyana ning
- B) Yevgeniyning
- C) knyazning
- D) B va C

393. Shoir bo'ldi na u dunyoda,  
Na o'ldi, na aqldan ozdi.

Misralarda kim haqida fikr yuritilgan («Yevgeniy Onegin»)?

- A) Tatyana
- B) Yevgeniy
- C) knyaz
- D) aslzoda Larin

394. Men sharmisor bo'layin, faqat  
Bu gap sizga keltirsin shuhrat.

Bu gap kim tomonidan aytilgan («Yevgeniy Onegin»)?

- A) Tatyana
- B) Lyudmila
- C) knyaz
- D) Filipevna

395. Rus adabiyotidagi ilk she'riy roman qaysi?

- A) A.S.Pushkin «Yevgeniy Onegin»
- B) Lermontov «Maskarad»
- C) A.S.Pushkin «Ruslan va Lyudmila»
- D) Musa Jalil «Xat tashuvchi»

396. «Yevgeniy Onegin» qaysi asardan ta'sirlanib yozilgan?

- A) Bokachho «Dekameron»
- B) Bayron «Don Juan»
- C) Grigor Narikatsi «Musibatnoma»
- D) A va B

397. O'zbek adabiyotidagi ilk she'riy roman qaysi?

- A) Mirmuhsin «Ziyod va Adiba»
- B) Muhammad Ali «Boqiy dunyo»
- C) H.Sharipov «Bir savol»
- D) H.Olimjon «Oygul bilan Baxtiyor»

**398. O'zbek adabiyotidagi she'riy romanlarni ayting.**

A) Muhammad Ali «Boqiy dunyo», O' Umarbekov «Fotima va Zuhra», Mirmuhsin «Ziyod va Adiba»

B) Mirmuhsin «Ziyod va Adiba», Muhammad Ali «Boqiy dunyo», H. Sharipov «Bir savol»

C) H. Olimjon «Oygul bilan Baxtiyor», H. Sharipov «Bir savol», S. Ahmad «Muhabbat»

D) Mirmuhsin «Ziyod va Adiba», S. Zunnunova «Sodiq va Anor», H. Olimjon «Zaynab va Omon»

**399. «Boqiy dunyo» asari muallifi kim?**

- A) Mirmuhsin B) H. Olimjon  
C) H. Sharipov D) Muhammad Ali

**400. «Bir savol» asari muallifi kim?**

- A) Muhammad Ali B) H. Sharipov  
C) Oybek D) Mirmuhsin

**401. Chingiz Aytmatov qachon, qayerda tug'ilgan?**

A) 1928-yili Turkiston viloyatining Inoq qishlog'ida

B) 1927-yili Turkmanistonning Atrak qishlog'ida

C) 1929-yili Janubiy Qozog'iston viloyatining Turbat qishlog'ida

D) 1928-yili Qirg'izistonning Talas vodiysi Shakar ovulida

**402. Chingiz Aytmatovning bobosi qaysi kasb egasi bo'lgan?**

- A) chorvador  
B) dehqon  
C) hunarmand, qo'bizchi  
D) mahsido'z

**403. Ch. Aytmatovning onasi kim?**

- A) Nargiza Hamzayevna Aytmatova  
B) Nasima Aytmatovna Hamzayeva  
C) Nagima Hamzayevna Aytmatova  
D) Nozima Hamzayevna Aytmatova

**404. Ch. Aytmatovning asarlari**

1. «Jamila». 2. «Qizil durrali saiqovon tim». 3. «Momo yer». 4. «Yuzma yuz». 5. «Bo'tako'z». 6. «Birinchi muallim». 7. «Erta qaytgan turnalar». 8. «Alvan Gulsari». 9. «Oq kema». 10. «Qiyomat». 11. «Asrga tatigulik kun». 12. «Kamand tamg'asi». 13. «Tog'lar qulaganda»

- A) 1, 2, 4, 8, 10, 11  
B) 1, 3, 5, 7, 9, 12, 13  
C) 1, 2, 4, 8, 9, 10  
D) barchasi

**405. Ch. Aytmatov qayerda o'qigan?**

A) Qirg'iziston qishloq xo'jaligi institutida, 1956 – 1958-yillarda Moskvadagi Oliy adabiyot kursida

B) Turkmaniston qishloq xo'jaligi institutida, 1958 – 1960-yillarda Moskvadagi Oliy adabiyot kursida

C) O'rtasiy Osiyo davlat universitetida, 1952 – 1954-yillarda Moskvadagi Oliy adabiyot kursida

D) Qozog'iston qishloq xo'jaligi institutida, 1954 – 1956-yillarda Moskvadagi Oliy adabiyot kursida

**406. Ch. Aytmatovning otasi kim?**

- A) Sulaymon B) To'raqul  
C) Aytmat D) Sobir

**407. 10 yoshida dehqon mehnatining barcha zahmatini tatigan ijodkor kim?**

- A) P. Qodirov B) G'. G'ulom  
C) Ch. Aytmatov D) O. Yoqubov

**408. Ch. Aytmatov necha yoshida qishloq kengashiga kotib bo'lib ishga kiradi?**

- A) 12 yoshida B) 16 yoshida  
C) 15 yoshida D) 14 yoshida

**409. «Agar men bu yerda o'qimaganimda o'z qissalarimni yoza olmaganim bo'lardim», – deb Ch. Aytmatov qayandagi tahsilini nazarda tutadi?**

- A) Qirg'iziston qishloq xo'jaligi instituti  
 B) Moskvadagi Oliy adabiyot kursi  
 C) O'rta Osiyo davlat universiteti  
 D) A va B

**410. 1991-yildan Qirg'iziston va Rossiya Federatsiyasining Lyuksemburg va Itolgiyadagi elchisi lavozimida ishlagan ijodkor kim?**

- A) R.Hamzatov B) Ch.Aytmatov  
 C) Mirtemir D) O'.Umarbekov

**411. Ch.Aytmatov asarlari nechta tilga tarjima qilingan?**

- A) 124 ta B) 156 ta  
 C) 165 ta D) 160 ta

**412. Ch.Aytmatov asarlari nechta mamlakatda nashr qilingan?**

- A) 67,2 million C) 62,7 million  
 C) 55,7 million D) 69,5 million

**413. «Asrga tatigulik kun» romanini kim o'zbek tiliga tarjima qilgan?**

- A) Kozim Qayumov  
 B) Aziz Qayumov  
 C) Asil Rashidov  
 D) Asqar Mahkam

**414. Qaysi asar voqealari bir kunda bo'lib o'tadi?**

- A) «Qiyomat»  
 B) «Asrga tatigulik kun»  
 C) «Tog'lar qulaganda»  
 D) «Yuzma-yuz»

**415. Ch.Aytmatovning «Jamila» qissasi qachon yozilgan?**

- A) 1957-yili B) 1958-yili  
 C) 1959-yili D) 1960-yili

**416. Ch.Aytmatovning «Yuzma-yuz» qissasi qachon yozilgan?**

- A) 1955-yili B) 1958-yili  
 C) 1959-yili D) 1957-yili

**417. «Asrga tatigulik kun» romanida kimning mayitini qabristonga olib ketishadi?**

- A) Edigeyning  
 B) Kazangapning  
 C) Nayman onaning  
 D) Jo'lamonning

**418. Bo'ronli bekatidan Ona bayit qabristonigacha qanchalik yo'l edi («Asrga tatigulik kun»)?**

- A) 30 chaqirimlik yo'l  
 B) 60 chaqirimlik yo'l  
 C) 40 chaqirimlik yo'l  
 D) 50 chaqirimlik yo'l

**419. Sobitjon kim («Asrga tatigulik kun»)?**

- A) Edigeyning o'g'li  
 B) Edigeyning qo'shnisi  
 C) Kazangapning o'g'li  
 D) Nayman onaning o'g'li

**420. Qumbelda qanday maktab ochiladi («Asrga tatigulik kun»)?**

- A) shifokorlarning bolalari uchun maktab-internat  
 B) temiryo'lchilarning bolalari uchun maktab-internat  
 C) harbiylarning bolalari uchun maktab-internat  
 D) qishloq bolalari uchun maktab-internat

**421. «O'ladigan odamning o'lgani yaxshi, ketadigan odamning ketgani yaxshi» maqoli kim tomonidan aytilgan («Asrga tatigulik kun»)?**

- A) Edilboy  
 B) Edigey bo'ron  
 C) Edigey jabduq  
 D) Sobitjon

**422. Kimni «Bo'ron» deb atashar edi («Asrga tatigulik kun»)?**

- A) Edigeyni B) Kazangapni  
C) Sobitjonni D) Jo'lamonni
423. Edigey Bo'ronning tuyasi qanday ataladi («Asrga tatigulik kun»)?  
A) Qoralok B) Qoranor  
C) Oqmoya D) Olanor
424. Kazangapning nevaralari nima uchun uning ta'ziasiga kelishmagan edi («Asrga tatigulik kun»)?  
A) kasal bo'lishgani uchun  
B) kelishni xohlamagani uchun  
C) Sobitjonning aytishicha, o'zlashtirish va davomat uchun kurashar ekanlar, institutga kirish uchun attestati toza bo'lishi kerak  
D) onasi ruxsat bermagani uchun
425. Kazangapning kelini nima uchun uning ta'ziasiga kelmagan edi («Asrga tatigulik kun»)?  
A) kasal bo'lgani uchun  
B) konferensiyada qatnashishi kerak, konferensiyaga chet eldan mehmonlar kelishi kerak ekan  
C) Sobitjon olib kelishni xohlamagani uchun  
D) ishi va bolalari borligi uchun
426. Kazangapni qaysi qabristonga qo'yishadi («Asrga tatigulik kun»)?  
A) Ona Bayit qabristoniga  
B) Sario'zak qabristoniga  
C) Qimbel qabristoniga  
D) Qo'ng'irtov qabristoniga
427. Kazangapning do'sti kim edi («Asrga tatigulik kun»)?  
A) Edigey Bo'ron B) Edilboy  
C) Edigey jabduq D) Sobitjon
428. Kim Sobitjonga uning o'rniga bir hovuch tuproq tashlay olishini, shoshayotgan bo'lsa ketaverishini aytadi («Asrga tatigulik kun»)?

- A) Edigey bo'ron  
B) Kazangapning qo'shnisi  
C) Edigey jabduq  
D) Edilboy
429. Nayman ona kimlardan manqurt yigit haqida bilib oladi («Asrga tatigulik kun»)?  
A) sayyohlardan  
B) cho'ponlardan  
C) savdogarlardan  
D) dehqonlardan
430. Manqurtlar makon qilgan qanday ataladi («Asrga tatigulik kun»)?  
A) Jilisoy dashti B) Sario'zak dashti  
C) Qimbel dashti D) Qo'ng'irtov dashti
431. Nayman onaning o'g'li nima uchun jungjanglar bilan jang qilishga ketadi («Asrga tatigulik kun»)?  
A) Vatan uchun kurashish maqsadida  
B) singlisining o'chini olish maqsadida  
C) otasining o'chini olish maqsadida  
D) do'stining o'chini olish maqsadida
432. Nayman ona o'g'lining ketganiga qancha muddat bo'lgan edi («Asrga tatigulik kun»)?  
A) yarim yil B) bir yil  
C) bir yarim yil D) ikki yil
433. Nayman onaning tuyasi qanday ataladi («Asrga tatigulik kun»)?  
A) Oqmoya B) Qoranor  
C) Oqnor D) Qoralok
434. O'g'lini qidirishga otlangan Nayman ona yo'lga nimani ko'proq oladi («Asrga tatigulik kun»)?  
A) ovqatni B) kiyimni  
C) suvni D) o'qni
435. Savdogarlar tuyachi manqurt yigitni qayerda ko'rgandilar («Asrga tatigulik kun»)?

- A) Sario'zak jarligida  
B) Jilisoy jarligida  
C) Qo'ng'irtov jarligida  
D) Malaqumdichop jarligida
436. Nayman onaning manqurt o'g'li («Asrga tatigulik kun»)?  
A) Do'nanboy B) Jo'lomon  
C) Kazangap D) Sobitjon
437. Jo'lomonning otasi kim («Asrga tatigulik kun»)?  
A) Do'nanboy B) Edigey  
C) Kazangap D) Do'lamon
- C) 11 noma yozishini ta'kidlagan muallif asarni 12 noma qilib tugatgan
- D) 12 noma yozishini ta'kidlagan muallif asarni 13 noma qilib tugatgan

480. «Muhabbatnoma» tarkibida qanday janrdagi asarlar uchraydi?

- 1) g'azal; 2) soqiyнома; 3) munofiq
- 4) qit'a; 5) masnaviy; 6) fard.
- A) 1, 4, 5, 6    B) 1, 2, 3, 5
- C) 1, 3, 5, 6    D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

481. Noma janrining shakllanishida qaysi ijodkorning o'rnini beqiyos?

- A) Xorazmiy    B) Xo'jandiy
- C) Saolibiy    D) Navoiy

482. «Latofatnoma» asari muallifi kim?

- A) Xorazmiy    B) Huvaydo
- C) Xo'jandiy    D) Sakkokiy

483. «Taashshuqnoma» asari muallifi kim?

- A) Said Ahmad
- B) Yusuf Amiriy
- C) Sayyid Qosimiy
- D) Xo'jandiy

484. «Muhabbatnoma» qaysi tilda yozilgan?

- A) turkiy hamda arabiy
- B) arabiy hamda forsiy
- C) turkiy hamda forsiy
- D) faqat turkiy

485. *Qiloyin ikki bobin porsii ham*

*Kim, atlas to'n yarashur bo'lsa mu'lam.*

Misralar «Muhabbatnoma»ning qaysi janri qismidan o'rin olgan?

- A) munojot      B) g'azal  
C) qit'a        D) masnaviy

486. Xorazmiy qaysi janrlarning ilk namunalarini yaratdi?

- A) soqiynoma, masnaviy, fard, qit'a  
B) noma, g'azal, fard, qit'a  
C) g'azal, munojot, soqiynoma, fard  
D) noma, g'azal, masnaviy, qit'a

487. *Tun, oqshomkim ko'rundi*  
bayram oyi,

*Muhammad Xojabek davlat humoyi.*

U misralar «Muhabbatnoma»ning qaysi qismidan o'rin olgan?

- A) «Avval ko'rishganin aytur»  
B) «Vasf ul-hol aytur»  
C) «Avvalgi nomani aytur»  
D) «Bayoni voqein aytur»

488. «Og'oz» so'zining ma'nosi ...

- A) o'qidi        B) yonimda  
C) boshladi    D) ovoza, ta'rif

489. «Qotimdo» so'zining ma'nosi ...

- A) baxt qushi    B) o'tkinchi dunyo  
C) yonimda     D) quloq

490. «Muhabbatnoma»ning 1-g'azali qaysi misralar bilan boshlanadi?

- A) Yaratqonkim tan ichra jon yarotti,  
Seni ko'rklar uzra xon yarotti  
B) Qadah chavruldi ush bo'ston ichinda  
Xush ichgil rohni, rayhon ichinda  
C) Jahonda sentekin jonon yo'q,  
ey jon,  
Sening dardingga darmon yo'q,  
ey jon  
D) Yuzungda ko'rdim, ey jon,  
bayram oyin,  
Muning shukronasi qurbon bo'loyin

491. «Shakardek til bilan» yozilgan asar ...

- A) «Qutadg'u bilig»  
B) «Guliston bit-turkiy

- C) «Latofatnoma»  
D) «Muhabbatnoma»

492. Qaysi ijodkor o'z g'azalida saodat va baxt uning bo'yiga latofatdan to'n bichganini ta'kidlaydi?

- A) Xo'jandiy    B) Xorazmiy  
C) Sakkokiy   D) Atoyi

493. Xorazmiyning saodat va baxt uning bo'yiga latofatdan to'n bichganini ta'riflovchi ifodalari qaysi g'azalida aks etgan?

- A) «Yuzungda ko'rdim, ey jon, bayram oyin»  
B) «Yaratqonkim tan ichra jon yarotti»  
C) «Qadah chavruldi ush bo'ston ichinda»  
D) «Jahonda sentekin jonon yo'q, ey jon»

494. *Yaratqonkim tan ichra jon yaratti,  
Meni ko'rklar uzra xon yaratti.*

Misralar «Muhabbatnoma»ning qanday janrdagi asaridan o'rin olgan?

- A) masnaviy    B) g'azal  
C) munojot     D) qit'a

495. *Yaratqonkim tan ichra jon yaratti,  
Meni ko'rklar uzra xon yaratti.*

Misralarda kim tasvirlangan («Muhabbatnoma»)?

- A) Jonibek sulton  
B) Mahmud sulton  
C) M.Xojabek  
D) Muhammad sulton

496. Xorazmiy «Muhabbatnoma»ning qaysi qismida asarning yozilish sababi, kimga bag'ishlanganligi, 10 nomadan iborat bo'lishi, ikki tilda yozajagini ma'lum qilgan?

- A) «Bayoni voqein aytur» masnaviy-sida

- B) «Avval ko'rishkanin aytur» masnaviysida  
 C) «Vasf ul-hol aytur» masnaviysida  
 D) «Avvalg'i nomani aytur» masnaviysida
- 497. «Qadah chavrudli ush bo'ston ichinda» deb boshlanuvchi asar qanday janrda?**  
 A) fard B) qit'a  
 C) masnaviy D) g'azal
- 498. «Jov» so'zining ma'nosi ...**  
 A) oxir B) ovoza, ta'rif  
 C) tasnif D) maqto'v
- 499. «Davisqincha» so'zining ma'nosi ...**  
 A) ovoza, ta'rif B) oxir  
 C) oxirigacha D) o'tkinchi dunyo
- 500. «May boshqa mindi» gapining mazmuni ...**  
 A) mast qildi B) may qizitdi  
 C) mast tarqadi D) qadah
- 501. «Anjom» so'zining ma'nosi ...**  
 A) oxirigacha B) narsa, buyum  
 C) ovoz, ta'rif D) oxir
- 502. «Kunj» so'zining ma'nosi ...**  
 A) jannat  
 B) quyosh  
 C) burj, sayyoralar qo'nadigan manzil  
 D) makon
- 503. Yusuf payg'ambar adabiyotda, she'riyatda qanday ifodalar bilan birga ishlatiladi?**  
 A) Yusuf nafas B) Yusuf liqo  
 C) Masih D) barchasi
- 504. «Taqqiyat» so'zining ma'nosi ...**  
 A) haqiqat B) abadiy  
 C) quvvat D) sog'lomlik

- 505. «Jud» so'zining ma'nosi ...**  
 A) saxovat B) abadiy  
 C) quvvat D) yuz
- 506. «Jovud» so'zining ma'nosi ...**  
 A) kotib B) ayriliq  
 C) abadiy D) portlovchi, nu'ron
- 507. «Tobonda» so'zining ma'nosi ...**  
 A) baxtii B) saodatli sayyora  
 C) saxovatli D) portlovchi, nu'ron
- 508. «Dabir» so'zining ma'nosi ...**  
 A) xizmatkor B) kotib  
 C) misol D) mukofot
- 509. «Ching'on» so'zining ma'nosi ...**  
 A) mukofot B) o'tloq, sabzavot  
 C) kotib D) abadiy
- 510. «Vasf ul-hol» sarlavhali parcha qaysi asardan olingan?**  
 A) «Latofatnoma»dan  
 B) «Muhabbatnoma»dan  
 C) «Guliston bit-turkiy»dan  
 D) «Hibat ul-haqoyiq»dan
- 511. Bo'yung sarv-u sanubartek, beling qil. Vafo qilg'on kishilarga vafo qil. Misralar «Muhabbatnoma»ning qaysi qismidan o'rin olgan?**  
 A) «Bayoni voqein aytur»  
 B) «Avval ko'rishganin aytur»  
 C) «Avvalg'i nomani aytur»  
 D) «Vasf ul-hol aytur»
- 512. «Muhabbatnoma»da yornin qaysi shakar labi novoti nimaga o'xshatilgan?**  
 A) Musoga B) Xorutga  
 C) Ayubga D) Xizrga
- 513. «Muhabbatnoma»da qanday janrning boshlanishi bir xil?**  
 A) g'azal B) masnaviy  
 C) fard D) qit'a

- 514. «Novak» so'zining ma'nosi ...**  
 A) mukofot B) o'q kiprik  
 C) ko'r D) misol
- 515. «Suyurg'ab» so'zining ma'nosi ...**  
 A) misol B) xizmatkor  
 C) mukofot D) ko'r
- 516. «Muhabbatnoma»da birinchi nomadagi masnaviyda kimga murojaat qilinadi?**  
 A) ko'rk ichra olam podshosiga  
 B) oy yuzli dilbarga  
 C) tong nasimiga  
 D) soqiyga
- 517. «Muhabbatnoma»ning ilk nomadagi kimga murojaat etiladi?**  
 A) ko'rk ichra olam podshosiga  
 B) oy yuzli dilbarga  
 C) soqiyga  
 D) do'stlarga
- 518. «Muhabbatnoma»ning ikkinchi nomadagi kimga murojaat qilinadi?**  
 A) oy yuzli dilbarga  
 B) tong nasimiga  
 C) soqiyga  
 D) do'stlarga
- 519. «Nadim» so'zining ma'nosi ...**  
 A) xizmatkor B) kambag'al  
 C) misol D) ichish
- 520. «Tiboq» so'zining ma'nosi ...**  
 A) muqarrar B) xizmatkor  
 C) tizim D) misol
- 521. «Obi baqo» so'zining ma'nosi ...**  
 A) jannat bog'i  
 B) g'am uyi  
 C) hayot suvi, abadiy tiriklik suvi  
 D) misol
- 522. «Farunda» so'zining ma'nosi ...**  
 A) eshingingda  
 B) baxtii, saodatli, yaxshi, muborak

- C) xizmatkor  
 D) olov
- 523. «No'sh» so'zining ma'nosi ...**  
 A) kelish, qonish  
 B) qadah  
 C) ichish  
 D) yonish
- 524. «Yovutmon» so'zining ma'nosi ...**  
 A) yaqinlashtirmayman  
 B) yorug'  
 C) kelish, qo'nish  
 D) yutmoq, yemoq
- 525. «Engay» so'zining ma'nosi ...**  
 A) yonish  
 B) kelish, qo'nish, mehmon bo'lish  
 C) qiyinchilik  
 D) chidamli, sabrli
- 526. «Madhush» so'zining ma'nosi ...**  
 A) ichish B) qorachiq  
 C) behush D) mastlik
- 527. Qamug' ko'rkluklar uzra podshosen, Masih anfosliq, Yusuf liqosen. Bu misralar «Muhabbatnoma»ning nechanchi nomasidan olingan?**  
 A) 5-nomadan B) 3-nomadan  
 C) 6-nomadan D) 2-nomadan
- 528. Jahonda sentekin jonon yo'q, ey jon, Sening dardinga hech darmon yo'q, ey jon. Bu misralar «Muhabbatnoma» tarkibidagi qaysi janrning boshlanishi?**  
 A) g'azal B) masnaviy  
 C) qit'a D) fard
- 529. «Muhabbatnoma»ning nechanchi nomasi masnaviysida «gulchehra soqiy»ga murojaat qilinadi?**  
 A) 3-nomasi B) 5-nomasi  
 C) 6-nomasi D) 10-nomasi



**530. «Muhabbatnoma»ning nechanchi nomasi masnaviyda «oy yuzli dilbar»ga murojaat qilinadi?**

- A) 2-nomasi    B) 5-nomasi  
C) 3-nomasi    D) 6-nomasi

**531. «Muhabbatnoma»ning nechanchi nomasi «Ayo gulchehralar molik riqobi» misralari bilan boshlanadi?**

- A) 3-noma    B) 5-noma  
C) 2-noma    D) 9-noma

**532. Xorut kim?**

A) payg'ambarlardan biri, kofirlar zulmidan qochib daraxt ichiga yashiringan, kofirlar daraxt bilan birga arralaganlarida ham Xudoni tilidan qo'ymagan

B) payg'ambarlardan biri, badanini yara bosib, qurtlagan bo'lsa-da, chidagan va Xudoning inoyati bilan tuzalgan, sabr timsoli

C) yahudiy payg'ambarlardan biri, Xudo bilan so'zlashgani uchun xalq orasida «Kalimulloh» nomi bilan ataladi

D) yerdagi ayolga oshiq bo'lgani uchun Xudo g'azabiga uchragan farishta

**533. «Muhabbatnoma» nomalari tarkibidagi masnaviylar hajmi ...**

- A) har bir masnaviyning hajmi 3 baytdan  
B) har bir masnaviyning 2 baytdan  
C) har bir masnaviyning hajmi 5 baytdan  
D) masnaviyning hajmi turlicha

**534. Yarar jon desalar yoqutingizga, Teng etmon Zuhrani Xorutingizga. Misralar qaysi asardan olingan?**

- A) «Muhabbatnoma», 3-noma  
B) «Muhabbatnoma», 5-noma  
C) «Latofatnoma», 5-noma  
D) «Latofatnoma», 6-noma

**535. «Ilohi, otqu qilg'il jonimizni, Xalaldin saqlagil imonimizni»**

**Misralar qaysi janrdagi boshlanishi?**

- A) g'azal    B) fard  
C) masnaviy    D) munofot

**536. Xorazmiy «Muhabbatnoma»ning nechanchi nomasida asarni nom qilmog'chi bo'lganini, o'n bir noma qilib tugatganligini ta'kidlaydi?**

- A) 8-nomasida  
B) 9-nomasida  
C) 10-nomasida  
D) 11-nomasida

**537. Xorazmiy «Muhabbatnoma»ning qaysi qismida asarni o'n nom qilmog'chi bo'lganini, o'n bir noma tugatganligini ta'kidlaydi?**

- A) masnaviy    B) qit'a  
C) fard    D) g'azal

**538. «Xoliq» so'zining ma'nosi**

- A) pir  
B) Yaratuvchi, Tangri  
C) payg'ambar  
D) ko'r

**539. «A'mo» so'zining ma'nosi**

- A) ayon, ravshan  
B) ko'r  
C) qalam  
D) yolqin, olov

**540. «Muhabbatnoma»ning nechanchi nomalari forsiy tilda yozilgan?**

- A) 3-, 5-, 11-nomalari  
B) 4-, 8-, 11-nomalari  
C) 2-, 4-, 8-nomalari  
D) 4-, 8-, 10-nomalari

**541. «Ta'xir» so'zining ma'nosi**

- A) tarix  
B) xiralashdi

- C) oxirlandi, oxiri qoldi  
D) lugatmoq

542. Xorazmly asarning nechanchi nomasida husn va vafoning muvofiq talmasligini ta'kidlaydi?

- A) 5-noma B) 11-noma  
C) 10-noma D) 7-noma

543. *Ta'ma dominda qolur qush emasman, Talim ayvon uza uchqon humomen.*

U misralar «Muhabbatnoma»dagi qaysi janrning boshiang'ich qismi?

- A) qit'a B) masnaviy  
C) fard D) xotimat ul-kitob

544. «Bikr» so'zining ma'nosi ...

- A) saxovat  
B) qiz bola, toza, bokira  
C) yuz  
D) xol

545. «Muhabbatnoma»ning Sir yo-qasida bititigani haqidagi ma'lumot asarning qaysi qismida keltirilgan?

- A) qit'a  
B) fard  
C) xotimat ul-kitob  
D) masnaviy

546. «Muhabbatnoma»dagi fardning hajmi ...

- A) 3 bayt B) 1 bayt  
C) 5 bayt D) 2 bayt

547. «Muhabbatnoma»dagi fardni ay-tiq.

- A) Muni kim ishq birla o'qig'ay,  
Tilarmenkim, duoda yod qilg'ay  
B) «Muhabbatnoma: so'zin munda  
ayltim, qamug'in Sir yaqosinda bitidim  
C) Tama domida qolur qush emasman,  
Talim ayvon uza uchqon humomen  
D) Niyozim bu turar sendin, nigoro,  
Unutma bandani, bahri xudoro

548. Xorazmiy «Muhabbatnoma»-ning qaysi qismida o'zining ham por-so, ham rind ekanligini ta'kidlaydi?

- A) masnaviyda B) qit'ada  
C) munojotda D) fardda

549. «Porso» so'zining ma'nosi ...

- A) hukmdor  
B) taqvodor kishi  
C) dono kishi  
D) chidamli, sabrli

550. Xo'jandiy va uning «Latofatno-ma» asari haqidagi ma'lumot bizgacha qaysi manba orqali yetib kelgan?

- A) Sakkokiy asarlarida  
B) Xo'jandiyning o'z asari «Latofat-noma» orqali  
C) S.Saroyining «Guliston bit-turkiy» orqali  
D) Navoiy asarlari orqali

551. «Latofatnoma» qaysi asardan ta'sirlanib yozilgan?

- A) «Guliston bit-turkiy»dan  
B) «Muhabbatnoma»dan  
C) «Ulug'bek madhi»dan  
D) «Yatimat ad-dahr»dan

552. «Latofatnoma» kimga bag'ish-langan?

- A) Batxasbekka  
B) Mahmud sultonga  
C) Muhammad Xo'jabekka  
D) Ulug'bekka

553. 1411-yili, so'ng 1422 – 1424-yil-larda Xorazm taxtida o'tirgan hukmdor kim?

- A) Muhammad sulton  
B) Mahmudxon sulton  
C) Elbarsxon  
D) Arab Muhammadxon

554. Xo'jandiy qachon yashab ijod etgan?

- A) XV asrda
- B) XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmida
- C) XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmida
- D) XIII asr oxiri – XIV asrning birinchi yarmida

**555. «Latofatnoma»ning «Muhabbatnoma»dan farqi nima?**

- A) «Latofatnoma» boshdan oyoq masnaviy shaklida bo'lib, boshqa janrdagi asarlar uchramaydi
- B) «Latofatnoma» soqiyнома va g'azallardan tuzilgan
- C) «Latofatnoma» faqat g'azallardan tuzilgan
- D) «Latofatnoma» masnaviy va g'azallardan iborat

**556. Muhabbat jomidin ichsang sharobe, «Muhabbatnoma»ga aytsang javobe.**

**Bu misralar qaysi asardan olingan?**

- A) «Muhabbatnoma»dan
- B) «Latofatnoma»dan
- C) «Guliston bit-turkiy»dan
- D) «Alp Er To'nga marsiyasi»dan

**557. «Latofatnoma»ning hajmi ...**

- A) 11 noma      B) 12 noma
- C) 14 noma      D) 10 noma

**558. Saxovat bobida chun Hotami Tay, Shijoat mulkida chun Kovus-u Kay.**

**Bu ta'rif kim haqida («Latofatnoma»)?**

- A) Mahmudxon sulton
- B) Muhammad Xojabek
- C) N.To'qbo'g'a
- D) Dod Sipohsolorbek

**559. Xo'jandiy nimani «quduq qazmoq daryo qotinda» deb ta'riflaydi?**

- A) «Sizdek (Mahmud sulton) dono oldida turmoqni»

- B) «Sizdek (Mahmudxon sulton) dono oldida so'z aytmoqni»
- C) ilm o'rganmoqni
- D) A va B

**560. Qaysi ijodkor ijodida yorning yuzini ko'rib quyoshning yerga yiqilgani, oyog'ining tuprog'ini ko'zligi oqib ma qilgani tasviri uchraydi?**

- A) Xorazmiy    B) Sakkokiy
- C) Sayfi Saroyi    D) Xo'jandiy

**561. Sulaymontek erur joh-u julotning Xo'jandiytek zaif bo'lsin chumolning Misralar qaysi asarda uchraydi?**

- A) «Muhabbatnoma»da
- B) «Latofatnoma»da
- C) «Ulug'bek madhi»da
- D) «Guliston bit-turkiy»da

**562. «Uyg'ur iboratining fusahosidim va turk alfozining bulag'osidin Mavlono ... va Mavlono ...kim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda beg'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur ham devonlari mavjud bo'lg'ay». Parchadagi nuqtalar o'rtiga kerakli ismlarni qo'ying.**

- A) Sakkokiy, Atoyi
- B) Atoyi, Gadoiy
- C) Sakkokiy, Lutfiy
- D) Atoyi, Lutfiy

**563. «Uyg'ur iboratining fusahosidim va turk alfozining bulag'osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiykim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda beg'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur ham devonlari mavjud bo'lg'ay». Parcha muallifi kim?**

- A) Atoyi
- B) Gadoiy
- C) A.Navoiy
- D) Sayfi Saroyi

564. A.Navoiyning ta'kidlashicha, Sakkokiy va Lutfiy ijodiy merosi qaysi hududlarda mashhur bo'lgan?

- A) Sakkokiy Turkistonda, Lutfiy Iroq va Xurosonda
- B) Lutfiy Turkistonda, Sakkokiy Iroq va Xurosonda
- C) ikkala ijodkorning merosi Turkistonda mashhur bo'lgan
- D) ikkala ijodkorning merosi ham Turkistonda, ham Xurosonda mashhur bo'lgan

565. «Sakkokiy» so'zining ma'nosi ...

- A) qilich
- B) pichoqchi
- C) laziz
- D) navo

566. Sakkokiy qachon va qayerda tug'ilgan?

- A) XV asrda Hirotida
- B) XIV asrda Iroqda
- C) XV asrda, qayerda tug'ilganligi haqida ma'lumot yo'q
- D) qachon va qayerda tug'ilganligi haqida ma'lumotlar yo'q (taxminan XIV asrning ikkinchi yarmida, balki oxirgi choragida tug'ilgan)

567. Sakkokiy kimlarga bag'ishlab qasidalar yozgan?

1. Xalil sulton. 2. Arslon Xo'ja tarxon. 3. Xo'ja Muhammad Porso. 4. Mirzo Ulug'bek.

- A) 1, 4
- B) 1, 2, 4
- C) 1, 2, 3, 4
- D) 1, 3, 4

568. Xalil sulton nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?

- A) 1405 – 1409
- B) 1409 – 1444
- C) 1394 – 1449
- D) 1409 – 1449

569. «Hibat ul-haqoyiq» asarini ko'chirtirgan shaxs kim?

- A) Arslon Xo'ja tarxon
- B) Xalil sulton
- C) Xo'ja Muhammad Porso
- D) Mirzo Ulug'bek

570. Sakkokiy kimga qasida yozgan davrida qalami ancha charxlangan edi?

- A) Ulug'bekka
- B) Muhammad Porsoga
- C) Arslon Xo'ja tarxonga
- D) Xalil sultonga

571. Sakkokiy qaysi adiblarning asarlaridan ijodiy oziqlangan?

- A) A.Jomiy, N.Ganjaviy, Firdavsiy, Shayx Muslihiddin Sa'diy
- B) Firdavsiy, Dehlaviy, N.Ganjaviy, Xo'ja Hofiz Sheroz
- C) N.Ganjaviy, Firdavsiy, Shayx Muslihiddin Sa'diy, Xo'ja Hofiz Sheroziy
- D) Xo'ja Hofiz Sheroziy, Dehlaviy, N.Ganjaviy

572. Sakkokiy ijodining gurkirab ketishida nima muhim rol o'ynagan?

- A) didaktika
- B) tasavvuf
- C) xalq og'zaki ijodi
- D) mumtoz asarlar

573. Sakkokiy g'azallari ...

- A) «Kim ermas ul oy muhtalosi», «Ey gul», «Sentek jahonda»
- B) «Kim ermas ul oy muhtalosi», «Ey begim», «Sentek jahonda»
- C) «Sipehri husn ichinda», «Ey gul», «Ulug'bek madhi»
- D) «Kim ermas ul oy muhtalosi», «Netti, ne bo'ldi?», «Ey gul»

574. Sakkokiyning «Sentek jahonda» deb boshlanuvchi g'azali radifini toping.

- A) «Qaysi»
- B) «Qani»
- C) «Qanaqa»
- D) «Qoldi»

575. Sakkokiyning qaysi g'azalida «mening ko'z yoshim-u ohim yuzing-ni toza qiladi, gul ob-u havo bilan toza bo'lgani kabi» o'xshatishlar uchraydi?

- A) «Ko'ngil olding»
- B) «Sentek jahonda»
- C) «Ey gul»
- D) «Kimki ermas ul oy mubtalosi»

576. Sakkokiy qaysi g'azalida ishq-ni oltinga aylantiradigan kimyoga o'xshatgan?

- A) «Kimki ermas ul oy mubtalosi»
- B) «Sentek jahonda»
- C) «Ey gul»
- D) «Ko'ngil olding»

577. Sakkokiy «Sentek jahonda» deb boshlanuvchi g'azalida yorning firog'idin yig'lab, ko'zini g'ubor tutganini ta'kidlab, buning davosi sifatida nimani keltiradi?

- A) sharob
- B) oying yuzini
- C) yorning tuzini
- D) yorning yuzini

578. «Sentek jahonda» deb boshlanuvchi g'azalning qofiyali so'zlari ...

- A) balo, muhtalo, qahrabo, to'tiyo, davo, kimyo, ob-u havo, benavo
- B) balo, davo, muhtalo, qahrabo, to'tiyo, kimyo, ob-u havo, benavo
- C) balo, benavo, muhtalo, qahrabo, to'tiyo, kimyo, ob-u havo, davo, benavo
- D) balo, qahrabo, muhtalo, to'tiyo, ob-u havo, kimyo, benavo, davo

579. Jahondin ketti tashvish-u  
mobodoyi amon keldi,  
Xaloyiq, aysh eting, bu kun sururi  
jovidon keldi

Misralar qaysi asarning boshlanishi?

- A) Xalil sultonga atalgan qasida
- B) Ulug'bekka atalgan qasida
- C) Arslon Xo'ja tarxonga atalgan qasida
- D) Xo'ja Muhammad Porsog'ul atalgan qasida

580. Salotin dunyoda ko'p keldi-yu  
kechti, seningtok bo'  
Falakning gar tili bo'lsa, ayitsunkim,  
qachon keldi

Misralarda kim ta'riflangan?

- A) Mahmud sulton
- B) Muhammad Xojabek
- C) Muhammad ibn Akbarshoh
- D) Ulug'bek

581. Ulug'bekka bag'ishlangan qasidaning hajmi ...

- A) 82 bayt 164 misra
- B) 34 bayt 68 misra
- C) 43 bayt 86 misra
- D) 14 bob 154 misra

582. Ulug'bekka bag'ishlab yozilgan qasidaning radifi ...

- A) «Kelur»      B) «Kelmoqda»
- C) «Keladi»     D) «Keldi»

583. Raiyat qo'y erur, sulton anga  
shubon-u yo bo'ri  
Bo'ri o'lg'oy-u qo'y ting'oy, chu  
Musotek shubon keldi

Baytda kim ta'riflangan?

- A) Ulug'bek
- B) Mahmud sulton
- C) Muhammad Xojabek
- D) N.To'qbo'g'a

584. Ulug'bekka bag'ishlangan qasidaning maqtasi ...

- A) Jahondin ketti tashvish-u  
mabodoyi amon keldi,  
Xaloyiq, aysh eting, bu kun  
sururi jovidon keldi

- B) Mamolik nazmi-yu, dinning  
 qurug'idur sharif zoting,  
 Nabitek shar'iy ishingda,  
 zamiring xurdadon keldi
- C) Jahonda qarnlar tirik bo'lub  
 izzat bila turg'il,  
 Azal vaqtida chun oting,  
 shahi sohibqiron keldi
- D) Erurman xonadoningning  
 ko'ngul birla duochisi  
 Menga burhon tilosalar, so'zum  
 xud chin ayon keldi

585. **Atoyi nechanchi asrlarda ya-  
 hab ijod etgan?**

- A) XIV asr boshi  
 B) XIV asr oxiri – XV asr birinchi yarmi  
 C) XV asr oxiri – XVI asr birinchi yarmi  
 D) XIII asr oxiri – XIV asr birinchi yarmi

586. **Navoiy qaysi asarida Atoyi haqi-  
 ni ma'lumot bergan?**

- A) «Mahbub ul-qulub»da  
 B) «Nasoyim ul-muhabbat»da  
 C) «Majolis un-nafois»da  
 D) «Lison ut-tayr»da

587. **«Munbasit» so'zining ma'nosi ...**

- A) aylana B) oqko'ngil  
 C) yuz D) xushbo'y, anbarli

588. **«Atrok» so'zining ma'nosi ...**

- A) kambag'al B) turkiylar  
 C) dehqonlar D) do'stlar

589. *«Mavlono Balxda bo'lur edi. Ismoil  
 ota farzandlaridandur, darveshvash va  
 xushxulq, munbasit kishi erdi. O'z zamo-  
 nida atrok orasida ko'p shuhrat tutti». Bu  
 ma'lumot kim haqida?*

- A) Sakkokiy B) Atoyi  
 C) Gadoiy D) Lutfiy

590. *Mavlono Balxda bo'lur edi. Ismoil  
 ota farzandlaridandur, darveshvash va*

*xushxulq, munbasit kishi erdi. O'z zamo-  
 nida atrok orasida ko'p shuhrat tutti». Atoyi  
 haqidagi ushbu parcha muallifi kim?*

- A) Jomiy B) A.Navoiy  
 C) Gadoiy D) Lutfiy

591. **Atoyining savol shaklidagi g'a-  
 zaiari qaysilar?**

- A) «Jamoling vasfini...», «Ey begim»,  
 «Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu»  
 B) «Netti, ne bo'ldi?», «Ey begim»,  
 «Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu»  
 C) «Ul sanamki», «Ey begim», «Ko'n-  
 gulni olg'ali»  
 D) «Netti, ne bo'ldi?», «Ey begim»,  
 «Ul sanamki»

592. *«Jamoling vasfini qildim chaman-  
 da». Baytning ikkinchi misrasini kel-  
 tiring.*

- A) «Kishi bilmas anikim, qoldi qan-  
 da»  
 B) «Kerakmas jon manga sensiz ba-  
 danda»  
 C) «Ayog'ing qayda bo'lsa, boshim  
 anda»  
 D) «Qizardi gul uyottin anjumanda»

593. **«Bayt ul-hazan» so'zining ma'-  
 nosi ...**

- A) ayriliq  
 B) g'am uyi  
 C) jannat bog'i  
 D) tong

594. *Gar o'qur majlisda xonanda  
 Atoyi she'rini,  
 Zuhra qo'psor, qilur shams-u qamar  
 zavq-u charoh.*

**Atoyi haqidagi ushbu misralar kim  
 tomonidan bitilgan?**

- A) A.Navoiy B) Gadoiy  
 C) Lutfiy D) Atoyi

595. *Zulfiing cheriki jamol mulkin*

*Oldi ko'zung ittifoqi birla.*

**Baytning ma'nosi nima?**

A) Agar sening kiprigingni uchi bilan birga qo'shib g'unchaga o'xshatsam, g'uncha quvonganidan terisiga (to'niga) sig'maydi, ya'ni ochiladi

B) Zulfiing – soching lashkari ko'zing bilan ittifoq tuzib go'zallik mamlakatini egallab oldi

C) Firoqingda ko'zim qon bo'ldi

D) Zulfiing jamoli ko'z o'ngimdan ketmaydi

596. «To'squ» so'zining ma'nosi ...

A) shu yetarli

B) boshqa, ortiqcha

C) to'siq

D) chuchuk, shirin

597. «Ayaq» so'zining ma'nosi ...

A) mastlik

B) qadah, soqiy, oyoq

C) soqiy jamoling nomi

D) turli giyohlardan tayyorlanadigan ichimlik

598. «Atoyi she'rining lutfini bilsa».

**Baytning keyingi misrasini keltiring.**

A) Asar qilmas nasihatgo'y pandi

B) Labi la'lingdadur ma'juni qandi

C) «Muhabbatnoma»din kechgay Xo'razmiy

D) «Latofatnoma»din kechgay Xo'jandiy

599. **Atoyi qaysi g'azalida yorning bo'yi madhini keitirishda «Rost» maqomi avjining ham kam ekanligini (mu'loyimligini) ta'kidlaydi?**

A) «Qon bo'ldi ko'ngil»

B) «Ko'ngulni olg'ali»

C) «Sipehri husn ichinda»

D) «Seni men ongladim»

600. «Bayt ul-hazan» ifodasi qaysi obraz bilan birga ishlatiladi?

A) Muso B) Xorut

C) Ayub D) Yaqub

601. *Ishqingda qaro sochim oquvdi*

*Bir boqmadi ko'z qarog'i birla.*

**Bayt Atoyining qaysi g'azalida ulinagan?**

A) «Qon bo'ldi ko'ngil»

B) «Ko'ngulni olg'ali...»

C) «Ey begim»

D) «Jamoling vasfini...»

602. «Hudhud» so'zining ma'nosi

A) boyo'g'li

B) sassiqpopishak

C) zag'izg'on

D) qarq'a

603. «Yasoq» so'zining ma'nosi

A) tik, baland B) tong

C) ho'l D) nizom, qoida

604. *Ul sanamkim suv yaqosindu*

*paritek o'lturdu*

*G'oyati nozuklukindin suv bila*

*yutsa bo'ldi*

**Bayt muallifi kim?**

A) Atoy B) Gadoiy

C) Sakkokiy D) Lutfiy

605. **Atoyining qaysi g'azalida «yori qo'li pok bo'lishi uchun suvda qo'lni yuvmaydi, balki suvni pok qilish uchun yuvadi» ifodasi mavjud?**

A) «Netti, ne bo'ldi»

B) «Ul sanamkim»

C) «Ey begim»

D) «Jamoling vasfini...»

606. **Atoy qaysi g'azalida «zori nola qilishim itlaringga dardisar (boshog'rig'i)mi?» deya so'roqqa tutadi?**

A) «Ul sanamki»

B) «Ey begim»

- C) «Sipehri husn ichinda»  
D) «Netti, ne bo'ldi?»

607. «Chavgon» so'zining ma'nosi ...

- A) bosh kiyim  
B) iashkar  
C) koptok surib o'ynaydigan uchi egri  
layoqcha; klyushka  
D) xalacho'p

608. Atoyining «Seni men ongladim»

qisqartirib boshlanuvchi g'azali qaysi radif bilan yozilgan?

- A) «Ey begim»  
B) «Emushtuksen»  
C) «Emish»  
D) «Ko'ngul»

609. «Mudavvar» so'zining ma'nosi ...

- A) aylana, yumaloq  
B) marvarid  
C) yuz  
D) xushbo'y, anbarii

610. Atoy qaysi g'azalida yorning

qaroqchi ko'zlarini ayyor Turkistonga o'xshatadi?

- A) «Seni men ongladim»  
B) «Sipehri husn ichinda»  
C) «Ul sanamki»  
D) «Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu»

611. Atoy g'azallari ...

1. «Qon bo'ldi ko'ngil». 2. «Ul sanamki...». 3. «Ko'ngil olding». 4. «Jamoling va'sfini...». 5. «Netti, ne bo'ldi?».  
6. «Qon bo'ldi ko'ngil». 7. «Ey begim...». 8. «Labing qonim to'karga...».  
9. «Sepehri husn ichinda». 10. «Seni men ongladim». 11. «Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu».

- A) 1, 2, 4, 7, 8, 9  
B) 1, 2, 5, 7, 11

- C) barchasi  
D) 1, 3, 5, 6, 8, 10

612. Gadoiy haqida Navoiyning qaysi asarlarida ma'lumot keltiriladi?

- A) «Nasoyim ul-muhabbat», «Majolis un-nafois»  
B) «Majolis un-nafois», «Mahbub ul-qulub»  
C) «Nasoyim ul-muhabbat», «Mahbub ul-qulub»  
D) «Lison ut-tayr», «Majolis un-nafois»

613. Gadoiyning fors-tojik tilidagi g'azali qaysi asarda keltirilgan?

- A) «Mahbub ul-qulub»  
B) «Radoyif ul-ash'or»  
C) «Nasoyim ul-muhabbat»  
D) «Majolis un-nafois»

614. «Mavlon Gadoiy turkiygo'ydur, balki mashohirdindir. Bobur mirzo zamonida she'ri shuhrat tutti, bir navoye aytur va uning mashhur matlalaridin biri budurkim: Ohkim, devona ko'nglum muftalo bo'ldi yana, Bu ko'ngulning ilgidin jonga balo bo'ldi yana». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

- A) «Nasoyim ul-muhabbat»  
B) «Majolis un-nafois»  
C) «Radoyif ul-ash'or»  
D) «Makorim ul-axloq»

615. Dilbaro, sensiz tiriklik bir baloyi  
jon emish  
Kim, aning dardi qoshida yuz o'lum  
hayron emish.

Misralar muallifi kim?

- A) Gadoiy  
B) Atoy  
C) Sakkokiy  
D) Lutfiy



616. Gadoiy qaysi hukmdor davrida yashab ijod etgan?

- A) Abulqosim Bobur
- B) Zahiriddin Muhammad Bobur
- C) Husayn Boyqaro
- D) Mahmud sulton

617. Gadoiyning yashab ijod etgan davri nechanchi asrga to'g'ri keladi?

- A) XIV asr B) XV asr
- C) XVI asr D) XIII asr

618. Gadoiy devonida qaysi janrlardagi asarlar uchraydi?

- A) g'azal, mustazod, qit'a
- B) faqat g'azal
- C) g'azal, mustazod
- D) g'azal, mustazod, muxammas

619. Gadoiy g'azallari ...

- 1. «Mubtalo bo'ldi yana». 2. «Unutma».
- 3. «Sanga». 4. «Yoz fasli». 5. «Yana yoz bo'ldi-yu».

- A) 1, 2, 5 B) 1, 4, 5
- C) 1, 2, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

620. «Gulbuni ummid» so'zining ma'nosi ...

- A) umid niholi
- B) oy surattli
- C) anbar, ipor
- D) kumush tanli sanam

621. «G'oratgar» so'zining ma'nosi ...

- A) dangasa, yalqov
- B) judolik
- C) talonchi, qaroqchi
- D) ayriliq

622. «Abir» so'zining ma'nosi ...

- A) ipak
- B) umid niholi
- C) oy surattli
- D) anbar, ipor, ko'chma ma'noda yoqimli hid

623. «Toroj» so'zining ma'nosi

- A) talonchi B) o'g'irlik
- C) oy surattli D) soflik vaqti

624. «Hosil aytur: «Ul eshikda xorsan»

Og'zi-og'zig'a urung, so'zlasun

Ushbu bayt Gadoiyning qaysi g'azalida uchraydi?

- A) «Yoz fasli» B) «Yana yoz bo'ldi-yu»
- C) «Sanga» D) «Unutma»

625. «Yoz fasli» g'azalida Gadoiy kimlarga murojaat etadi?

- A) yorga, ko'ngulga
- B) raqibga, ko'ngulga
- C) yorga, raqibga
- D) bag'irga, raqibga

626. Gadoiyning «Yana yoz bo'ldi-yu» g'azali hajmi ...

- A) 5 bayt B) 7 bayt
- C) 10 bayt D) 12 bayt

627. «Unutma» g'azali hajmi ...

- A) 7 bayt B) 5 bayt
- C) 9 bayt D) 11 bayt

628. Gadoiyning qaysi g'azalida «sen-sen, yo habib» radifli alohida baytli g'azal keltirilgan?

- A) «Yoz fasli»
- B) «Sanga»
- C) «Unutma»
- D) «Yana yoz bo'ldi-yu»

629. Lutfiyning asl ismi ...

- A) Laziz B) Lutfulla
- C) Latif D) Ibrohim

630. Navoiy qaysi asarlarida Lutfiy haqida ma'lumot beradi?

- A) «Tarixi anbiyo va hukamo», «Navoiy ul-muhabbat»

B) «Majolis un-nafois», «Nasoyim ul-muhabbat»

C) «Nasoyim ul-muhabbat», «Mahabub ul-qulub»

D) «Majolis un-nafois», «Mahabub ul-qulub»

631. «To'qson to'qquz yoshida olamdin qabri Dehikanordadur. O'z maskani ...» Bu fikr kim haqida?

- A) Lutfiy B) Jomiy
- C) Atoyi D) Gadoiy

632. «To'qson to'qquz yoshida olamdin qabri Dehikanordadur. O'z maskani ...» Lutfiy haqidagi ushbu fikr kimga tegishli?

- A) Atoyiga
- B) Gadoiyga
- C) Sakkokiyga
- D) A.Navoiyga

633. Navoiy kim haqida: «Bu faqir borsig'a ko'p iltifoti bor erdi va fotihalar qur erdi», — degan?

- A) Atoyi B) Gadoiy
- C) A.Yugnakiy D) Lutfiy

634. Kim Lutfiyning Navoiygacha bo'lgan davrning eng yirik shoiri degan?

- A) Xondamir «Makorim ul-axloq»da
- B) Shamsiddin Somiy «Qomus ul-'alam»da
- C) Rumi «Masnaviy»da
- D) P.Mahmud «Kanz ul-haqoyiq»da

635. Lutfiy Navoiyning qaysi baytiga butun ijodini (12 ming bayt) almashmoqchi bo'lgan?

- A) Mehr ko'p ko'rguzdum, ammo mehribone topmadim, Jon base qildim fido, oromi jone topmadim
- B) Orazin yopg'och, ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh

C) Ko'rgali husnungni zor-u mubtalo bo'ldum sanga,

Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga

D) Oshiq o'ldum, bilmadim, yor o'zgalarga yor emish,

Olloh-olluh, ishq aro mundoq balolar bor emish

636. «Qasam Tangrigaki, agar mumkin bo'lsa edi, men o'zimning fors va turk tillarida aytgan o'n ikki ming baytimni shu g'azalga almashar edim. Va shunday bo'lgan taqdirda men o'zimni katta maqsadga erishgan hisoblar edim». Bu fikr muallifi kim?

- A) Navoiy B) Lutfiy
- C) Jomiy D) Atoyi

637. «Qasam Tangrigaki, agar mumkin bo'lsa edi, men o'zimning fors va turk tillarida aytgan o'n ikki ming baytimni shu g'azalga almashar edim. Va shunday bo'lgan taqdirda men o'zimni katta maqsadga erishgan hisoblar edim». Lutfiyning bu fikri qaysi asardan olingan?

- A) Shamsiddin Somiy «Qomus ul-'alam»
- B) Xondamir «Makorim ul-axloq»
- C) Rumi «Devoni kabir»
- D) Kamoliddin Husayn Fanoyi «Majolis ul-ushshoq»

638. Lutfiy vafot etganida Navoiy necha yoshda edi?

- A) 22 yosh B) 24 yosh
- C) 23 yosh D) 25 yosh

639. Lutfiy qaysi asarni tarjima qilgan?

- A) Kaykovus «Qobusnoma»
- B) Bahridin Hiloliy «Shoh va gado»

C) Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafaroma»

C) Jomiy «Yusuf va Zulayxo»

**640. Lutfiyning bizgacha nechta devoni yetib kelgan?**

A) 2 ta B) 1 ta

C) 8 ta D) 3 ta

**641. Lutfiy qaysi janrlarda ijod qilgan?**

A) g'azal, tuyuq, ruboiy

B) g'azal, tuyuq, qit'a

C) tuyuq, fard, qit'a

D) g'azal, fard, tuyuq

**642. Lutfiy g'azallari ...**

1. «Tortadur». 2. «Jononima ayting». 3. «Ne hosil». 4. «Bu ko'ngul». 5. «Ayog'ingga tushar». 6. «Agar sen bo'lmasang». 7. «Nozuklik ichra».

A) 1, 4, 5, 7 B) 2, 4, 5, 6

C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

**643. «Yamon andishaliq» so'zining ma'nosi ...**

A) besaranjom, ovora

B) yomonfikrlilik, badniyatlik

C) yovuzlik

D) baxtli

**644. Qoshlari yosin quloqqa yetkura tortar ko'zi, Ikki yoni masti lo'yaqil ne oson tortadur. Bayt muallifi kim?**

A) Atoyi B) Gadoiy

C) Lutfiy D) Sakkokiy

**645. Lutfiy qaysi g'azalida yuragining qat-qat qon bog'lashini g'unchaga (g'uncha qavatlar, yuzi, bargiga) o'xshatadi?**

A) «Jononima ayting»

B) «Ayog'ingga tushar»

C) «Agar sen bo'lmasang»

D) «Nozuklik ichra»

**646. «Masti lo'yaqil» so'zining ma'nosi ...**

A) adolat

B) hushsiz mastlar

C) anbar sochuvchi

D) soch tolasi

**647. «Bu ko'ngul» g'azali qofiyalari**

A) shaydo, rasvo, yo, tamanno, taqozo, savdo, po, daryo

B) shaydo, savdo, yo, tamanno, taqozo, rasvo, po, daryo

C) shaydo, rasvo, po, tamanno, taqozo, savdo, yo, daryo

D) shaydo, rasvo, yo, tamanno, taqozo, daryo, po, savdo

**648. «Ayog'ingga tushar har lahza gisu» g'azali hajmi ...**

A) 7 bayt B) 5 bayt

C) 9 bayt D) 11 bayt

**649. «Bu ko'ngul» radifli g'azali hajmi ...**

A) 5 bayt B) 7 bayt

C) 10 bayt D) 11 bayt

**650. Ayog'ingga tushar har lahza gisu ... Misrani davom ettiring.**

A) Tilaganni tilogu

B) Oqqan ariqqa oqar suv

C) Charog' tubi qorong'u

D) Oqqan ariqqa oqar suv

**651. Tuturmen ko'zki, ko'rsam ota zingni ... Misrani davom ettiring.**

A) Oqqan ariqqa oqar suv

B) Charog' tubi qorong'u

C) Tilaganni tilogu

D) Qo'rqar qaydakim qon ko'rsa taqozo, savdo, po, daryo

**652. Yuzungni tuttum ortuq oy kundin ... Misrani davom ettiring.**

A) Kishining ko'zidur, ore, tarozu

B) Tilaganni tilogu

- C) Oqqan ariqqa oqar suv  
D) Qo'rqar qaydakim qon ko'rsa hindu

- C) «Jononimga ayting»  
D) «Ayoqingg'a tushar»

653. Ko'zung qonimdin iymanmas,  
«Aytur ... Misrani davom ettiring.

- A) Oqqan ariqqa oqar suv  
B) Kishining ko'zidur, ore, tarozu  
C) Qo'rqar qaydakim qon ko'rsa hindu  
D) Tilaganni tilogu

659. Lutfiyning qaysi g'azalida «falak yulduz kabi hamma xo'blarni yig'sa, yorning yuzi o'sha anjumanda quyosh bo'lishi»ni tasvirlaydi?

- A) «Jononimga ayting»  
B) «Nozuklik ichra»  
C) «Agar sen bo'lmasang»  
D) «Tortadur»

654. Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat ...  
«Misrani davom ettiring.

- A) Qo'rqar qaydakim qon ko'rsa hindu  
B) Kishining ko'zidur, ore, tarozu  
C) Oqqan ariqqa oqar suv  
D) Tilaganni tilogu

660. «Tilogu» so'zining ma'nosi ...

- A) ta'zim qilish  
B) tilak  
C) ehtiram qilish, bag'ishlash  
D) tuhfa qilish

655. «Yozg'irma» so'zining ma'nosi ...

- A) qabul qilish  
B) talab, orzu  
C) ehtiram qilish, bag'ishlash  
D) gunohkor qilma, ayblama

661. Nozukluk ichra belicha yo'q

*tori gisuyi,*

*O'z haddini bilib belidin o'tturing quyi.*

Baytda qanday san'at qo'llangan?

- A) iyhom B) husni ta'lil  
C) kitobat D) tanosub

656. «Tamanno» so'zining ma'nosi ...

- A) tilak  
B) talab, orzu  
C) ehtiram qilish, bag'ishlash  
D) besaranjom, ovora

662. Lutfiyning «Ne hosil» radifli g'azali hajmi ...

- A) 9 bayt B) 7 bayt  
C) 11 bayt D) 5 bayt

657. «Labiing qandini so'ray desam,  
aytur:

«Ayo ko'rdungmu solmish ko'zni  
qanda?»

663. «To'nga sig'masmen farahdin, gul kabi Kelsa ul sarvi ravon bir-bir manga».

Lutfiyning shu misralar bilan boshlanuvchi asari qaysi janrda yozilgan?

Baytda qanday san'at qo'llangan?

- A) ruju B) tanosub  
C) iyhom D) husni ta'lil

- A) g'azal B) fard  
C) qit'a D) masnaviy

658. «Labiing qandini so'ray desam,  
aytur:

«Ayo ko'rdungmu solmish ko'zni  
qanda?»

664. Lutfiy «sevishmoq ikki yondan xush» bo'lishini qaysi janrdagi asarida ta'kidlaydi?

- A) g'azal B) qit'a  
C) fard D) ruboiy

Bu bayt Lutfiyning qaysi g'azalidan  
qo'llangan?

- A) «Agar sen bo'lmasang»  
B) «Nozuklik ichra»

665. Ey ko'ngul, yorsiz sango ne bor, bor,  
Qaydakim ul zulfi anbar bor, bor.

*Chek jafo-yu javr-u nozi borini,  
Bir kun o'lg'aykim, degaydur: bor bor.*  
**Bu misralar qanday janrdagi asar?**

- A) ruboiy            B) muammo  
C) fard              D) tuyuq

**666.** *Ey ko'ngul, yorsiz sango ne bor, bor,  
Qaydakim ul zulfi anbar bor, bor.  
Chek jafo-yu javr-u nozi borini,  
Bir kun o'lg'aykim, degaydur: bor bor.*

**Bu tuyuqda «bor» so'zi qanday ma'nolarda qo'llangan?**

- A) mavjud, ket, borgin  
B) ket, mavjud, borgin  
C) borgin, mavjud, ket  
D) mavjud, borgin, ket

**667.** *Ko'z yoshim tuproq ila gar qotila,  
Kelmagayman javridin, haqqo, tila.  
G'amzasi o'tirdi-yu, ul bexabar,  
Men agar o'lsam, ne g'am ul qotila.*

**Misralardagi omonim so'zlar qanday ma'noda qo'llangan?**

- A) qorishgan, tila, qotilga  
B) qotilga, qorishgan, tila  
C) tila, qotilga, qorishgan  
D) qorishgan, qotilga, tila

**668.** *Charxi kajraftor elidin yozamen,  
Chiqmadim hijron qishidin yoza men.  
Bir meni yorliq bila yod etmas ul,  
Har necha ul shahg'a qulluq yozamen.*

**Tuyuqdagi omonim so'zlar qanday ma'noda qo'llangan?**

- A) 1. Yalinaman, bitaman, iltijo qilaman. 2. Yozga men (fasl). 3. Yozaman (shikoyat qilaman)  
B) 1. Yozga men (fasl). 2. Yalinaman, bitaman, iltijo qilaman. 3. Yozaman (shikoyat qilaman)  
C) 1. Yozaman (shikoyat qilaman). 2. Yozga men (fasl). 3. Yalinaman, bitaman, iltijo qilaman

- D) 1. Yozaman (shikoyat qilaman)  
2. Yalinaman, bitaman, iltijo qilaman  
3. Yozga men (fasl)

**669.** *Ko'ngluma har yonki boqim  
Har necha dardimni desam, dog'i bor*

*Qilcha tanga bori ishqing yor adl,  
Bir sori bo'ldi firoqing, dog'i bor.*

**Tuyuqdagi omonim so'zlar qanday ma'noda qo'llangan?**

- A) 1. Yana (tag'in) bor. 2. Otashi bor  
3. Dog'i bor  
B) 1. Dog'i bor. 2. Otashi bor. 3. Yana (tag'in) bor  
C) 1. Otashi bor. 2. Dog'i bor. 3. Yana (tag'in) bor  
D) 1. Dog'i bor. 2. Yana (tag'in) bor. 3. Otashi bor

**670.** *Qaysi ijodkor 941-yil Eronning  
Tus shahri yaqinidagi Boj qishlog'ida  
o'rtahol dehqon oilasida tug'ilgan?*

- A) Lutfiy            B) Fuzuliy  
C) Rudakiy        D) Firdavsiy

**671.** *Firdavsiy qaysi kasb bilan shug'ullangan?*

- A) dehqonchilik B) bog'bonlik  
C) mirob            D) kosib

**672.** *Shoir o'ziga nima sababdan «Firdavsiy» taxallusini tanlagan?*

- A) o'zi tug'ilgan qishloq nomi bo'lgani uchun  
B) o'zi ishlagan bog' nomi bo'lgani uchun  
C) atasining ismi bo'lgani uchun  
D) shu ismni yoqtirgani uchun

**673.** *Firdavsiy qachon vafot etgan?*

- A) 1025-yili        B) 1023-yili  
C) 1020-yili        D) 1026-yili

674. Hajmi, mavzusi, obrazlari, g'oyalari va badiiy qimmatini jihatidan dunyodagi eng yirik asar ...

- A) «Firoqнома»
- B) «Qutadg'u bilig»
- C) «Shohnoma»
- D) «Qobusnoma»

675. «Shohnoma» tarkibida nechta doston bor?

- A) 100 ga yaqin
- B) 100 dan ortiq
- C) 150 ta
- D) 200 ta

676. «Shohnoma» dostonlari syujeti jihatidan qanday sahna asarlari yaratilgan?

- A) «Yusuf va Zulayxo», «Siyovush»
- B) «Zahhoki moron», «Siyovush»
- C) «Zahhoki moron»
- D) «Siyovush»

677. «Shohnoma»ni o'zbek tiliga tarjima qilgan ijodkorlar ...

- A) Hamid G'ulom, To'xtasin Jalilov, Nazarmat, Shoisiom Shoahmedov
- B) Hamid G'ulom, Nazarmat, Jumaniyoz Jabborov, Shoisiom Shomuhamedov
- C) Nazarmat, Hamid G'ulom, Mamasul Boboyev
- D) Aziz Qayumov, Jumaniyoz Jabborov, Nazarmat

678. «Shohnoma»ni Hamid G'ulom, Nazarmat, Jumaniyoz Jabborov, Shoisiom Shomuhamedov qaysi yo'l bilan tarjima qildi?

- A) nasriy
- B) she'riy
- C) nasriy va she'riy
- D) to'g'ri javob yo'q

679. *Mehnat tagidadir, ey oqil, har ganj,  
Ganj topmas hech kimsa tortmas*  
esa ranj.

Bu hikmatli so'z muallifi kim?

- A) Atoyi
- B) Lutfiy
- C) Firdavsiy
- D) Bedil

680. *Qudratlidir kimki bo'lsa bilimdon,  
Bilimdon kishilar dli navqiron.*

Bu hikmatli so'z muallifi kim?

- A) Rudakiy
- B) Pahlavon Mahmud
- C) Sakkokiy
- D) Firdavsiy

681. *Ikki do'st turarkan yelkama-yelka,  
Tog'larni ham oson aylaydi tilka.*

Misralar muallifi ...

- A) Fuzuliy
- B) Rudakiy
- C) Pahlavon Mahmud
- D) Firdavsiy

682. *Shirin so'zli bo'l, ey sen bilimdon,  
Tiling sovuq so'z-la bulg'ama oson.*

Misralar muallifi ...

- A) Firdavsiy
- B) Fuzuliy
- C) Rudakiy
- D) Lutfiy

683. Rustam va Suhrobning jang tasviri qaysi asarda uchraydi?

- A) «Suhayl va Guldursun»
- B) «Rustamxon»
- C) «Shohnoma»
- D) «Guliston bit-turkiy»

684. Rustam va Suhrobning jang tasvirida kim «Hech nahang ko'rmadim buningdek eta olsin jang» degan fikrni ko'nglidan o'tkazadi?

- A) xalq
- B) Suhrob
- C) chol
- D) Rustam

685. Rustam va Suhrobning jang qilish voqealarida nima aks ettirilgan?



Misralar muallifi kim?

- A) Firdavsiy
- B) Rudakiy
- C) Pahlavon Mahmud
- D) Gadoiy

711. «Qomus ul-a'lam» asari muallifi ...

- A) Qozizoda Rumiy
- B) Lutf Alibek Ozar
- C) Kamoliddin Husayn Fanoyi
- D) Shamsiddin Somiy

712. «Otashkadayi Ozar» muallifi ...

- A) Kamoliddin Husayn Fanoyi
- B) Shamsiddin Somiy
- C) Lutf Alibek Ozar
- D) Qozizoda Rumiy

713. «Majolis ul-ushshoqi» muallifi ...

- A) Shamsiddin Somiy
- B) Kamoliddin Husayn Fanoyi
- C) Qozizoda Rumiy
- D) Lutf Alibek Ozar

## AKADEMIK LITSEY VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI

II kurs

Adabiyot

(B.To'xliyev, R.Mirsamiqova, O.Ametova)

1. «Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Buni til bila to she'r aytubdurlar, hech kim uncha ko'p va xo'b aytqon emas». Navoiy haqidagi ushbu ta'rif kim tomondan berilgan?

- A) H.Boyqaro
- B) Z.M.Bobur
- C) Jomiy
- D) Lutfiy

2. Z.M.Bobur Navoiy ta'rifida shoirning qanday masnaviy kitob bitganligini aytadi. U kitob masnaviy deganda Bobur Navoiyning qanday asarlarini nazarda tutgan?

- A) «Xamsa»ning 5 dostoni va «Mahabbat ul-qulub»
- B) «Xamsa»ning 5 dostoni va «Majolis ul-nafois»
- C) «Xamsa»ning 5 dostoni va «Lison ul-tayr»
- D) «Xamsa»ning 5 dostoni va «Navoiy ul-muhabbat»

3. Z.M.Bobur Navoiyning 4 g'azaliy qanday tartib berganini ta'kidlaydi. Ular qanday?

- A) «G'aroyib us-sig'ar», «Navodir ul-mahabbat», «Navodir ul-mahabbat», «Badoye ul-vasat»
- B) «G'aroyib us-sig'ar», «Navodir ul-mahabbat», «Badoye ul-vasat», «Navoiy ul-kibar»
- C) «G'aroyib us-sig'ar», «Navodir ul-mahabbat», «Badoye ul-bidoya», «Badoye ul-vasat»
- D) «G'aroyib us-sig'ar», «Navodir ul-mahabbat», «Badoye ul-vasat», «Xarid ul-maoniy»

4. Navoiyning aruzga bag'ishlangan asari ...

- A) «Majolis un-nafois»
- B) «Sab'atu abhur»
- C) «Mezon ul-avzon»
- D) «Muhokamat ul-lug'atayn»

5. «Yana musiqiyda yaxshi namalar bog'lantur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur». Parchada kimning ta'rifini keltirilgan, ta'rif muallifi kim?

- A) A.Navoiy ta'rif keltirilgan, ta'rif muallifi Husayn Boyqaro
- B) A.Navoiy ta'rif keltirilgan, ta'rif muallifi Bobur
- C) Husayn Boyqaro ta'rif keltirilgan, ta'rif muallifi A.Navoiy
- D) Husayn Boyqaro ta'rif keltirilgan, ta'rif muallifi Bobur

6. A.Navoiy «Xamsa»sining o'ziga xos an'anaviyligi nimada ko'rinadi?

- A) an'anaviy hamd va na't bilan boshlanadi
- B) maqolalar
- C) turkiy tilda yozilganligi
- D) badiiy umumlashmalarning ko'pligi

7. A.Navoiy g'azallarini toping.

1. «Ashraquat min...».
2. «Har gado-kim».
3. «Ko'rgali husningni...».
4. «O'n sakiz ming olam oshubi...».
5. «Sho'x ikki g'izolingni...».
6. «Ko'nglung istar yordar...».
7. «Yordin ayru ko'ngul...».
8. «Qaro ko'zum...».
9. «Ko'nglum o'rtansun agar...».
10. «Tiflar toshiki...».

11. «Gulruxi ra'hoqadim...». 12. «Ey sabo...». 13. «Meni ishqdin man etar soda shayx...». 14. «Do'stlar, ahli zamondin...». 15. «Ko'z qonidin dema...». 16. «Ko'ngil ichra dard-u g'am». 17. «Oshiq o'ldim...». 18. «Ko'kragimdur subhning...». 19. «Ne navo soz aylagay...». 20. «Havo xush erdi-yu...». 21. «Har qachonki kemaga...». 22. «Men jahondin kechtim-u...». 23. «Mehr ko'p ko'rguzdum, ammo...». 24. «Qoshi yosinmu deyin...». 25. «Ochmag'ay erding jamoli...». 26. «Yordin hijron chekar...». 27. «Lolagun to'n ichra...». 28. «Do'stlar, mahram deb elga...». 29. «Meni men istagan...». 30. «Menga nomehribon yor...». 31. «Rahm etib, ey do'stlar...». 32. «Mening firog'im-u...». 33. «Kimga qildim bir vafokim...». 34. «Kimki bir ko'ngli buzug'ning...». 35. «Sarig' og'rig' bo'ldum...». 36. «Oqara boshladi bosh-u...». 37. «Xil'atin to aylamish jonon qizil, sorig', yashil...».

- A) 2, 4, 5, 10, 24, 28  
 B) 1, 3, 4, 11, 25, 36  
 C) 1, 6, 8, 13, 17, 37  
 D) barchasi

8. *Ey, xush ul maykim, anga zarf o'lsa  
 bir sing'an sofol,  
 Jom o'lur getinamo, Jamshid ani  
 ichkan gado.*

**Baytda qanday san'atlar qo'llangan?**

- A) tazod, talmeh  
 B) tanosub, talmeh  
 C) tanosub, tashbeh  
 D) tashbeh, talmeh

9. **Mayxonachining yugurdak xodimi, may tashuvchi bola mumtoz adabiyotda qaysi atama bilan yuritiladi?**

- A) mug'bacha B) mullabacha  
 C) g'amzudo D) chog'irbacha

10. **«G'amzudo» so'zining ma'nosi ...**

- A) g'amgin, qayg'uli  
 B) g'am  
 C) qayg'uni ketkazuvchi  
 D) butxona

11. **«Vahdat» so'zining ma'nosi**

- A) jannat  
 B) do'zax  
 C) qayg'  
 D) yakkalik, yagonalik

12. **Tasavvufiy adabiyotda butxona mayxona, dunyo ma'nosida ishlatiluvchi atama ...**

- A) dayr  
 B) bahr  
 C) bayt ul-xazan  
 D) getinamo

13. **«Getinamo» so'zining ma'nosi**

- A) donishmand  
 B) ma'qullangan  
 C) olamni ko'rsatuvchi  
 D) ajoyib, g'aroyib

14. **«Jom» so'zining ma'nosi ...**

- A) may  
 B) qadah, may piyolasi  
 C) idish  
 D) oltin

15. **«Mahv» so'zining ma'nosi ...**

- A) zarhal qilingan  
 B) yo'qolish, bitish  
 C) e'tirof etilgan  
 D) hid taratish

16. **A.Navoiy «Ashraquat min...» dastlab boshlanuvchi g'azalning nechanchi baytida mug'bachaga murojaat qiladi?**

- A) 1-bayti B) 3-bayti  
 C) 5-bayti D) 6-bayti

17. *Har gadokim, bo'ryoyi faqr erin  
 kisvat unga  
 Saltanat zarbaftidin hojat emas  
 xil'at unga*



17. Baytda qanday san'atlar qo'llangan?

- A) tanosub, tashbeh
- B) tazod, tanosub
- C) tazod, tashbeh
- D) tazod, takrir

18. Shah yurub olam qochar, darvesh  
olamdin qochar

Him o'zung insof bergilkim, bu ne  
nisbat anga.

19. Baytda qanday san'atlar qo'llangan?

- A) tazod, tanosub
- B) tazod, talmeh
- C) tanosub, iyhom
- D) tazod, iyhom

20. A.Navoiyning «Har gadokim...»

deh boshlanuvchi g'azalida radif sifa-  
larida ishlatilgan so'z ...

- A) «Sanga»
- B) «Anga»
- C) «Ko'rmadim»
- D) «Aylagay»

21. «Har gadokim...» deb boshlanuv-

chi g'azalda boshdan oyoq qaysi san'-  
at qo'llanilgan?

- A) tanosub      B) tazod
- C) ishtiyoq      D) tadrij

22. «Har gadokim...» deb boshlanuv-

chi g'azalda tazodga asos bo'lgan  
so'zlar ...

- A) yor va ag'yor
- B) shoh va darvesh (faqir)
- C) yer va osmon
- D) zolim va mazlum

23. Shahlar darveshi-yu darveshlar  
shahiki bor,

Shahlig' suvrat anga, darveshlik  
siyrat anga.

Baytda Navoiy kimni ta'riflagan?

- A) Jomiy
- B) Shoh G'oziy (Husayn Boyqaro)

C) Lutfiy

D) Pahlavon Muhammad

23. Shahlar darveshi-yu darveshlar  
shahiki bor,  
Shahlig' suvrat anga, darveshlik  
siyrat anga.

Bu bayt Navoiyning qaysi g'azalidan  
olingan?

- A) «Ko'rgali husnungni...»
- B) «O'n sakiz ming olam oshubi...»
- C) «Do'stlar, ahli zamondin...»
- D) «Har gadokim...»

24. «Siyrat» so'zining ma'nosi ...

- A) kiyim, ust-bosh
- B) yuz, bet, ko'rinish
- C) xulq-atvor, odat, ichki olam
- D) halokat, shikast, zarar

25. «Musallam» so'zining ma'nosi ...

- A) qarshilik qilmay ma'qullangan, e'ti-  
rof etilgan
- B) zarhal qilingan
- C) rad etgan, haydagan
- D) qasd qilingan, niyat qilingan narsa

26. Mumtoz adabiyotda yoqimli hid  
taratish, yanada go'zallashish ma'no-  
larida ishlatiladigan atama ...

- A) oshufta      B) xoro
- C) xayafshon      D) xuffosh

27. A.Navoiy qaysi g'azalida Jomi  
Jam va Hizr suvi doimiy nasibasi ekan-  
ligini aytadi?

- A) «Qilg'il»
- B) «Ko'rgali husnungni...»
- C) «Kelmadi»
- D) «Har gadokim...»

28. «Tal'at» so'zining ma'nosi ...

- A) kiyim, ust-bosh
- B) yuz, bet, ko'rinish, qiyofa, husn
- C) xulq-atvor, odat, ichki olam
- D) halokat, shikast, zarar

29. Sho'x ikki g'izolingni noz uyqusidin uyg'at,  
To uyqulari ketsun, gulzor ichida o'ynat.  
Tagiga chizilgan so'zning ma'nosi ...  
A) ko'rshapalak B) yoy  
C) ko'z D) ohu
30. «Ofoq» so'zining ma'nosi ...  
A) dunyo  
B) ustoz  
C) sherik, o'rtoq, ulfat  
D) ohu
31. «Harif» so'zining ma'nosi ...  
A) firoq  
B) dunyo  
C) kiyim-bosh  
D) sherik, o'rtoq, ulfat
32. «Xuffosh» so'zining ma'nosi ...  
A) sassiqpopishak  
B) ko'rshapalak  
C) kapalak  
D) kalxat
33. A.Navoiy tadjir asosiga qurilgan «Yordin ayru ko'ngul...» g'azalida yordin ayri ko'ngilni nimalarga o'xshatadi?  
1. Sultoni yo'q mulk. 2. Joni yo'q jism.  
3. Gul-u rayhon unmaydigan qaro tuproq.  
4. Oysiz qorong'u kecha. 5. Obi hayot bulog'i yo'q zulmat. 6. Do'zax. 7. Imkoni yo'q mastlik.  
A) 1, 2, 3, 4, 7  
B) 1, 2, 4, 5, 6  
C) 1, 2, 3, 4, 5  
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
34. «Yag'mo» so'zining ma'nosi ...  
A) odat B) to'siq  
C) talon-toroj D) omon
35. «Mo'tod» so'zining ma'nosi ...  
A) odat B) omon  
C) mukofot D) talon-toroj

36. A.Navoiyning «Qaro ko'zum» deb boshlanuvchi g'azali nechanchi baytida tajnis san'ati qo'llangan?

- A) 2-bayti  
B) 8-bayti (maqtda)  
C) 4-bayti  
D) 1-bayti (matlada)

37. «Qaro ko'zum...» deb boshlanuvchi g'azaldagi begona baytni toping.

- A) Yuzida terni ko'rub o'lsani, ey rafiq, meni Gulob ila yuv-u gul barqjidin tikan qilg'il  
B) Navoiy, anjumani shavq jon tuzsang, Aning boshog'liq o'qin shami anjuman qilg'il  
C) Xazon sipohiga, ey bog'bon emas mone, Bu bog' tomida gar iqindin tikan qilg'il  
D) Yuzung visolig'a yetsun, desanq ko'ngullarni, Sochingni boshtin ayog' chin ila shikan qilg'il

38. A.Navoiyning «Tiflar toshiki» deb boshlanuvchi g'azalida radif sifatida kelgan so'z ...

- A) «qara» B) «qora»  
C) «qaragin» D) «bo'l»

39. «Tiflar» so'zining ma'nosi ...

- A) quyoshli, oftobli  
B) taxta, yozuv  
C) yosh bolalar  
D) qarilar

40. Umr yo'q juz tiyralik isyondakim,  
hayvon suyi

Istamakdin ro'zg'orin topti

Iskandar qoru

Bu bayt Navoiyning qaysi g'azalidan olingan?

- A) «Gulruxi ra'noqadim...»  
B) «Tiflar toshiki...»  
C) «Do'stlar, mahram deb elga...»  
D) «Sarig' og'riq bo'ldum...»

41. «Mubaddal» soʻzining maʼnosi ...

- A) teskari, egilgan
- B) yoyilgan, taralgan
- C) almashingan, oʻzgartirilgan
- D) yomon

42. «Fatton» soʻzining maʼnosi ...

- A) mast
- B) aldov, firib
- C) sodda, goʻl
- D) fitna qiluvchi, maftunkor

43. «Zavraq» soʻzining maʼnosi ...

- A) kema, qayiq
- B) sodda, goʻl
- C) ahmoq, aqlsiz
- D) yomon

44. «Soda» soʻzining maʼnosi ...

- A) kambagʻal B) soxta
- C) sodda, goʻl D) ahmoq, aqlsiz

45. «Loda» soʻzining maʼnosi ...

- A) ahmoq, aqlsiz
- B) sodda, goʻl
- C) kambagʻal
- D) yovuz, yomon

46. *Meni ishqdin man etar soda shayx,*

*Dema soda shayx, aytkim loda shayx.*

Baytda qanday sanʼat qoʻllangan?

- A) tazod B) ruju
- C) tanosub D) ishtiqoq

47. «Irodat» soʻzining maʼnosi ...

- A) adashish, yoʻldan ozish
- B) irgʻatmoq
- C) kuch
- D) xohish, istak, qasd, muridlik, berilish

48. «Bahim» soʻzining maʼnosi ...

- A) toʻrt oyoqli hayvon
- B) ikki oyoqli hayvon
- C) qoʻrquv
- D) kema, qayiq

49. A.Navoiyning qaysi gʻazalida lola obrazi har bir baytda ishlatilib turli badiiy sanʼatlarni yuzaga keltirgan?

- A) «Havo xush erdi-yu...»
- B) «Koʻz qonidin dema...»
- C) «Lolagun toʻn ichra...»
- D) «Ey sabo...»

C) g'uncha ochilguncha o'tgan fursatni  
D) bir nafas olgulik muddatni

334. G'.G'ulom qaysi she'rini «Menga soat taqdim etgan jiyanim mayor Hamidulla Husan o'g'liga bag'ishlangan» deydi?

- A) «Sog'inish»
- B) «Vaqt»
- C) «Alisher»
- D) «Sen yetim emassan»

335. Qaysi shoir lahzaga abadiy haykal qo'ygan?

- A) G'.G'ulom
- B) Cho'lpon
- C) Fitrat
- D) M.Yusuf

336. «Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek Diana ma'badin yoqmoq shart emas, Ko'plaming baxtiga o'zlikni jamlab, Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysa bas».

Bu misralar G'.G'ulomning qaysi she'rida uchraydi?

- A) «Vaqt»
- B) «Sog'inish»
- C) «Alisher»
- D) «Sen yetim emassan»

337. G'.G'ulomning she'rlarini toping.

- A) «Men shoirmi?», «Yong'in», «Vaqt»
- B) «Vaqt», «Sog'inish», «Somon parcha», «Alisher»
- C) «Vaqt», «Alisher», «Sen yetim emassan», «Sog'inish»
- D) «Shum bola», «Vaqt», «Sog'inish»

338. Cho'lponning she'rlarini toping.

1. «Men shoirmi?». 2. «Yong'in». 3. «Vijdon erki». 4. «Qo'zg'alish». 5. «Somon parcha». 6. «Xazon». 7. «Bir tutam sochlaring». 8. «Bahomi sog'indim...». 9. «Kuz yomg'iri».

- A) 1, 2, 4, 5, 8
- B) 1, 3, 6, 7, 9
- C) 1, 5, 6, 7, 8, 9
- D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9

339. G'.G'ulomning «Sen yetim emassan» she'ri kimga bag'ishlangan?

- A) Hamidulla Husan o'g'liga
- B) Navoiyga
- C) «Ikkinchi jahon urushining onasiz qolgan go'daklariga»
- D) otasiga

340. «Sen yetim emassan» she'rida go'daklarga murojaat sifatida ishlatilgan undalmalar qaysilar?

- A) o'g'lonim, qo'zim
- B) jigarim, qo'zim
- C) farzandim, qo'zim
- D) jigarim, o'g'lonim

341. «Sen yetim emassan» she'rida aks etgan lirik chekinish berilgan misralarni toping.

- A) Nega cho'chib tushding? Murg'ak tasavvur Go'dak xayolingga Nimalar keldi?

- B) Sen yetim emassan, Uxla, jigarim

- C) Yetimlik nimadir – Bizlardan so'ra, O'ninchi yillarning sargardonligi Isitma aralash Qo'rqinch tush kabi Xayol ko'zguvidan o'chmaydi...

- D) Aziz asrimizning aziz onlari Aziz odamlardan so'raydi qadrini Fursat g'animatdir, shoh satrlarini Bezamoq chog'idir umr daftari

342. «Balki, Odess dahshati, Kerch fojiasi...

Yovvoyi maxluqlar, Qonxo'r vahshiyilar».

Misralar G'.G'ulomning qaysi she'ridan olingan?

- A) «Vaqt»
- B) «Sen yetim emassan»
- C) «Alisher»
- D) «Sog'inish»

343. «Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam, Qo'msayman birovni – allakimimni. Doimo umidim bardam bo'lsa ham, Ba'zan vasvasalar bosar dilimni».

Bu misralar G'.G'ulomning qaysi she'ridan olingan?

- A) «Vaqt»
- B) «Sen yetim emassan»
- C) «Sog'inish»
- D) «Alisher»

344. «Ne qilsa, otamen, meros hissiyot». Misra G'.G'ulomning qaysi she'rida uchraydi?

- A) «Vaqt»
- B) «Sen yetim emassan»
- C) «Sog'inish»
- D) «Alisher»

345. G'.G'ulomning qaysi she'rida urushdan o'g'lining qaytishini kutayotgan ota obrazi keltirilgan?

- A) «Sog'inish»
- B) «Sen yetim emassan»
- C) «Alisher»
- D) «Vaqt»

346. «Sog'inish» she'ri qaysi misralar bilan boshlanadi?

- A) G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni

Kapaik umriga qiyos etgulik, Ba'zida bir nafas olgulik muddat Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik

- B) «Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh»
- C) Bog'da tovus kabi xiromon bo'lib, Umid danagini birga ekingiz
- D) Sen yetim emassan, Uxla, jigarim

347. G'.G'ulomning qaysi she'rida lirik qahramonning tong chog'i Bedil mutolaa qilishi tasviri berilgan?

- A) «Alisher»
- B) «Sen yetim emassan»
- C) «Sog'inish»
- D) «Vaqt»

348. Nafisa obrazi G'.G'ulomning qaysi she'rida keltirilgan?

- A) «Vaqt»
- B) «Sog'inish»
- C) «Sen yetim emassan»
- D) «Alisher»

349. «Sizlarni keldi deb eshitgan kuni O'zing to'qib ketgan katta savatda To'latib shaftoli uzib chiqaman. G'alaba kunlari yaqin, albatta».

Bu misralar G'.G'ulomning qaysi she'ridan olingan?

- A) «Vaqt»
- B) «Sog'inish»
- C) «Alisher»
- D) «Sen yetim emassan»

350. «Oybek – prozada shoir-u poeziyada prozaik». Oybek haqidagi ushbu ta'rif muallifi kim?

- A) G'.G'ulom
- B) Hamid Olimjon
- C) Mirtemir
- D) M.Shayxzoda

351. Oybekning nasriy asarlari ...

- A) «Ulug' yo'l», «O'ch», «Nur qidirib»
- B) «Qutlug' qon», «Ulug' yo'l», «Bolalik», «Nur qidirib»
- C) «Qutlug' qon», «Ulug' yo'l», «Dilbar davr qizi», «O'ch»
- D) «Ulug' yo'l», «Bolalik», «Baxtigul va Sog'indiq»

352. «Taqya» so'zining ma'nosi ...

- A) majsid
- B) sandal
- C) mato to'qish uchun uzunasiga tortilgan ip
- D) do'ppi, bosh kiyimi

353. «Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin pishiq, barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqoli, xushbichim miyiq-lari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq, kenggi-na yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi, ma'naviy qudrat va yengil, go'zallashtiruvchi bir horg'inlik jilvalanadi». «Navoiy» romanidan olingan ushbu parchada kimning ta'rifi keltirilgan?

- A) Husayn Boyqaro
- B) Muzaffar Barlos
- C) Navoiy
- D) Darveshali

354. «Navoiy» romanida «Zamonamizning Abu Ali Sinosi» deb ta'riflangan qahramon kim?

- A) Sultonmurod
- B) Mavlono Fasihiddin
- C) Xo'ja Fazlillo Abullays
- D) Darveshali

355. Sultonmurodni «Zamonamizning Abu Ali Sinosi» deb kim ta'riflagan («Navoiy»)?

- A) Mavlono Fasihiddin
- B) Xo'ja Afzal
- C) Navoiy
- D) Majididdin Muhammad

356. Masjid, madrasa va shu kabilar ta'minoti uchun belgilab qo'yilgan daromadli do'kon, saroy, tegirmon, yersuv qanday atalgan («Navoiy»)?

- A) ashkoliar
- B) juzdon
- C) vaqf
- D) vuquf

357. «Navoiy» romanida keltirilishi-cha, Navoiy 4 yoshligida kimning ijodidan otasiga bayt o'qib berganini xotirlaydi?

- A) Sharafiddin Ali Yazdiy
- B) Xo'ja Fazlullo Abullays
- C) Farididdin Attor
- D) Mirzo Qosim Anvari

358. Navoiy Sharafiddin Ali Yazdiy bilan necha yoshida uchrashgan («Navoiy»)?

- A) 4 yoshida
- B) 5 yoshida
- C) 6 yoshida
- D) 7 yoshida

359. «Baq'alar» so'zining ma'noulari

- A) qadimgi yunon olimlari
- B) kotiblar
- C) kambag'al talabalar, musolilar
- D) yashaydigan hujralar
- E) tizma

360. Navoiyning samarqandlik us-tuzi kim?

- A) Xo'ja Afzal
- B) Xo'ja Fazlullo Abullays
- C) Majididdin Muhammad
- D) Mavlono Fasihiddin

361. Navoiyning ukasi kim?

- A) Sultonmurod
- B) Darveshali
- C) Xo'ja Fazlullo Abullays
- D) Mavlono Fasihiddin

362. Oybekning «Nur qidirib» asarining janri...

- A) roman
- B) qissa
- C) hikoya
- D) drama

363. «Tafriqa» so'zining ma'nosi ...

- A) ayirish, bo'lish
- B) ilm olish
- C) o'sish, rivojlanish
- D) do'ppi, bosh kiyim

364. «Navoiy» romanida «dorug'ayl kutubxonayi humoyun» kim edi?

- A) Sultonmurod
- B) Husayn Boyqaro
- C) Darveshali
- D) Nizomulmulk

365. «Yaxshilik bilan nom qozonmoqning o'zi ulug' mukofotdir». Bu so'zlar kimga tegishli?

- A) Husayn Boyqaroga
- B) Navoiyga
- C) Darveshaliga
- D) Xo'ja Afzalga

366. «Ilmi hay'at» so'zining ma'nosi ...

- A) astronomiya
- B) ma'lumot, bilim sohibi
- C) papka
- D) qadimgi yunon olimlari

367. «Vuquf» so'zining ma'nosi ...

- A) astronomiya
- B) masjid, madrasa ta'minoti uchun belgilab qo'yilgan do'kon
- C) ma'lumot, bilim sohibi
- D) papka

368. «Ashkol» so'zining ma'nosi ...

- A) ma'lumot, bilim sohibi
- B) papka
- C) shakllar
- D) o'sish, rivojlanish

369. Navoiy Darveshaliga bergan qog'ozda qanday binoning tarhi aks etgan edi («Navoiy»)?

- A) saroy
- B) tegirmon
- C) madrasa
- D) kutubxona

370. «Yillar tutubon shayx maqomotiga go'sh,

Ne ko'ngluma zavq yetti, ne jonima xush.  
Jonimg'a navo yetti-yu, ko'nglumg'a xurush,

Bir jur'a bila mug'bachayi bodafurush». Ruboiy muallifi kim?

- A) Husayn Boyqaroga
- B) Mirzo Qosim Anvari
- C) Farididdin Attor
- D) Navoiy

371. «Juzdon» so'zining ma'nosi nima?

- A) shakllar
- B) papka
- C) do'ppi
- D) ayirish, bo'lish

372. Qaysi obratzi daftardorlik, hisob-kitob ishlariga mohir, davlat ishlarida tadbirli, vijdonli bir mansabdor sifatida ta'riflanadi («Navoiy»)?

- A) Xo'ja Afzal
- B) Majiddiddin Muhammad
- C) Nizomulmulk
- D) Mirzoiy Kichik

373. «Har yerda jabrning tig'ini sindirmoq zarur». Bu fikr kimniki («Navoiy»)?

- A) Darveshali
- B) H.Boyqaroga
- C) Navoiy
- D) Xo'ja Afzal

374. «Belidan yuqorisi kengayib borgan, qabariq ko'krakli, keng yag'rinli, miqti gavdaii edi. Yirik, qiyiq, o'tkir qarovchi ko'zlari iroda va ingichka hiyla bilan birga qandaydir beqarorlik, yengil va sho'x tabiatni ham ifodalar edi». Bu ta'rif «Navoiy» romanidagi qaysi qahramonga tegishli?

- A) Muzaffar Barlos
- B) H.Boyqaroga
- C) Badiuzzamon
- D) Navoiy

375. Abusaid mirzoning o'g'li kim («Navoiy»)?

- A) Sultonmurod
- B) Sultonmahmud
- C) Badiuzzamon
- D) Muzaffar mirzo

376. H.Boyqaroga va Navoiyning Sultonmahmud haqidagi suhbatini romaning nechanchi bobida keltirilgan («Navoiy»)?

- A) 11-bobi
- B) 2-bobi
- C) 4-bobi
- D) 10-bobi

377. Parvonachi qanday kasb egasi?

- A) arizalarni qabul qilgan va ularga javob qaytargan

B) xonlik zamonida yirik mansablardan. Podshoh qoshida bo'lib, farmonlarni yozib yuradigan, ishlar haqida shohga hisob berib turadigan kasb egasi

C) sud ishlariga yetakchilik qilgan

D) xon va shahzodalar o'rtasidagi ichki munosabatlar masalasi bilan shug'ullangan

**378. H.Boyqaro parvonachi lavozimiga kimni tavsiya etadi («Navoiy»)?**

A) Mirzoiy Kichikni

B) Mavlono Fasihiddinni

C) Majiddiddin Muhammadni

D) Nizomulmulkni

**379. H.Boyqaro tabassum bilan Navoiyga tutqazgan ipakday mayin qimmatbaho qog'ozda nima yozilgan edi («Navoiy»)?**

A) xat

B) H.Boyqaro yozgan g'azal

C) sovg'a

D) yangi bino tarhi

**380. «Fuzaxo» so'zining ma'nosi nima?**

A) tizma

B) mukammal biluvchi ustod

C) maxsus musiqiy asbob

D) so'zga chechan odam, go'zal so'zlovchi

**381. O'tka yoqqil sarvni, ul qaddi ra'no  
bo'lmasa,  
Elga bergil gulni, ul ruxsori zebo  
bo'lmasa.**

**G'azal muallifi kim?**

A) H.Boyqaro

B) Navoiy

C) Mirzo Qosim Anvari

D) Fariddin Attor

**382. Ovga, qushga o'ch, mabodo qushlaridan biri o'lib qolsa, rosa mo-**

**tam tutib, bu o'lgandan ko'ra falon o'g'lim o'lsa bo'lmasmi deyidigan qaltnomon kim («Navoiy»)?**

A) Muzaffar barlos

B) Zulnun

C) Muhammad Burunduq barlos

D) Islim barlos

**383. «Ajoyib qilichboz, bahodir, yovqun bek, har vaqt ikki qo'li bilan shatranj o'ynardi». Bu ta'rif kim haqida («Navoiy»)?**

A) Muzaffar barlos

B) Zulnun

C) Muhammad Burunduq barlos

D) Islim barlos

**384. «Sodda, dilovar, ov va qush ilmi ning piri. O'zining maxsus yoyini kuch bilan otib o'qni taxtadan o'tkazar edi» Bu ta'rif kim haqida («Navoiy»)?**

A) Saydbadiddin

B) Badrididdin

C) Xo'ja Abdulla Marvoriy

D) Islim barlos

**385. «Navoiy» romanida Mo'g'ulbok qanday ta'riflanadi?**

A) «Sodda, dilovar, ov va qush ilmi ning piri. O'zining maxsus yoyini kuch bilan otib o'qni taxtadan o'tkazar edi»

B) Hamisha qimor o'ynashi aytiladi

C) «Yetti otning ustidan qatorasiga sakragan»

D) «Ajoyib qilichboz, bahodir, yovqun bek, har vaqt ikki qo'li bilan shatranj o'ynardi»

**386. «Yetti otning ustidan qatorasiga sakragan» qahramon ... («Navoiy»)**

A) Saydbadiddin

B) Badrididdin

C) Xo'ja Abdulla Marvoriy

D) Islim barlos

387. «Butun harakati nozik, nafis, ajoyib raqs etardi, o'zi ixtiro qilgan raqslari bor edi». Bu ta'rif kim haqida («Navoiy»)?

- A) Saydbadriddin
- B) Badriddin
- C) Xo'ja Abdulla Marvoriy
- D) Islim barlos

388. «Har ilmdan bilar edi. Ajoyib qonun chalardi, she'r aytardi. Xatni chiroyli bitardi. She'rni favqulodda zavq va ingichkalik bilan tanlardi. Lekin ashaddiy fisq va fujurchi edi». Bu kimning ta'rifi («Navoiy»)?

- A) Saydbadriddin
- B) Badriddin
- C) Xo'ja Abdulla Marvoriy
- D) Islim barlos

389. Navoiy kimni qozilik mansabiga tavsiya etadi («Navoiy»)?

- A) Xo'ja Afzalni
- B) Nizomulmulkni
- C) Darveshalini
- D) Mavlono Fazliddinni

390. H.Boyqaro kimni qozilik lavozimiga tavsiya etadi («Navoiy»)?

- A) Alisher Navoiyni
- B) Xo'ja Afzalni
- C) Nizomulmulk Havofiyni
- D) Mavlono Fazliddinni

391. Saroyning «devondagi mavjud ishlarni boshqarib ulgurmayotgan» ikki vaziri kim («Navoiy»)?

- A) Xo'ja Ato, Xo'ja Afzal
- B) Shahobiddin, Xo'ja Ato
- C) Xo'ja Ato, Abduxoliq
- D) Mo'g'ulbek, Abduxoliq

392. Shahar qozisi lavozimiga Majiddiddin kimni tavsiya etadi («Navoiy»)?

- A) Mavlono Fazliddinni
- B) Mavlono Shahobiddinni

- C) Shayx Bahlulni
- D) Muzaffar barlosni

393. «Munshilar» kimlar?

- A) kambag'allar B) kotiblar
- C) shoirlar D) rassomlar

394. «Saromadi» so'zining ma'nosi ...

- A) tizma
- B) papka
- C) oldingisi
- D) jannatga o'xshash

395. «Zamonaning Aflotuni» deb ta'rifiagan obraz kim («Navoiy»)?

- A) Mavlono Fasihiddin
- B) Majiddiddin Muhammad
- C) Mavlono Shahobiddin
- D) Bahriddin

396. Shahobiddinni kim «zamonaning Aflotuni» deb ta'rifiagan («Navoiy»)?

- A) Majiddiddin B) Fasihiddin
- C) Shahobiddin D) Sultonmurod

397. «Sadr» so'zining ma'nosi ...

- A) oldingisi
- B) vaqf va diniy ishlarni boshqaruvchi ma'mur
- C) maxsus musiqiy asbob
- D) tizma

398. Navoiy kimga uni madrasa mudarrisini etib tayinlamoq niyati bilan xat yozadi («Navoiy»)?

- A) Sultonmurodga
- B) Kamoliddin Behzodga
- C) Mirak Naqqoshga
- D) Fasihiddinga

399. «Unda qidiruvchi fikr bor edi. U boshqa sohalarida ham g'alati narsalar ixtiro etishga urinardi». Parchada kimning ta'rifi keltirilgan («Navoiy»)?

- A) Fasihiddin  
B) Kamoliddin Behzod  
C) Shahobiddin  
D) Mirak Naqqosh
- 400. Kamoliddin Behzodni Navoiyga kim tanishtirgan («Navoiy»)?**  
A) Sultonmurod  
B) Mirak Naqqosh  
C) Darveshali  
D) Fasihiddin
- 401. Navoiy romanning nechanchi bobida Behzod bilan tanishadi («Navoiy»)?**  
A) 10-bobida B) 2-bobida  
C) 14-bobida D) 36-bobida
- 402. «Dushman ikki shohdan bir-biriga yaqin va do'st ikki darvesh yaxshi». Fikr muallifi kim («Navoiy»)?**  
A) Darveshali B) H.Boyqaro  
C) Navoiy D) Shahobiddin
- 403. Badiuzzamonning suhbatdoshi kim edi («Navoiy»)?**  
A) Mavloni Shahobiddin  
B) Mavloni Majiddin  
C) Mavloni Zamoni  
D) Mavloni Fasihiddin
- 404. Muzaffar mirzoning qozisi sifatida qatl qildirilgan qahramon kim («Navoiy»)?**  
A) Xo'ja Afzal B) Shayx Bahlul  
C) Xo'ja Ato D) Shahobiddin
- 405. Shahobiddinning qatl qildirilishi haqidagi ma'lumotni Navoiyga kim aytdi («Navoiy»)?**  
A) Sultonmurod B) Zamoni  
C) Darveshali D) Fasihiddin
- 406. H.Boyqaro va Badiuzzamonni yarashtirish maqsadi bilan yo'lga tush-**

**gan Navoiy Badiuzzamonga qayorlari berilishini ma'lum qiladi («Navoiy»)?**

- A) Balx, Amudaryodan to Murg'abgacha bo'lgan yerlar  
B) Amudaryodan Murg'abgacha  
C) Bag'dod va Balx  
D) Balx

**407. H.Boyqaro va Badiuzzamonni yarashtirish voqealari romanning nechanchi bobida aks etgan («Navoiy»)?**

- A) 36-bobida B) 10-bobida  
C) 2-bobida D) 12-bobida

**408. Qayer «She'r va fikr o'chog'i» sifatida ta'riflanadi («Navoiy»)?**

- A) «Qudsiya» B) «Unsiya»  
C) «Ixlosiya» D) «Xalosiya»

**409. «Xizmati va sadoqati bilan bu dargohda soqolini oqartirgan» qahramon ... («Navoiy»)?**

- A) Shayx Bahlul  
B) Shahobiddin  
C) Muhammad Burunduq barlos  
D) Navoiy

**410. «Navoiy» romanining nechanchi bobida Navoiy «Vaqfiya» yozish, «Muhokamat ul-lug'atayn»ni bitirish kabi o'ylarga beriladi?**

- A) 16-bobida B) 10-bobida  
C) 36-bobida C) 2-bobida

**411. Oybekning she'rlari ...**

- A) «Somon parcha», «Na'matak»  
B) «Mashrab», «Dilbar davr qizi»  
C) «Na'matak», «O'ch»  
D) «Na'matak», «Mashrab»

**412. Oybekning «Na'matak» she'ri qanday shaklda yozilgan?**

- A) murabba  
B) muxammas (beshlik)  
C) musamman  
D) musaddas

413. Oybek nimani «vahshiy qoyalarning ajib ijodi» deya ta'riflaydi?

- A) lolaqizg'aldoqni
- B) na'matakni
- C) daraxtlarni
- D) qorni

414. «Na'matak» she'rida takrorlanuvchi misralar ...

- A) Yuksakda raqs etar bir tup na'matak
- B) Quyoshga tutadi bir savat oq gul
- C) Nozik salomlari naqadar ma'sum
- D) Nafis chayqaladi bir tup na'matak

415. «Na'matak» she'ri qaysi misralar bilan yakunlanadi?

- A) Viqor-la o'shshaygan qoya labida,  
Nafis chayqaladi bir tup na'matak
- B) Yanoqlari tutib oltin bo'sa-chun,  
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!
- C) Yuksakda raqs etar bir tup  
na'matak,  
Quyoshga bir savat gul tutib  
xursand!

- D) Boshida bur savat oq  
yulduz-chechak,  
Nozik salomlari naqadar ma'sum!

416. «Na'matak» she'rida nima «viqor-la o'shshayadi»?

- A) na'matak
- B) tosh
- C) tog'lar
- D) quyoshga bir savat oq gul ko'targan qoya

417. «Na'matak» she'rida nima yum-yum yig'laydi?

- A) kumush qor
- B) bulut
- C) ko'z
- D) na'matak

418. «Na'matak» she'rida nimaning «mayin raqsiga qoniqmas ko'ngil»?

- A) gulning
- B) quyoshning
- C) na'matakning
- D) bulutlarning

419. Oybek «Mashrab» she'rida Mashrabning davlati sifatida nimani keltiradi?

- A) ilhomni, eski tanburi
- B) qalb she'ri, eski tanburi
- C) ilhomni va sozi
- D) nosqovog'i, eski tanburi

420. «Mashrab» she'ri qanday shaklda yozilgan?

- A) murabba
- B) muxammas (beshlik)
- C) masnaviy
- D) g'azal

421. Badiiy so'zning chechan, tejamkor san'atkori kim?

- A) Oybek
- B) G'.G'ulom
- C) H.Olimjon
- D) A.Qahhor

422. A.Qahhorning «Sarob» romanida jurnal yozuvchilarni necha toifaga bo'lishi aytiladi?

- A) 3 toifa: talantli shoirlar, tarbiya va kengashga munosib yosh qalamkashlar, havaskor yozuvchilar
- B) 2 toifa: talantli shoirlar, havaskor yozuvchilar
- C) 4 toifa: talantli shoirlar, tarbiya va kengashga munosib yosh qalamkashlar, havaskor yozuvchilar, majburiyat yuzasidan yozadigan yozuvchilar
- D) 3 toifa: talantli shoirlar, majburiyat yuzasidan yozadigan yozuvchilar, havaskor yozuvchilar

423. Saidiy jurnal e'tirof etgan 3 tur yozuvchilardan qaysi turiga kirar edi («Sarob»)?



- A) birinchisiga B) ikkinchisiga  
C) uchinchisiga D) hech qaysisiga
- 424. Saidiy nima uchun komsomol yacheykasidan qo'rqardi («Sarob»)?**  
A) puli yo'qligi uchun  
B) majlisga bormagan  
C) majlisga bormagan, yacheykada qorasini ham ko'rsatmagan  
D) Munisxondan xat kelgani uchun
- 425. Saidiyning necha oylik stipendiyasi qolib ketgan edi («Sarob»)?**  
A) 3 oylik B) 5 oylik  
C) 4 oylik D) 2 oylik
- 426. Saidiydan 11 so'm qarz olgan qahramon ... («Sarob»)**  
A) Rahimjon B) Ulfat  
C) Munisxon D) Kenja
- 427. Kim davlat nashriyotida 271 so'mi borligini aytib maqtanadi («Sarob»)?**  
A) Salimxon B) Munisxon  
C) Kenjabek D) Ulfat
- 428. Saidiy o'zida qolgan 2 so'mni necha kunga yetkazdi («Sarob»)?**  
A) 5 kunga B) 3 kunga  
C) 4 kunga D) 7 kunga
- 429. Saidiyning asl ismi ... («Sarob»)**  
A) Rahimjon B) Kenjabek  
C) Shafrin D) Ulfat
- 430. Saidiyning asl do'sti ... («Sarob»)**  
A) Ulfat B) Kenjabek  
C) Salimxon D) Shafrin
- 431. Saidiy uchun kitobning betlariga uch so'mlik qo'ygan qahramon ... («Sarob»)**  
A) Ulfat B) Shafrin  
C) Salimxon D) Munisxon
- 432. Saidiyning to'rt oylik stipendiyasini kim olib kelib beradi («Sarob»)?**  
A) Munisxon B) Kenjabek  
C) Shafrin D) Ulfat
- 433. «Sarob» romanida «adabiyot maydonining «bahodirlari» deb ta'riflangan ijodkorlar ...**  
A) Sa'diy, Abbosxon, Ilhom  
B) Ulfat, Sa'diy, Abbosxon  
C) Kenjabek, Ilhom, Sa'diy  
D) Ulfat, Abbosxon, Ilhom
- 434. Saidiy sevgan qiz ... («Sarob»)**  
A) Zebi B) Munisxon  
C) Maryamxon D) Ra'no
- 435. Munisxonning akasi ... («Sarob»)**  
A) Salim B) Rahimjon  
C) Ulfat D) Kenjabek
- 436. Salimxon, Munisxon, Saidiy o'rtasida kimning rasmi va o'limi haqida suhbat boradi («Sarob»)?**  
A) Tolstoy  
B) Pushkin  
C) Is'hoq afandi  
D) Abdulla To'qay
- 437. Salimxon va Saidiy juma kuni nima haqida suhbatlashadilar («Sarob»)?**  
A) Is'hoq afandi rasmi haqida  
B) Tolstoyning vafoti haqida  
C) Abdulla To'qay she'ri haqida  
D) Is'hoq afandining o'limi haqida
- 438. Tolstoyning vafoti haqida kim sochma she'r yozgan («Sarob»)?**  
A) Usmon Nosir  
B) Abdulla To'qay  
C) Abdulla Qahhor  
D) Rasul Hamzatov
- 439. A.To'qayning Tolstoyning o'limi munosabati bilan yozilgan sochma**

she'rini yod o'qib bergan qahramon ... («Sarob»)

- A) Munisxon B) Ulfat  
C) Saidiy D) Salimxon

440. Salimxonni gazeta, jurnalni tushunishga, anglashga, bu haqda bahs-iashishga o'rgatgan qahramon kim («Sarob»)?

- A) Husaynovning kuyovi  
B) Salimxon  
C) Kenjabek  
D) Shain

441. Saidiyning hikoyasi ... («Sarob»)

- A) «O'g'ri» B) «Vodiy»  
C) «Qalandar» D) «Mashrab»

442. Saidiyning she'ri ... («Sarob»)

- A) «Qalandar» B) «Mashrab»  
C) «Vodiy» D) «Daryo kechasi»

443. Saidiyga hikoyasi va she'rining jurnalda bosilishi uchun navbatga qo'yilganligi haqidagi xabarni kim yuborgan edi («Sarob»)?

- A) Salimxon B) Kenja  
C) Shafrin D) Ulfat

444. «Olam yaxshi. Hayot go'zal. Natijasiz mehnat bo'lmaydi». Bu fikr muallifi kim («Sarob»)?

- A) Saidiy B) Ulfat  
C) Salimxon D) Shafrin

445. Saidiyning hikoyasiga bir bob qo'shgan qahramon ... («Sarob»)

- A) Saidiy B) Ulfat  
C) Salimxon D) Kenja

446. Saidiyning maktabdoshi, ro'zadaha saharlik ustida uxlab qoladigan qahramon kim («Sarob»)?

- A) Shafrin B) Tesha  
C) Ulfat D) Kenja

447. «Sarob» romanida «Bilimga chanoqagan yigit» sifatida ta'riflangan qahramon kim?

- A) Saidiy B) Tesha  
C) Ulfat D) Shafrin

448. Tesha Saidiyga qaysi domlanning fikrlari noto'g'ri ekanligini uqtiradi («Sarob»)?

- A) Abbosxon B) Kenja  
C) Mahmud D) Ilhom

449. «Sarob» romanida keltirilgan «atoqli tanqidchi» kim?

- A) Kenja B) Ilhom  
C) Abbosxon D) Rahimjon

450. «Tanqid qilinsa, yana yaxshi, tanilasiz... So'kilsangiz ham mayli, o'quvchingiz ko'payadi». Bu fikr kimniki («Sarob»)?

- A) Salimxon B) Abbosxon  
C) Ilhom D) Ulfat

451. M.Shayxzodaning «Toshkentnoma» dostonida qaysi shoirning she'ri kurash, baxt va umiddan iboratligini aytadi?

- A) G'.G'ulom B) H.Olimjon  
C) A.Navoiy D) Lermontov

452. Mirtemirning «Kipriklarim» she'ri qachon yozilgan?

- A) 1960-yil B) 1963-yil  
C) 1957-yil D) 1941-yil

453. Saidiy hikoyasining so'nggi tahriri kim tomonidan qilingan edi («Sarob»)?

- A) Abbosxon B) Ilhom  
C) Kenja D) Tesha

454. Saidiy hikoyasining nechanchi bobi tamoman o'chirilgan edi («Sarob»)?

- A) 1-bobi      B) 2-bobi  
C) 3-bobi      D) oxirgi bobi

**455. M.Shayxzoda qalamiga mansub qasida ...**

- A) «O'zbekim»  
B) «O'zbekiston»  
C) «Toshkentnoma»  
D) «Vatanim»

**456. M.Shayxzodaning dramatik asarlari ...**

- A) «Iskandar Zulqarnayn», «Jaloliddin Manguberdi»  
B) «Mirzo Ulug'bek», «Toshkentnoma»  
C) «Jaloliddin Manguberdi», «Toshkentnoma»  
D) «Mirzo Ulug'bek», «Jaloliddin Manguberdi»

**457. M.Shayxzodaning «Toshkentnoma» qasidasi qanday janrda yozilgan?**

- A) lirik qissa      B) ballada  
C) lirik poema      D) lirik hikoya

**458. M.Shayxzoda «Toshkentnoma» poemasini qachon yozgan?**

- A) 1960-yili      B) 1957-yili  
C) 1959-yili      D) 1962-yili

**459. «Toshkentnoma» poemasi qanday shaklda yozilgan?**

- A) g'azal      B) muxammas  
C) masnaviy      D) murabba

**460. «Toshkentnoma» poemasi qaysi misralar bilan boshlanadi?**

- A) Toshkentni sevmoqlik  
yurakning ishi,  
Shu uchun shartmikan bunda  
tug'ilmoq!  
B) Sizga bu tarona-kuyim armug'on,  
Nasr – og'ir qadam, nazm –  
chopag'on

- C) Shaharlar boqiydir, umr –  
o'tkini hi  
Daryolar sobitdir, suvlar –  
ko'chkin hi  
D) Tinchlik bizga qimmatga tushdi,  
Erk yo'lida el urushdi

**461. «Nasr – og'ir qadam, nazm – chopag'on» misralari qaysi asarda uchraydi?**

- A) «Toshkentnoma»  
B) «Surat»  
C) «Qo'llar»  
D) «Ayriqliq»

**462. M.Shayxzoda «Toshkentnoma» poemasida nimani «mangu ishchilar, beg'araz xayrixohlar va kengashchilar» sifatida tarbiyalaydi?**

- A) ko'zlarni      B) kitoblarni  
C) qalamlarni      D) tabiatni

**463. «Numizmat» so'zining ma'nosi ...**

- A) bosmaxonada harf teriladigan uskununa  
B) qadimgi tangalarni tekshiruvchi mutaxassis  
C) o'q, yoylar  
D) mukammal biluvchi ustoz

**464. M.Shayxzoda «Toshkentnoma» poemasida «Beklarning arki» sifatida qayerni e'tirof etadi?**

- A) Chorsu      B) O'rda  
C) Qorasu      D) Ko'kcha

**465. M.Shayxzoda «Toshkentnoma» poemasining nechanchi qismida «Navoiyning zamonasin Sayr etardim ko'zim yumib» ifodasini keltiradi?**

- A) 18-bobida      B) 5-bobida  
C) 10-bobida      D) 13-bobida

**466. M.Shayxzoda «Toshkentnoma» poemasida H.Olimjonni qayerda uchratganini aytadi?**

- A) Yozuvchilar uyushmasida
- B) O'rdada
- C) mushoiralardan birida
- D) Lohutiy ko'chasida

467. M.Shayxzoda «Toshkentnoma» poemasida kimning asarini o'qib: «Navoiyning zamonasin Sayr etardim ko'zim yumib», – deydi?

- A) Mir Vafo
- B) Xondamir
- C) Navoiy
- D) Husayn Boyqaro

468. «Toshkentnoma» poemasida kim «asl shoir» sifatida ta'riflanadi?

- A) Oybek
- B) H.Olimjon
- C) Mirtemir
- D) G'.G'ulom

469. «Toshkentnoma» poemasida dushman «ishkal» solgani sabab kimning to'yi qolganligi aytiladi?

- A) Tolstoy
- B) Pushkin
- C) Lermontov
- D) Abdulla To'qay

470. 14 bolani bag'riga olgan Shoahmad ota timsoli qaysi asarda keltiriladi?

- A) M.Shayxzodaning «Toshkentnoma» poemasida
- B) E.Vohidovning «Nido» dostonida
- C) G'.G'ulomning «Vaqt» she'rida
- D) G'.G'ulomning «Sen yetim emas» she'rida

471. «Toshkentnoma» poemasining nechanchi bobida 14 bolani bag'riga olgan Shoahmad ota timsoli keltiriladi?

- A) 10-bobida
- B) 16-bobida
- C) 14-bobida
- D) 18-bobida

472. «Toshkentnoma» poemasida keltirilgan Bahri opa kim?

- A) shoirning ilk ustoz
- B) beva o'tgan o'zbek ayoli
- C) shoirning onasi
- D) 14 bolani bag'riga olgan Shoahmad otaning ayoli

473. M.Shayxzoda «Toshkentnoma» poemasining 16-bobida Toshkentning qanday taxallus olganligini ta'kidlaydi?

- A) «Salomobod»
- B) «Non shahri»
- C) «Mehr uyi»
- D) barchasi

474. M.Shayxzoda «Toshkentnoma» poemasida shoirlikning toleyi unga qayerda kulib boqqanini aytadi?

- A) O'rdada
- B) Yozuvchilar uyushmasida
- C) Sirdaryo havzalarida
- D) «Salomobod»da

475. M.Shayxzoda «Toshkentnoma» poemasida qaysi shoirlar unga og'a bo'lganlarini ayon qiladi?

- A) A.Qahhor va Oybek
- B) H.Olimjon va G'.G'ulom
- C) Oybek va G'.G'ulom
- D) Cho'lpon va A.Qodiriy

476. M.Shayxzoda «Toshkentnoma» poemasida kimlarni: «Biri – she'rimizning o'tli yuragi, Biri – nasrimizning baland tirgagi», – deb ta'riflaydi?

- A) Cho'lpon va A.Qodiriy
- B) G'.G'ulom va Oybek
- C) A.Qahhor va Oybek
- D) H.Olimjon va G'.G'ulom

477. «Toshkentnoma» poemasi necha bobdan iborat?

- A) 14 bob
- B) 18 bob
- C) 16 bob
- D) 20 bob

478. M.Shayxzoda «Toshkentnoma» poemasining nechanchi bobida poemaning 18 bobdan iborat ekanligini aytadi?

- A) 14-bobida
- B) 10-bobida
- C) 16-bobida
- D) 18-bobida

**479. M.Shayxzodaning she'rlarini toping.**

- A) «Ayriliq», «Qo'llar», «She'r chin go'zallik singlisi ekan»
- B) «Toshkentnoma», «Ayriliq», «Qo'llar»
- C) «Sog'inish», «She'r chin go'zallik singlisi ekan», «Qo'llar»
- D) «Iskandar Zulqarnayn», «Ayriliq», «Qo'llar»

**480. M.Shayxzodaning «Ayriliq» she'ri qanday shaklda yozilgan?**

- A) musaddas
- B) murabba
- C) masnaviy
- D) muxammas

**481. M.Shayxzoda nimani «ruhning ko'zgusi» deb ta'riflaydi?**

- A) qalbni
- B) qo'llarni
- C) ko'zlarni
- D) aqlni

**482. M.Shayxzoda qaysi she'rida ko'zlarni «ruhning ko'zgusi» deb ta'riflaydi?**

- A) «Ayriliq»
- B) «Toshkentnoma»
- C) «Qo'llar»
- D) «She'r chin go'zallik singlisi ekan»

**483. M.Shayxzoda nimani «yurakning navkarlari» deb ta'riflaydi?**

- A) ko'zlarni
- B) qo'llarni
- C) aqlni
- D) so'zlarni

**484. «Qo'llar» she'ri qanday shaklda yozilgan?**

- A) g'azal
- B) murabba
- C) masnaviy
- D) muxammas

**485. M.Shayxzodaning qaysi she'ri «She'rsiz qalblarga achinaman men» misralari bilan boshlanadi?**

- A) «Ayriliq»
- B) «She'r chin go'zallik singlisi ekan»
- C) «Qo'llar»
- D) «Iskandar Zulqarnayn»

**486. H.Olimjonning «Na bo'lg'ay bir nafas» deb boshlanuvchi g'azali aruzning qaysi bahrida yozilgan?**

- A) hajaji musammani mahzuf / maqru'
- B) hazaji musammani solim
- C) hazaji musaddasi solim
- D) saru'

**487. «Na bo'lg'ay bir nafas» deb boshlanuvchi g'azalda keladigan qoliyadosh so'zlar ...**

- A) xol, lol, bol, xayol, shamol, duvol qamol, uvol
- B) xol, boi, lol, xayol, shamol, duvol qamol, uvol
- C) xol, bol, shamol, lol, xayol, duvol qamol, uvol
- D) bol, lol, xol, shamol, xayol, duvol qamol, uvol

**488. «Na bo'lg'ay bir nafas» deb boshlanuvchi g'azalning maqtasini toping**

- A) Na bo'lg'ay bir nafas men ham yanog'ing uzra xol bo'lsam, Labing yaproq'idin tomganki qatra bol bo'lsam
- B) Kezib sahro-yu vodiylar yetish sam bir visolingga, Fido jonimni qildim yo'lingga, mayli, uvol bo'lsam
- C) Sening birla qolib bu mast-u lol olamda men yolg'iz, O'zimni ham topol may, mayliga, oxir xayol bo'lsam
- D) Boshim hech chiqmasa, mayli, malomat birla bo'htondin, Raqlblar rashkiga ko'krak keray, mayli, qamol bo'lsam

**489. «Ofeyiyaning o'limi» she'ri muallifi kim?**

- A) G'.G'ulom
- B) H.Olimjon
- C) M.Shayxzoda
- D) Oybek

**490. «Ofeyiyaning o'limi» she'rida qaysi misralar takror keladi?**

A) Nega kerak edi, shu chiroy, shu o't?  
Shu yoniq yulduzni ko'zga

yashirmoq

B) Nahotki, sevgiga shudir tamanno?  
Nahot, go'zal uchun faqat,

faqat dod!..

C) Shu bo'ldi bokira, dunyo ko'rmagan  
U yoqut lablarning qora taqdiri

D) Qo'yingda bir quchoq oq va  
nafis gul,

Lekin ruhing to'la motam va azo

491. Nega kerak edi shu chiroy, shu o't,  
Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq?  
Nega lablaringdan husn oldi yoqut,  
Nega siyning bo'ldi qor tog'iday oq?

**Bu misralar H.Olimjonning qaysi she'ridan olingan?**

- A) «O'rik gullaganda»
- B) «Ofeliyaning o'limi»
- C) «G'azal»
- D) «Ayriliq»

492. H.Olimjon «Ofeliyaning o'limi»  
she'rida nimani g'amxonaga, «Doniyo  
zindon»ga o'xshatadi?

- A) yurakni
- B) ko'zlarni
- C) qafasni
- D) dunyoni

493. «Qo'yingda bir quchoq oq va  
nafis gul,

Lekin ruhing to'la motam va azo».

**Bu bayt «Ofeliyaning o'limi» she'rida  
nechanchi bandlarda takrorlangan?**

- A) 1- va 5-bandlarda
- B) 3- va 6-bandlarda
- C) 1- va 7-bandlarda
- D) 1- va 6-bandlarda

494. H.Olimjon «Ofeliyaning o'li-  
mi» she'rida qaysi qahramonni uning  
oshig'i sifatida tilga oladi?

- A) Hamletni
- B) Oteiloni
- C) Danteni
- D) Tassoni

495. Mayli deyman va qilmayman g'ash,  
Xayolimni gulga o'rayman;

Har bahorga chiqqanda yakkash

Baxtim bormi deya so'rayman.

**Bu misralar H.Olimjonning qaysi  
she'ridan olingan?**

- A) «Ofeliyaning o'limi»
- B) «G'azal»
- C) «Somon parcha»
- D) «O'rik gullaganda»

496. Javob berib ko'r-chi, nomard tabiat,  
Bunchalar go'zalni nechun yaratding?!

O'zing gunohkorsan, osiysan behad,

Nechun yaratding-u o'tlarga otding?

**Bu misralar H.Olimjonning qaysi  
she'ridan olingan?**

- A) «Ofeliyaning o'limi»
- B) «G'azal»
- C) «Somon parcha»
- D) «O'rik gullaganda»

497. H.Olimjonning «O'rik gullagan-  
da» she'rining boshi va oxirgi misralari  
sifatida kelgan bayt ...

A) Na bo'lg'ay bir nafas men ham  
yanog'ing uzra xol bo'lsam,  
Labing yaprog'idin tomganki qatra  
bol bo'lsam

B) Derazamning oldida bir tup  
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

C) Shu bo'ldi bokira, dunyo ko'rmagan  
U yoqut lablarning qora taqdiri

D) Qo'yingda bir quchoq oq va  
nafis gul,

Lekin ruhing to'la motam va azo

498. Umrda hech gul ko'rmay yig'lab  
O'tganlarning haqqi ham senda.

Har bahorni yig'lab qarshilab

Ketganlarning haqqi ham senda.

**Bu misralar H.Olimjonning qaysi  
she'ridan olingan?**

- A) «O'rik gullaganda»
- B) «Ofeliyaning o'limi»
- C) «G'azal»
- D) «Ayriliq»

**499. H.Olimjonning «Muqanna» dramasi hajmi qancha?**

- A) 5 parda 6 ko'rinish
- B) 4 parda 3 ko'rinish
- C) 4 parda 8 ko'rinish
- D) 1 parda 3 ko'rinish

**500. «Muqanna» dramasi keltirilgan zarafashonlik dehqonlar kimlar?**

- A) Zayd, Xishriy, Bog'iy, Hakim
- B) G'irdak, Xishriy, Bog'iy, Sayidbattol
- C) G'irdak, Xishriy, Bog'iy, Hakim
- D) Fero'z, Xishriy, Bog'iy, Hakim

**501. «Muqanna» dramasi Kular-takin kim?**

- A) harbiy
- B) elchi
- C) ruhoni
- D) qo'mondon

**502. «Muqanna» dramasi elchining nomi ...**

- A) Hakim
- B) Zayd
- C) Ibn Muoz
- D) Fero'z

**503. «Muqanna» dramasi arab qo'shini qo'mondonlari ...**

- A) Zayd, Ibn Muoz
- B) Sayidbattol, Jaloyir
- C) Bog'iy, Zayd
- D) Sayidbattol, Ibn Muoz

**504. «Muqanna» dramasi arab ruhoniysi kim?**

- A) Jaloyir
- B) Zayd
- C) Sayidbattol
- D) Ibn Muoz

**505. Muqannaning asl ismi nima?**

- A) Hoshim Otash o'g'li
- B) Hoshim Hakim o'g'li
- C) Bog'iy Muhammad o'g'li
- D) Hakim Hoshim o'g'li

**506. «Muqanna» dramasi qul xojasi kim?**

- A) Jaloyir
- B) Fero'z
- C) Bog'iy
- D) Xishriy

**507. Guloyin kim («Muqanna»)?**

- A) Qutaybaning qizi
- B) Otashning qizi
- C) Hakimning qizi
- D) Fero'zning qizi

**508. Guloyinning onasi kim («Muqanna»)?**

- A) Sora
- B) Gunashbonu
- C) Gulrux
- D) Gulobod

**509. Guloyin nimani yaxshi ko'rar edi («Muqanna»)?**

- A) kitoblarni
- B) kapalakni
- C) tabiatni, gul-u chechaklarni
- D) asalni

**510. «Muqanna» dramasi qahramon tulkiga o'xshatiladi?**

- A) Sayidbattol
- B) Jaloyir
- C) Qutayba
- D) Fero'z

**511. Kim Qutaybani tulkiga o'xshatgan («Muqanna»)?**

- A) Fero'z
- B) Muqanna
- C) Guloyin
- D) Gulobod

**512. Xurosondan chopar kelgan Poykandni yer bilan yakson qilib to'g'risidagi farmon yozilganligi haqida ma'lumotni kim aytadi («Muqanna»)?**

- A) Fero'z
- B) Otash
- C) G'irdak
- D) Bog'iy

**513. Qutaybaning butxonadan nam topganligi haqidagi ma'lumotni kim aytadi («Muqanna»)?**

- A) Otash
- B) Jaloyir
- C) G'irdak
- D) Bog'iy

514. Qutaybaning butxonadan topgan boyliklari qancha edi («Muqanna»)?

- A) bir sanam, 40 ming dirham oltin
- B) injular, ikki sanam, 30 ming dirham
- C) bir sanam, oltin bilan 40 ming dirham, sanamning ko'zlarida kabutar tuxumicha keladigan injular
- D) bir sanam, sanamning ko'zlarida kabutar tuxumicha keladigan injular

515. Qutayba butxonadan topgan boyliklari, bunday boy shahar ko'rmaganligi haqida kinga maktub yozadi («Muqanna»)?

- A) Kulartakinga
- B) Zaydga
- C) Hajjojga
- D) Otashga

516. «Muqanna» dramasi da to'rt marotaba dindan qaytgan, «Xudo ham men, mening o'zim payg'ambar» degan qahramon ...

- A) Qutayba
- B) Muqanna
- C) Otash
- D) G'irdak

517. «Muqanna» dramasi ning birinchi ko'rinishidagi voqealar qaysi faslda bo'lib o'tadi?

- A) qish
- B) bahor
- C) yoz
- D) kuz

518. «Muqanna» dramasi dagi voqealar qaysi davrga tegishli?

- A) VII asrning oxiri
- B) VIII asrning boshlari
- C) VIII asrning ikkinchi yarmi
- D) IX asr boshlari

519. Qaysi qahramon «oq kiyingan farishta»ga o'xshatiladi («Muqanna»)?

- A) Bog'iy
- B) G'irdak
- C) Muqanna
- D) Xishriy

520. «Muqanna» dramasi qachon yozilgan?

- A) 1941 – 1942-yillarda
- B) 1940 – 1942-yillarda
- C) 1942 – 1943-yillarda
- D) 1943 – 1944-yillarda

521. Dramada bir necha marotaba takrorlangan «Oq kiyinar uni ko'rmoq bo'lganlar» so'zlari qaysi qahramon tilidan aytilgan?

- A) Gulobod
- B) Otash
- C) Fero'z
- D) Guloyin

522. Mirtemirning «Surat» lirik qissasi tarkibida uchraydigan misralar qaysi sarlavhalar ostida berilgan?

- 1. «Surat, surat!». 2. «Ikki bag'ishlovlardan...». 3. «O'xshatma». 4. «Sening har maqoming». 5. «Ikki dard». 6. «Xat...». 7. «Taqillatsam...». 8. «Bugun yo'lda...». 9. «Amon!...». 10. «Bolajon». 11. «Haftada, oyda...». 12. «Ertak...». 13. «Barini unut!». 14. «Yor deguncha». 15. «Dilda qoldi...». 16. «Faqat!». 17. «Yana surat...».

- A) 1, 2, 3, 5, 6, 7, 14
- B) 1, 2, 4, 10, 12, 15, 17
- C) 1, 8, 9, 11, 13, 15, 16, 17
- D) barchasi

523. «Surat» lirik qissasi dagi lirik qahramon kim?

- A) Oysuluv
- B) Toshlon
- C) Tohir
- D) Oqsoqol

524. Toshlon ko'ngil qo'yg'an qizning ismi ... («Surat»)

- A) Toshbu
- B) Oysuluv
- C) Gunafsha
- D) Gulzoda

525. «Surat» lirik qissasi da asar qahramoni yorning suratini qancha mudatdan beri asrab yurganini aytdi?

- A) 3 yildan beri
- B) 4 yildan beri
- C) 5 yildan beri
- D) 2 yildan beri



526. Lirik qahramon sevgan qiz Oysuluv nomi asarning qaysi qismida keltirilgan («Surat»)?

- A) «Surat, surat», «Barini unut»
- B) «Amon», «O'xshatma (II bandi)»
- C) «Ilk bag'ishlovlardan...», «O'xshatma» (III bandi)
- D) «Ilk bag'ishlovlardan...», «O'xshatma» (II bandi)

527. *Bilamanki, o'qiysan kitob,  
She'rim seni etadi kabob.*

*Oh chekasan, bitar toqat-tob,  
Bilamanki, yod bo'lgan bir bob,  
She'rim seni etadi kabob.*

Bu misralar «Surat» lirik qissasining qaysi qismida keltirilgan?

- A) «Xat»
- B) «Yana surat»
- C) «Surat, surat»
- D) «Taqillatsam»

528. Mirtemirning qaysi she'ri 1961-yil martda Olmos qishlog'ida yozilgan?

- A) «Kipriklarim»
- B) «Baliq ovi»
- C) «Oqsoqol»
- D) «Men seni...»

529. «Surat» lirik qissasi qanday misralar bilan yakunlanadi?

- A) Surat, surat! Nega sen tilsiz?  
Seni asrab to'rt yil qo'ynimda...  
Topinardim, o'pardim... esiz!  
Evoh, qanday zil yuk bo'ynimda,  
Seni asrab to'rt yil qo'ynimda...
- B) Tasviringga no'noqman, nochor...  
Menga qoldi surat yodgor...  
O'xshashningni topolmayman hech,  
Bu malohat faqat senda bor
- C) Och nazarim tushar suratga...  
Surat, surat! Nega sen tilsiz?  
Termulaman suratda xatga...  
Janglarda yor eding-ku, o, qiz!  
Surat, surat! Nega sen tilsiz?

- D) Hammasidan kulishing yaxshi,  
Dilkash, munis turishing yaxshi  
Ko'kragingma boshingni qo'yib  
Taslim bo'lib turishing yaxshi

530. «Surat» lirik qissasi nechanchi yil qayerda yozilgan?

- A) 1955 – 1956-yillarda Sirdaryo
- B) 1956 – 1957-yillarda Qoraqalpog'iston
- C) 1957 – 1958-yillarda Qoraqalpog'iston
- D) 1956 – 1957-yillarda Iqon

531. Mirtemirning qaysi she'rida «g'ashlik» so'zi radif sifatida ishlatilgan?

- A) «Toshbu» B) «Men seni...»
- C) «Onaginam» D) «Oqsoqol»

532. Mirtemirning qaysi she'rida «achiguvchi, g'ajiguvchi, chekuvchi» kabi o'xshatishlar keltirilgan?

- A) «Toshbu»
- B) «Men seni...»
- C) «Onaginam»
- D) «Oqsoqol»

533. Mirtemir «Onaginam» she'rida nimani onasi uchun qilgan xizmatini emasmi» deb baholaydi?

- A) farzandiga xizmatini
- B) elga xizmatini
- C) kasbiga xizmatini
- D) barchasi

534. «Onaginam» she'ri qanday yul kunlanadi?

- A) Hammasidan kulishing yaxshi,  
Dilkash, munis turishing yaxshi  
Ko'kragingma boshingni qo'yib  
Taslim bo'lib turishing yaxshi
- B) Mehnatkash insonga xos ko'rk va shukr  
Tabiatday barhaq, barhayot, o'zga

Ha, piyri badavlat deganlar shu,  
Yuz bir shohdan ortiq piyri badavlat

- C) El meni farzandim demasmi axir!  
Rozi bo'l, odam sanalay menam...  
Dunyoga qaytib kelurman,  
Lekin boshqa o'g'il bo'lib...
- D) Tasviringga no'noqman, nochor...,  
Menga qoldi surat yodgor...  
O'xshashingni topolmayman hech,  
Bu malohat faqat senda bor

535. *Belida to'rt belbog', qo'lida aso,  
Shu joylarning to'ng'ich hukmronidek,  
O'tmishi, buguni pok vijdonidek,  
Aqli luqmonlardan to'liq va raso.*

Bu misralarda Mirtemir kimni tasvir-  
lagan?

- A) onasini B) Toshbuni  
C) Oysuluvni D) oqsoqolni

536. *Bir qarasang – osmon to'la oqquvlar,  
Bir qarasang – baland qortli cho'qqilar,  
Bir qarasang – ko'z ilg'amas oq barqut.*

Misralarda Mirtemir nimani ta'rifla-  
gan?

- A) yomg'irni B) qishlog'ini  
C) bulutni D) osmonni

537. Mirtemir 1961-yili Olmos qish-  
log'ida yozgan she'ri qaysi?

- A) «Men seni...»  
B) «Onaginam»  
C) «Oqsoqol»  
D) «Kipriklarim»

538. Mirtemirning qaysi she'ri 7 va  
14 bo'g'inli bandlardan tashkil topgan?

- A) «Men seni...»  
B) «Onaginam»  
C) «Oqsoqol»  
D) «Kipriklarim»

539. «Men seni...» she'ri qanday  
misralar bilan boshlanadi?

A) Men seni injitmayman  
Va lekin tinchitmayman...

B) Men seni tinchitmayman  
Va lekin injitmayman...

C) Mehnatkash insonga xos ko'rk  
va savlat,

Tabiatday barhaq, barhayot, ezgu.  
Ha, piyri badavlat deganlar shu,  
Yuz bir shohdan ortiq piyri badavlat

D) El meni farzandim demasmi axir!  
Rozi bo'l, odam sanalay menam...  
Dunyoga qaytib kelurman,  
Lekin boshqa o'g'il bo'lib...

540. «Men seni» deb boshlanuvchi  
she'r qaysi misralar bilan yakunlanadi?

A) Mehnatkash insonga xos ko'rk  
va savlat,

Tabiatday barhaq, barhayot, ezgu.  
Ha, piyri badavlat deganlar shu,  
Yuz bir shohdan ortiq piyri badavlat

B) El meni farzandim demasmi axir!  
Rozi bo'l, odam sanalay menam...  
Dunyoga qaytib kelurman,  
Lekin boshqa o'g'il bo'lib...

C) Men seni tinchitmayman  
Va lekin injitmayman...

D) Men seni injitmayman  
Va lekin tinchitmayman...

541. Mirtemirning «yosh qalamkash-  
larga atagan» she'ri qanday nomlanadi?

- A) «Bulut» B) «Kipriklarim»  
C) «Shudring» D) «To'rg'ay»

542. Zulfiyaning asarlarini toping.

A) «Kipriklarim», «Bahor keldi seni  
so'roqlab», «Mushoira»

B) «Mushoira», «Xotiram siniqlari»,  
«O'rik gullaganda»

C) «Bahor keldi seni so'roqlab...»,  
«O'g'lim, sira bo'lmaydi urush», «Mu-  
shoira», «Xotiram siniqlari»

D) «Nevara», «Men o'tgan umrga»,  
«Mening vatanim»

**543. Zulfiyaning qaysi she'rida uning farzandlari Hulkar va Omon nomlari qayd etilgan?**

- A) «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush»
- B) «Bog'lar qiyg'os gulda»
- C) «Bahor keldi seni so'roqlab...»
- D) «Mushoira»

**544. «Bahor keldi seni so'roqlab...» she'ri qaysi misralar bilan yakunlanadi?**

- A) Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafsha labida, yerlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, yellarning  
nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...  
B) Hijroning qalbidamda, sozing  
qo'limda,  
Hayotni kuylayman, chekinar alam.  
Tunlar tushimdasan, kunduz  
yodimda,  
Men hayot ekanman, hayotsan  
sen ham!  
C) Bahorga burkangan sen sevgan  
elda  
Ovozing yangradi jo'shqin,  
zabardast.  
O'lmagan ekansan, jonim, sen  
hayot,  
Men ham hali sensiz olmadim nafas  
D) Davramiz mehrga to'liq bir olam,  
Do'stlar bari jam,  
Buyuk mushoira etadi davom,  
Kelingiz siz ham!

**545. «To'lisharmi o'lkada bahor?**

*Quyosh kezar osmon ko'ksida.*

*Qaldirg'ochlar qanotmi qoqar?*

*Undan soya labi ustida.»*

**Zulfiyaning qaysi she'ri shu misralar bilan boshlanadi?**

- A) «Bahor keldi seni so'roqlab»
- B) «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush»
- C) «Mushoira»
- D) «Men o'tgan umrga»

**546. Men onaman, mening yuragim  
Farzandlarim quvonchiga kon.  
Dil orziqar ba'zan tilagim**

*Vahimalar o'rangan zamon.*

**Bu misralar Zulfiyaning qaysi she'ridan olingan?**

- A) «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush»
- B) «Xotiram siniqlari»
- C) «Bahor keldi seni so'roqlab»
- D) «Mushoira»

**547. «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» she'ri necha banddan iborat?**

- A) 12 band
- B) 13 band
- C) 14 band
- D) 10 band

**548. Zulfiyaning «Mushoira» dostonida mushoira qayerda bo'lib o'tadi?**

- A) Hindistonda
- B) Toshkentda
- C) Ozarbayjonda
- D) Moskvada

**549. Shoir «Mushoira» nomli poemasida nimani «eli tufrog'ini keltirgan go'yo» deb ta'riflaydi?**

- A) nonni
- B) poyabzalni
- C) gilamni
- D) kitobni

**550. Zulfiya «Mushoira» poemasida vatandosh sifatida kimni tilga o'iyadi?**

- A) Hoshimni
- B) Ahmadni
- C) Ulug'bekni
- D) Omonni

**551. «Mushoira» she'ri qachon yozilgan?**

- A) 1957-yili
- B) 1959-yili
- C) 1958-yili
- D) 1960-yili

**552. Zulfiyaning «Xotiram siniqlari» poemasida shoir onasi kimning bayozlarni mutolaa qilishini aytadi?**

- A) So'fi Olloyor
- B) Mashrab
- C) Huvaydo
- D) A va B

553. Zulfiya «Xotiram siniqlari» poemasida kimni «mehrdan bino» sifatida ta'riflaydi?

- A) singiini
- B) akani
- C) farzandni
- D) onani

554. Zulfiya «Xotiram siniqlari» poemasida nimani «yozda yoqqan qor kabi o'lim» deb ta'riflaydi?

- A) rabochiyga ketishni
- B) urushni
- C) kasallikning tarqashini
- D) ochlikni

555. Zulfiya «Xotiram siniqlari» poemasida nimani «portlovchi dud to'ldirilgan xum» deb ta'riflaydi?

- A) boshini
- B) yuragini
- C) qalbini
- D) uyini

556. Zulfiya «Xotiram siniqlari» poemasida oila a'zolaridan kimning qamalgani, erta vafoti haqida ta'sirchan misralarni bitgan?

- A) otasining
- B) bobosining
- C) akasining
- D) turmush o'rtog'ining

557. «Xotiram siniqlari» poemasi qachon yozilgan?

- A) 1994-yili
- B) 1995-yili
- C) 1993-yili
- D) 1992-yili

558. Shuhratning asl ismi ...

- A) G'olib Aminov Alimovich
- B) O'tkir Rashid
- C) G'ulom Alimov Aminovich
- D) G'ulom Aminov Alimovich

559. Shuhrat nechanchi yildan she'r yoza boshlagan?

- A) 1936-yildan (16 yosh)
- B) 1934-yildan (18 yosh)
- C) 1933-yildan (15 yosh)
- D) 1935-yildan (17 yosh)

560. Shuhratning romanlari ...

- A) «Fotima va Zuhra», «Mehrol», «Jamila»
- B) «Shinelli yillar», «Oltin zanglamas», «Jannat qidirganlar»
- C) «Oltin zanglamas», «Jannat qidirganlar», «Mehrol»
- D) «Fotima va Zuhra», «Oltin zanglamas»

561. Shuhrat qalamiga mansub komediyalarni toping.

- A) «Guldursun», «Mardlik afsonasi»
- B) «Guldursun», «Besh kunlik kuyov»
- C) «Qo'sha qaringlar», «Besh kunlik kuyov»
- D) «Qo'sha qaringlar», «Baxtsiz kuyov»

562. Shuhratning «Oltin zanglamas» romani bosh qahramoni kim?

- A) Chuxanov
- B) Mirsalim
- C) Sodiq
- D) Saydullayev

563. «Oltin zanglamas» romani bosh qahramoni Sodiqning familiyasi ...

- A) Qo'chqorov
- B) Shukurov
- C) Saydullayev
- D) Abdurahmonov

564. «Oltin zanglamas» romanida «biridan kishining ko'ngii suv ichadi, ikkinchisidan ensang tosh qotadi» ifodalarda kimlar ta'riflangan?

- A) Qo'chqorov, Saydullayev
- B) Saydullayev, Shukurov
- C) Chuxanov, Pushkaryov
- D) Pushkaryov, Shukurov

565. «Oltin zanglamas» romanida «kishining ko'ngli suv ichadigan» tergovchi kim?

- A) Chuxanov
- B) Pushkaryov
- C) Shukurov
- D) Sokolov

566. «Oltin zanglamas» romanida «ensang tosh qotadigan» deb ta'riflangan tergovchi kim?

- A) Sokolov B) Chuxanov  
C) Pushkaryov D) Saydullayev

567. Shuhratning ilk asarlari qaysi janrda yozilgan?

- A) hikoya B) doston  
C) she'r D) ballada

568. «Oltin zanglamas» romanida «qorachadan kelgan, yuzlariga husnbuzar toshib ketgan novcha yigit» kim edi?

- A) Sodiq B) Shukurov  
C) Mirsalim D) Saydullayev

569. Sodiq kimning familiyasi noto'g'ri ekanligi, Samarqand shevasi sezilib turishi haqida ko'nglidan o'tkazadi («Oltin zanglamas»)?

- A) Shukurovning  
B) Saydullayevning  
C) Qo'chqorovning  
D) Abdurahimovning

570. Sodiqqa kim: «Bo'yningizga oling qo'ying-da, o'zingizni qiynab nima qilasiz, siz kuch bergan to'nka endi ko'karmaydi», – degan («Oltin zanglamas»)?

- A) Shukurov B) Saydullayev  
C) Chuxanov D) Pushkaryov

571. Sodiqni qamalgan Boltaquining o'ng qo'li sifatida ayblagan kim edi («Oltin zanglamas»)?

- A) Shukurov  
B) Mavjuda Abdurahmonova  
C) Mirsalim  
D) Saydullayev

572. Sodiq bir paytlar darsga ichib kelgani uchun dakki bergan qahramon kim edi («Oltin zanglamas»)?

- A) Saydullayev  
B) Mavjuda Abdurahmonova  
C) Qo'chqorov  
D) o'qituvchi Shukurov

573. Shukurov Sodiqqa qanday ayblar bilan tuhmat qiladi («Oltin zanglamas»)?

1. Qaldirg'ichni Makkayi mukarrama dan kelgan deyishda. 2. Taloq haqida odobsiz latifa aytishda. 3. Maishiy jihatdan buzilib, yosh xotinga uylanish, ochilgan xotin-qizlarni tahqirlashda. 4. Maktabda koridorda, Mavjuda Abdurahmonova nomzodi deputatlikka ko'rsatilganida «Fu kumat xotin-qizlarni erkaklar bilan tong qilaman deb bekor urinadi, yigirmata xotinning aqli bir tovuqnikicha yo'q. Bir ayolning g'iybati qirqta eshakka yuk bo'ladi» – deyishda.

- A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 4  
C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 3, 4

574. «Itning tili tekkani bilan, daryoning suvi harom bo'lmaydi» maqoli kimning tilidan aytilgan («Oltin zanglamas»)?

- A) Mirsalim B) Boltaquul  
C) Sodiq D) Shukurov

575. «Oltin zanglamas» romanida kimning o'zi aybiga iqrar ekanligi aytiladi?

- A) Sodiqning  
B) Boltaquining  
C) Saydullayevning  
D) Mirsalimning

576. Sodiqning Mirsalim, Shukurov kabi shaxslar tuhmatlari bilan ayblanishi romanning qaysi qismida keltirilgan («Oltin zanglamas»)?

- A) «Tuhmatchilar iqrori»  
B) «Barimta»  
C) «Haqiqatning yechilishi»  
D) «Ishonchga kirgan tuhmatchilar»

577. Asqad Muxtorning romanlarini aniqlang.

A) «Opa-singillar», «Zar qadri», «99 miniatyura»

B) «Samandar», «Opa-singillar», «Chinor»

C) «Opa-singillar», «Tug'ilish», «Davr mening taqdirimda», «Chinor», «Amu»

D) «Samandar», «Davr mening taqdirimda», «Yaxshilikka yaxshilik»

578. Asqad Muxtorning qissalarini aniqlang.

A) «Jar yoqasidagi chaqmoq», «Mardlik cho'qqisi»

B) «Buxoroning jin ko'chalari», «Jar yoqasida chaqmoq», «Zar qadri»

C) «Buxoroning jin ko'chalari», «Qoraqalpoq daftari»

D) «Davr mening taqdirimda»

579. A.Muxtor «To'qqizinchi palata» hikoyasida keitirgan epigraf ...

A) «Otning o'limi – itning bayrami»

B) «Odam deb o'lgan odam doim tirik»

C) «Nafing qancha bo'lsa – umring shuncha»

D) Har kimning tug'ilgan shahri – Misr shahri

580. «To'qqizinchi paiata» hikoyasi bosh qahramoni kim?

A) Ma'mura B) Alisher

C) Hoji buva D) Bahromov

581. Bahromovning yoshi nechada edi («To'qqizinchi palata»)?

A) 78 da B) 80 da

C) 63 da D) 67 da

582. Bahromovning palatadagi qo'sh-nisi kim edi («To'qqizinchi paiata»)?

A) Ergash buva

B) Hoji buva

C) Alisher

D) Mirahmad bobo

583. Bahromovning palatadagi qo'sh-nisi Hoji buvaning yoshi nechada edi («To'qqizinchi paiata»)?

A) 67 da B) 80 da

C) 78 da D) 88 da

584. Hoji buva va Bahromovga muolaja ko'rsatuvchi hamshira qizning ismi nima («To'qqizinchi paiata»)?

A) Ma'mura B) Ma'suma

C) Mavjuda D) Maftuna

585. «To'qqizinchi palata» hikoyasida qaysi qahramon «imonsiz chol» deb ta'riflanadi?

A) Bahromov

B) Alisherning bobosi

C) Hoji buva

D) Mirahmad bobo

586. Bahromovning nechta farzandi bor edi («To'qqizinchi paiata»)?

A) 2 qizi

B) 1 o'g'li

C) farzandi yo'q

D) 2 o'g'li

587. Bahromovning o'g'iilari taqdiri qanday kechgan («To'qqizinchi palata»)?

A) chet elga ketgan

B) ikkalasi ham urushda o'lgan

C) uyda

D) noma'lum

588. Hoji buvaning nevarasi kim edi («To'qqizinchi palata»)?

A) Alisher

B) Ergashvov

C) Hoshimjon

D) Azim

589. «To'qqizinchi paiata» hikoyasi-  
da kim Alisherni qutqarib qoladi?

- A) Bahromov B) Hoji buva  
C) Ergashvoy D) Ma'mura

590. Said Ahmadning «Ufq» trilogi-  
yasi qahramonlari ...

- A) Ikromjon, Nizom, Sharofat xola,  
Tursunboy...  
B) Ikromjon, To'lanboy, Nizom, Tog'a,  
Tursunboy...  
C) Jannat xola, Ikromjon, Nizom,  
Zaynab  
D) Tog'a, Ikromjon, Jannat xola, Ni-  
zom, Turob

591. «Ufq» romanida voqealar qaysi  
qishloqda bo'lib o'tadi?

- A) Shodasoy B) Zirillama  
C) Vodil D) Qumariq

592. «Ufq» romanida Ikromjon Ni-  
zomjonga qanday vazifani qilishni bu-  
yurganida u rozi bo'lmaydi?

- A) ovqat qilishni  
B) o'tin terishni  
C) kanaldan suv tashib kelishni  
D) bo'rini o'ldirishni

593. Nima sababdan Nizomjoni  
urushga olishmagan edi («Ufq»)?

- A) chap qo'ling cho'ltoq deb  
B) cho'loq deb  
C) bir barmog'ing yo'q deb  
D) yoshi yetmagani uchun

594. «Ufq» romanida Ikromjonning  
o'g'li qayerda vafot etgan edi?

- A) urushda B) to'qayzorda  
C) qullikda D) asirikda

595. «Ufq» romanida kimning o'g'li  
qo'rqoq chiqib urushdan qochadi?

- A) Tog'aning  
B) Rahimjonning

- C) Ikromjonning  
D) Madumarning

596. Nizomjon nima sababdan uyiga  
sig'maganligini aytadi («Ufq»)?

- A) o'gayligi uchun  
B) urushga olishmaganlari uchun  
C) otasi bilan urushgani uchun  
D) chap qo'li cho'ltoqligi uchun

597. Ikki bo'rini otish voqeasi qaysi  
asarda uchraydi?

- A) S.Ahmad «Ufq»  
B) A.Muxtor «Chinor»  
C) S.Ahmad «Qorako'z majnun»  
D) Ch.Aytmatov «Asirga tatigulik  
kun»

598. «Ufq» romanida Ikromjonning  
o'g'li bo'lishni xohlagan qahramon ...

- A) G'ulom B) Nizomjon  
C) To'lanboy D) Rahim

599. «Sizlardan qaysi biringiz o'z  
dinidan qaytsa va shu kofirlicha o'lsa,  
bas, ana o'shalarning (qilgan savobli)  
amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'za  
ahlidurlar va u yerda mangu qolarlar»  
«Baqara» surasida keltirilgan ushbu  
oyatlar qaysi asarda epigraf tarzida  
keltirilgan?

- A) S.Ahmad «Ufq»  
B) S.Ahmad «Qorako'z majnun»  
C) O'.Hoshimov «Bahor qaytmaydi»  
D) T.Malik «Alvido, boialik»

600. «Jannatga kiradigan o'n nalu  
hayvondan biri bu «As'hobi kahf»ning va-  
fodor itidir». Hadisi sharifdan keltirilgan  
ushbu parcha qaysi asarda epigraf tar-  
zida keltirilgan?

- A) O'.Hoshimov «Bahor qaytmaydi»  
B) T.Malik «Alvido, boialik»  
C) Shuhrat «Jannat qidirganlar»  
D) S.Ahmad «Qorako'z majnun»

601. Said Ahmadning «Qorako'z majnun» hikoyasi bosh qahramoni kim?

- A) Qumri B) Saodat aya  
C) Sharofat aya D) Jannat xola

602. Saodat ayaning turmush o'rtog'i necha yil oldin vafot etgan edi («Qorako'z majnun»)?

- A) 5 yil oldin B) 3 yil oldin  
C) 2 yil oldin D) 4 yil oldin

603. Saodat ayaning turmush o'rtog'i kim («Qorako'z majnun»)?

- A) To'lanboy B) Abdumalik  
C) Rahmon D) Turob

604. Saodat ayaning o'ris shaharlarida daydib qolib ketgan o'g'li kim edi («Qorako'z majnun»)?

- A) Bo'rixon B) Abdumalik  
C) Anvar D) Nizom

605. Saodat aya kimning yo'lini ochishi uchun Allohga iltijo qiladi («Qorako'z majnun»)?

- A) qizi Dilbarning  
B) qo'shni qizning  
C) qizi Qumrining  
D) Asporaning

606. «Sochlari taqimini o'pard. Taraganida shamshod taroq ushlagan qo'llari sochining uchigacha yetmasdi. Yarmini qismlab turib bu yog'ini tarardi». Bu yerda kim ta'riflangan («Qorako'z majnun»)?

- A) Qumri B) Saodat aya  
C) Abdumalik D) Rahmon

607. Saodat aya sochlarining uchiga nimani taqib yurardi («Qorako'z majnun»)?

- A) tangani  
B) o'g'ri tutar sandiqning kalitini  
C) ziraklarini  
D) medalni

608. Sandiqlar urfdan chiqqanidan so'ng Saodat aya sochlarining uchiga nimani taqib yuradigan bo'ldi («Qorako'z majnun»)?

- A) kalitlarni  
B) tangalarni  
C) erining frontdan olib kelgan og'irgina medalini  
D) ziraklarini

609. «Qorako'z majnun» hikoyasida itning (Qorako'z) tashqi ko'rinishi qanday tasvirlangan?

A) rangi oppoq, kichkinagina, belida 2 ta – biri qora, biri oq chizig'i bor. Tumshug'i bilan ikki ko'zi qop-qora. Bir ko'zining yonida to'mtoq qoshi bor

B) rangi oppoq, kichkinagina, belida 2 ta – biri qora, biri jigarrang chizig'i bor. Tumshug'i bilan ikki ko'zi qop-qora. Bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi ham bor

C) rangi qora, kichkinagina, belida 2 ta – biri oq, biri jigarrang chizig'i bor. Tumshug'i bilan ikki ko'zi qop-qora. Bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi ham bor

D) rangi oppoq, kichkinagina, belida 2 ta – biri qora, biri jigarrang chizig'i bor. Tumshug'i bilan ikki ko'zi jigarrang. Bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi ham bor

610. Saodat ayaning o'g'li Bo'rixon qachon armiyaga ketgan edi («Qorako'z majnun»)?

- A) 1967-yili B) 1969-yili  
C) 1966-yili D) 1969-yili

611. «Qorako'z majnun» hikoyasida ikki bora turmushga chiqib, farzandi bo'lmay qaytib kelgan obraz ...

- A) Dilbar B) Anora  
C) Qumrixon D) Zebi



612. Kim Saodat ayanning o'g'li Bo'rixonning daragini topib keiadi («Qorako'z majnun»)?

- A) Saodat ayanning nevarasi Anvar
- B) Saodat ayanning nevarasi Abunabi
- C) Saodat ayanning o'g'li Abdulmalik
- D) Saodat ayanning qo'shnisi Rahmon

613. «Qorako'z majnun» hikoyasida uchta bolasi, bitta sog'in echkisi, to'rtta qanor qopdek cho'chqasi, o'ntacha cho'chqachalari bor qahramon kim?

- A) Abdulmalik
- B) Bo'rixon
- C) Sattor
- D) Rahmon

614. Bo'rixonni o'risda qaysi nom bilan atashardi («Qorako'z majnun»)?

- A) Valodiya
- B) dyadya Borya
- C) Borosov
- D) dyadya Kolya

615. Birovga so'zini bermaydigan erayim kampir qaysi asar qahramoni ...

- A) O'. Umarbekov «Sovg'a»
- B) S. Ahmad «Qorako'z majnun»
- C) O'. Hoshimov «Urushning so'nggi qurboni»
- D) A. Qodiriy «Mehrobdan chayon»

616. Saodat ayanning domda turadigan, itdan hazar qiladigan farzandi kim edi («Qorako'z majnun»)?

- A) Qumri
- B) Dilbar
- C) Abdulmalik
- D) Anvar

617. Bo'rixonning yoshi nechada («Qorako'z majnun»)?

- A) 52 da
- B) 50 da
- C) 55 da
- D) 51 da

618. Bo'rixonning kelganiga qo'y so'yish maqsadida chaqirilgan qassob kim («Qorako'z majnun»)?

- A) Turab qassob
- B) Rahmon qassob
- C) Rahimqul qassob
- D) Anvar qassob

619. Saodat aya va turmush o'rtog'i qaysi farzandi uchun 6 yoshligida Turkistonga borib hazrat Yassaviy maqbarasining shayxiga ataganlarini borib kokillarini kesdirishgan, qo'y so'yib xudoyi berishgan («Qorako'z majnun»)?

- A) Bo'rixon uchun
- B) Qumri uchun
- C) Abdulmalik uchun
- D) Dilbar uchun

620. Bo'rixon kimning qiziga oshiq bo'ladi («Qorako'z majnun»)?

- A) dehqonning qiziga
- B) bog'bonning qiziga
- C) o'rmon ichkarisidagi qishloq bolaxonasi qo'ng'iroqchisining erdan qolgan qiziga
- D) harbiy qism boshlig'ining qiziga

621. Bo'rixon qanday ish bilan shug'ullanar edi («Qorako'z majnun»)?

- A) dehqon
- B) bog'bon
- C) harbiy
- D) cherkov qo'ng'iroqchisi

622. «1970-yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi...» Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

- A) Tohir Malik «Shaytanat»
- B) S. Ahmad «Qorako'z majnun»
- C) S. Ahmad «Ufq»
- D) A. Muxtor «Chinor»

623. Bo'rixon xristian qiziga uylantirish uchun qanday shartga rozi bo'ldi («Qorako'z majnun»)?

- A) uydagilardan voz kechishga
- B) yurtiga qaytib kemaslikka
- C) xristian diniga kirishga
- D) urushga borishga

624. «Qorako'z majnun» hikoyasida sariq baxmalga o'ralgan narsa nima edi?

- A) tumor      B) «Injil»  
C) «Qur'on»    D) xotinning rasmi

625. Saodat aya nimalarni hovliga olib chiqib yoqib yuboradi («Qorako'z majnun»)?

- A) eski buyumlarini  
B) o'g'li Bo'rixonning bolaligidagi kiyimlarini  
C) o'g'li Bo'rixonning bolaligidagi o'yinchoqlarini  
D) o'g'li Abdumaiikning bolaligidagi kiyimlarini

626. Saodat ayaning o'limi oididan eshitgan xushxabari nima haqida edi («Qorako'z majnun»)?

- A) Bo'rixonning shu yerda bir umr qolishi  
B) Qumrining farzandli bo'lishi  
C) Anvarning o'qishga kirgani  
D) uning «Hoji badal» bo'lganligi haqidagi xabar

627. Saodat aya o'limi oididan kimni hovlida uyantirishlarini, Qumri bilan shu hovlida yashashi haqidagi vasiyatini aytadi («Qorako'z majnun»)?

- A) Anvarni      B) Abdunabini  
C) Abdumaiikni    D) Abdurahmonni

628. Bolalaridan ikkitasi Toshkentda, bittasi Chirchiqda, ikkitasi Qibrayda yashaydigan, tong otgandan to kun botguncha hammasining uyiga borib keladigan kampir qaysi asar qahramoni?

- A) A.Muxtor «Chinor»  
B) Said Ahmad «Qorako'z majnun»  
C) O'.Umarbekov «Sovg'a»  
D) O'.Hoshimov «Urushning so'nggi qurboni»

629. «Qorako'z majnun» hikoyasi qachon yozilgan?

- A) 1997-yili      B) 1998-yili  
C) 1999-yili      D) 1996-yili

630. O.Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi» romanida Ulug'bek Ali Qushchiga ko'rsatgan xazinaning qayerdan keltirilganini aytadi?

- A) Bag'dod      B) Qohira  
C) Misr          D) A va B

631. «Ulug'bek xazinasi» romanida Ulug'bek Ali Qushchiga xazinadan qancha olishini aytadi?

- A) ikki xalta      B) bir xaita  
C) uch xalta      D) to'rt xalta

632. «Ulug'bek xazinasi» romanida «nogiron, qalbi majruh» deb ta'riflangan qahramon ... («Ulug'bek xazinasi»)

- A) Abdullatif      B) Abduiaziz  
C) Ali Qushchi    D) Amir Arslon

633. Ulug'bek Ali Qushchiga tilia berib, uni tangaga almashtirish uchun kimga murojaat qilihini aytadi («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) Muhiddin zargar  
B) Kamoliddin zargarga  
C) Fazliddin zargarga  
D) Salohiddin zargarga

634. Salohiddin zargarning o'g'li kim edi («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) Muhiddin      B) Salohiddin  
C) Majiddiddin    D) Fasihiddin

635. Ulug'bek xazina bo'yicha bu mushkul ishda suyangan tog'lari sifatida kimiarni ta'kidlaydi («Ulug'bek xazinasi»)?

- A) Ali Qushchi, amir Arslon  
B) Ali Qushchi, mavlono Salohiddin  
C) Ali Qushchi, mavlono Muhiddin  
D) Amir Arslon, mavlono Muhiddin

636. Ulug'bekning o'rnida Samarqandda qolganida sarkardalarga ta'ziy qo'tkazgan, amir Ibrohimbek o'g'lini qatl qildirib, barcha lashkarboshilarni Ulug'bekka qarshi qo'ygan qahramon kim («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) mavlono Muhiddin
- B) amir Arslon
- C) Abdulaziz
- D) Abdullatif

637. Ali Qushchining peshonasidan o'qgan nimjonga oppoq chol kim edi («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) Sakkokiy
- B) Qozizoda Rumi
- C) Shamsiddin Somiy
- D) Atoyi

638. Ulug'bekning suyuqli navkari ... («Ulug'bek xazinasini»)

- A) amir Arslon
- B) amir Kamoliddin
- C) Bobo Husayn Bahodir
- D) amir Muhiddin

639. «Ulug'bek xazinasini» romanida Kesh dorug'asi kim?

- A) Bobo Husayn Bahodir
- B) amir Muhiddin
- C) amir Kamoliddin
- D) amir Jondor

640. «Cherik» so'zining ma'nosi ...

- A) dushman
- B) lashkar
- C) askar
- D) dubulg'a

641. Fuqaro orasida lashkar yig'ish fikri kimdan chiqadi («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) Bobo Husayn Bahodirdan
- B) amir Arslondan
- C) amir Kamoliddindan
- D) Ali Qushchidan

642. Shohrux mirzoni chalg'itish sa'yidlarini qatl qildirgan, nevarasi Abduddavla bilan Abdullatifni bir-biriga qayragan, Mirzo Ulug'bekka «shohi sharab» degan nom taqib Abdullatifni qayragan solgan qahramon kim edi («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) Xonzodabegim
- B) Gavharshodbegim
- C) Zuhrobegim
- D) Guibadanbegim

643. Abdullatif qo'shilib qolgan naqshbandiylik jamoasining rahnamosi kim edi («Ulug'bek xazinasini»)?

- A) Nizomiddin Xomush
- B) Abdulaziz
- C) Xoji Miskin
- D) Sayid Abbos

644. O.Yoqubovning avtoblografik hikoyasi qaysi?

- A) «Boialik»
- B) «Alvido, bolalik»
- C) «Dastlabki qadam»
- D) «Muzqaymoq»

645. «Muzqaymoq» hikoyasida muallif o'zining necha yoshda ekanligini aytadi?

- A) 8 yosh
- B) 10 yosh
- C) 12 yosh
- D) 11 yosh

646. «Muzqaymoq» hikoyasida muallif otasi kitoblarni qayerga yashirganligini aytadi?

- A) omborxonaga
- B) sandiq ichiga
- C) shkaf orqasiga
- D) boloxonaga, beda tagiga

647. «Muzqaymoq» hikoyasida muallifning otasi kim?

- A) Xudoyberdi Jaqipov
- B) Egamberdi Jaqipov

- C) Odil Jaqipov  
D) Murodil Yoqubov

648. «Muzqaymoq» hikoyasida muallifning opasi va pochchasi qaysi kasb bilan shug'uilanar edi?

- A) xat tashuvchilik  
B) o'qituvchilik  
C) yozuvchilik  
D) shifokorlik

649. «Muzqaymoq» hikoyasida keltirilgan Yoqub shayx kim?

- A) mehmonlardan biri  
B) muallifning otasi  
C) muallifning buvasi  
D) partiya kotibi

650. «Muzqaymoq» hikoyasida Egamberdi Jaqipov katta lavozimlarda ishlagan paytida orttirgan nodir matoh nima edi?

- A) sandiq B) kitoblar  
C) avtoruchka D) grafin

651. «Muzqaymoq» hikoyasida muallif grafinni qayerda sindirib qo'yadi?

- A) mahallada yiqilib sindiradi  
B) mol bozoridan o'tayotganida temir qoziqqa tegib sinadi  
C) bozorda qo'lidan tushib sinadi  
D) qo'shnikida qo'shni bola sindirib qo'yadi

652. «Muzqaymoq» hikoyasida muallifning onasi kim?

- A) Gulnor B) Nigora  
C) Saodat D) Gulshan

653. «Muzqaymoq» hikoyasida shkaf oshigini ochishda qiynalayotgan kaptanga shkafni mix bilan ochib bergan kim edi?

- A) partiya kotibi  
B) pochchasi

- C) Egamberdining xotini  
D) muallif

654. «Muzqaymoq» hikoyasida «xudoning o'zi asragan» qahramon kim edi?

- A) mehmonlardan biri  
B) muallifning pochchasi  
C) Egamberdining qizi  
D) partiya kotibi

655. «Muzqaymoq» hikoyasida kim yarim chelak suvni ichib qo'yadi?

- A) Egamberdi Jaqipov  
B) Gulshan  
C) muallif  
D) muallifning pochchasi

656. «Muzqaymoq» hikoyasida Egamberdi Jaqipov to'yida to'yboshi bo'lgan, moddiy yordam bergan qahramon ...

- A) mehmonlardan biri  
B) qo'shnisi (shahar yoshlar qo'mitasi kotibi)  
C) kuyovi  
D) qo'shni harbiy yigit

657. «Muzqaymoq» hikoyasida «qashgirdan tug'ilgan qashqircha» degan so'zni kimga aytgan?

- A) mehmonlar  
B) qo'shnisi (shahar yoshlar qo'mitasi kotibi)  
C) uchburchak soqol qo'ygan, jikkakina mo'ysafid  
D) harbiy

658. «Muzqaymoq» hikoyasida daftarning old muqovasiga rasmi bosilgan jinjalaksoch, habashchehra shoir kim edi?

- A) Tolstoy B) Pushkin  
C) Lermontov D) Nekrasov

659. «Muzqaymoq» hikoyasida muallifga avvaliga o'qrayib, keyinchalik pochchasi qamalanganidan so'ng achi-nib qaraydigan qahramon kim?

- A) partiya kotibi
- B) harbiy
- C) pochchasi
- D) tatar yigit (o'qituvchi)

**660. «Muzqaymoq» hikoyasida kimlarga ota bilan (Egamberdi Jaqipov) vidolashishiga ruxsat berishadi?**

- A) oyisiga, pochchasiga, bolaga
- B) oyisiga, katta opasiga, bolaga
- C) oyisiga, pochchasiga, katta opasiga
- D) faqat oyisiga

**661. «Muzqaymoq» hikoyasida bolaning oyisi otasiga qancha miqdorda pul olib boradi?**

- A) 60 so'm      B) 40 so'm
- C) 50 so'm      D) 55 so'm

**662. «Muzqaymoq» hikoyasida ota nima uchun bolaga onasi olib kelgan 5 so'mni beradi?**

- A) kitob olish uchun
- B) muzqaymoq olish uchun
- C) teatrga borish uchun
- D) parkka borish uchun

**663. P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida Boburning maxsus taklifi bilan kimlar Hirotidan Agraga keladilar?**

- A) mavlono Xondamir, Abdulla kitobdor, shoir Shihob Muammiy
- B) mavlono Xondamir, shoir Shihob Muammiy, mudarris Ibrohim
- C) mavlono Xondamir, Abdulla kitobdor, mudarris Ibrohim
- D) mavlono Xondamir, shoir Shihob Muammiy

**664. «Badraqa» so'zining ma'nosi ...**

- A) mayda xarajatlarni uchun beriladigan mablag'
- B) qaroqchilarni tugatilmagan, tartib o'rnatilmagan qishloqlardan o'tkazib qo'y-

yish uchun maxsus tuzilgan ikki yuz-uch yuz kishidan iborat qo'riqchi askarlar

- C) tushunib bo'lmaydigan
- D) mukofot

**665. «Ulufa» nima?**

- A) mayda xarajatlarni uchun beriladigan mablag'
- B) tushunib bo'lmaydigan
- C) mukofot
- D) tizim

**666. «Yulduzli tunlar» romanida quyisi voqeadan keyin Boburni yon-atrofdagi podshohlar tan olib elchilar jo'natib boshlashadi?**

- A) Dehlida Ibrohim Lo'diy bilan bo'lgan jangda g'alaba qozonganidan keyin
- B) Agrada Rano Sango bilan bo'lgan jangda g'alaba qozonganidan keyin
- C) Sekrida Rano Sango bilan bo'lgan jangda g'alaba qozonganidan keyin
- D) Kobulda Ibrohim Lo'diy bilan bo'lgan jangda g'alaba qozonganidan keyin

**667. «Yulduzli tunlar» romanida quyituyaning zar uqaii kajavasida parvarishlab olib kelingan 2 ta cherkas qiz Boburga kim tomonidan jo'natilgan edi?**

- A) Ko'nkinchixon
- B) Shayboniyxon
- C) Abdullaxon
- D) Shoh Taxmasp

**668. Boburga Samarqandning soyakl mayizlaridan, Konibodomning subhoni o'riklaridan, Buxoroning o'tkir maylaridan, Movarounnahrning noyob nematlaridan yetti tuyaga sovg'a-salom yuklab, yoniga ikki yuz otni ham tortiq qilgan shoh kim («Yulduzli tunlar»)?**

- A) Shayboniyxon
- B) Ko'chkinchixon

- C) Abdullaxon
- D) Shoh Taxmasp

669. Tamg'a qanday soliq («Yulduzli tuniar»)?

- A) dehqonlardan olinadigan soliq
- B) daviat amaldorlaridan olinadigan soliq
- C) qo'shimcha daromad soliq
- D) savdogarlardan olinadigan soliq

670. Ko'chkinchixonning elchisiga Boburning chiqargan qaysi farmoni yoqmaydi («Yulduzli tuniar»)?

- A) juzva solig'ini bekor qilishi
- B) tamg'a solig'ini bekor qilishi
- C) mamlakatda may ichishning taqiqlanishi
- D) mamlakatga may olib kelishni taqiqlashi

671. Xondamir kimlarni ichkilik balosi xarob qilganini eslaydi («Yulduzli tuniar»)?

- A) ukasi Jahongir mirzoni
- B) Husayn Boyqaro va uning o'g'illarini
- C) Mirzo Ulug'bek va uning o'g'li Abdullatifni
- D) Sulton Mahmudxon va uning o'g'illarini

672. «Botil» so'zining ma'nosi?

- A) o'zga
- B) xavf
- C) dushman
- D) adashish

673. Boburning hiroatlik xos tabibi kim edi («Yulduzli tuniar»)?

- A) Amiriy
- B) Muammiy
- C) Yusufiy
- D) Yunusiy

674. Xondamir «Habib us-siyar»ni qancha muddatda yozganini aytadi («Yulduzli tuniar»)?

- A) 13 yilda
- B) 10 yilda
- C) 11 yilda
- D) 12 yilda

675. Xondamirning Arabiston, Eron, O'rta Osiyo, Xuroson tarixining olam paydo bo'lganidan to XVI asrgacha bo'lgan muhim davrlari haqida so'z yuritadigan kitobi qanday nomlanadi («Yulduzli tuniar»)?

- A) «Bahoriston»
- B) «Habib us-siyar»
- C) «Tuhfat ul-ahror»
- D) «Sabhat ul-abror»

676. «Habib us-siyar» o'zbek tilida qanday ma'noni anglatadi?

- A) «Yaxshi kishilarning hayratlanishi»
- B) «Yaxshiliklar tuhfası»
- C) «Sevimli do'stning tarjimai holi»
- D) «Nurlarning boshlanmasi»

677. Bobur nimaning «ichdan ko'tarilib o'sib boruvchi tog'dek tuyulishi»ni aytadi («Yulduzli tuniar»)?

- A) Hindistonni
- B) Agrani
- C) Kobuini
- D) Agrani

678. Boburning kutubxonasida necha kishi ishlar edi («Yulduzli tuniar»)?

- A) 60 kishi
- B) 50 kishi
- C) 55 kishi
- D) 40 kishi

679. Bobur Xondamirga yordam berishi uchun qaysi kitobdorni birliktiradi («Yulduzli tuniar»)?

- A) Shihob Muammiy
- B) Abdulla kitobdor
- C) Lutfulla kitobdor
- D) Ibrohim Qonuniy

680. Bobur nima sababdan Xondamirga «Boburnoma» qo'lyozmalarini berishga tortinadi («Yulduzli tuniar»)?

- A) uning o'qishini xohlamaganligi uchun
- B) o'tgan yozda qattiq shamol turib yomg'ir aralash dovul qo'lyozma varaq-

larini uchirib ketgan, qo'lyozma boblarini dovl halok qilgan, ularni tiklashga ulgurmagani uchun

C) davlat ishlari bilan band bo'lganligi uchun

D) tugallagandan so'ng bermoqchi bo'lganligi uchun

**681. Bobur tomonidan «Boburnoma» qaysi nom ostida aytilgan?**

A) «Muxtasar»

B) «Mubayyin»

C) «Xatti Boburiy»

D) «Vaqoye»

**682. «Xat bitirda takalluf qilay deysan, ul jihattin mug'laq bo'ladir. Betakalluf pok alfoz bila biti, senga ham tashvish oz bo'lur». «Vaqoye»da keltirilgan bu parcha Boburning kimga yozgan maktubidan olingan?**

A) Mohimbegimga

B) Dildorbegimga

C) Gulbadanbegimga

D) Humoyunga

**683. «Mug'laq» so'zining ma'nosi ...**

A) shiypon

B) tushunib bo'lmaydigan

C) mukofot

D) tilsiz

**684. «Vaqoye»ning oxirgi boblarida Boburning kimga yozgan maktubi keltirilgan?**

A) Humoyunga

B) Agradan Mohimbegimga yozgan maktubi

C) Gulbadanbegimga

D) Dildorbegimga

**685. «Kim o'lar holatga yetsa, Ul bilur jon qadrini». Bu misralar «Vaqoye»ning qaysi qismidan olingan?**

A) Agradan Mohimbegimga yozgan maktubi tafsilotlaridan

B) Humoyunga yozgan maktubi tafsilotlaridan

C) zaharlanish tafsilotlaridan

D) jang tafsilotlaridan

**686. «Hamma tomonidan qabul qilingan davr uslubining qonunlarini buzib chiqib, o'z hayoti haqida shunday erkinlik va rostgo'ylik bilan asar yozish hech kimga qaram emasligi tufayli emasmi?» Ushbu fikr qaysi asar uslubi haqida?**

A) «Humoyunnoma»

B) «Boburnoma»

C) «Haqiqatnoma»

D) «Sadoqatnoma»

**687. «Hamma tomonidan qabul qilingan davr uslubining qonunlarini buzib chiqib, o'z hayoti haqida shunday erkinlik va rostgo'ylik bilan asar yozish hech kimga qaram emasligi tufayli emasmi?» Ushbu fikr kimga tegishli («Yulduzli tuniar»)?**

A) Boburga

B) Abdulla kitobdorga

C) Shihob Muammiyga

D) Xondamirga

**688. «Botil» so'zining ma'nosi ...**

A) taxta, stol

B) qalbaki yo'ldan borish, adashish

C) yovuz, yomon

D) qorong'u

**689. Kim «Boburnoma»ning turkly tilda bitilgan eng ulug' nasriy asari bo'lishini bashorat qilgan?**

A) Abdulla kitobdor

B) Shihob Muammiy

C) Ibrohim Qonuniy

D) Xondamir

**690. «Yulduzli tuniar» romanida kim o'z hayotini ko'chki bosgan buloqqa o'xshatadi?**

- A) Xondamir    B) Bobur  
C) Humoyun    D) Abdulla kitobdor

**691.** «Zo'r iste'dodlar o'lmas buloqiar-ga o'xshar ekanlar. Ularning ko'zini o'n joyda bekitsalar, o'n birinchi joydan yana yorib chiqar ekanlar». Bu fikr kimga tegishli («Yulduzli tunlar»)?

- A) Mir Vafoga  
B) Xondamirga  
C) Muhammad ibn Arabshohga  
D) Boburga

**692.** Aruz va barmoq vaznida birdek ijod qilib kelayotgan shoir kim?

- A) Mirtemir  
B) Abdulla Oripov  
C) Erkin Vohidov  
D) G'afur G'ulom

**693.** E.Vohidov kimning asarlaridan parchalar tarjima qilgan?

- A) I.V.Gyote, Pushkin, R.Hamzatov  
B) Balzak, S.Yesenin, R.Hamzatov  
C) I.V.Gyote, S.Yesenin, R.Hamzatov  
D) Bayron, Pushkin, R.Hamzatov

**694.** E.Vohidovning «O'zbekim» qasidasi necha baytdan iborat?

- A) 26 bayt    B) 25 bayt  
C) 28 bayt    D) 24 bayt

**695.** «Kavkabiston» so'zining ma'nosi ...

- A) qorong'u  
B) tiniq, yulduzlari charaqlab turgan osmon  
C) davlat  
D) nur sochuvchi quyosh

**696.** «Mahzun» so'zining ma'nosi ...

- A) g'am  
B) g'amgin, qayg'uli  
C) jannat  
D) qorong'u

**697.** «Afg'on» so'zining ma'nosi ...

- A) g'amdan nola qiluvchi, faryod chekuvchi  
B) g'amgin, qayg'uli  
C) fitna qiluvchi  
D) qorong'u

**698.** «Tiyra» so'zining ma'nosi ...

- A) qisqa    B) qorong'u  
C) g'amgin    D) fitna qiluvchi

**699.** E.Vohidovning «O'zbekim» qasidasida Pushkin tiiga olingan baytda yana kimlar eslangan?

- A) Furqat, Firdavsiy  
B) Bobur, Mashrab  
C) Bayron, Navoiy  
D) Bayron, Firdavsiy

**700.** «Fatton» so'zining ma'nosi ...

- A) ustunlar, tayanchlar  
B) fitna qiluvchi  
C) fanlar  
D) dono

**701.** «Chuqz» so'zining ma'nosi ...

- A) chumchuq  
B) zog'  
C) to'ti  
D) boyqush, boyo'g'li

**702.** «Gardon» so'zining ma'nosi ...

- A) aylanadigan  
B) ketadigan  
C) fitna qiluvchi  
D) o'ylamoq

**703.** E.Vohidovning «Inson» qasidasida necha baytdan iborat?

- A) 26 bayt    B) 24 bayt  
C) 25 bayt    D) 22 bayt

**704.** «Inson» qasidasida radif sifatida kelgan so'z qaysi?

- A) «o'zga»    B) «o'zingdin»  
C) «o'zing»    D) «bor emish»



705. «Funun» so'zining ma'nosi ...

- A) kitoblar
- B) ustun, tayanchlar
- C) fitna qiluvchi
- D) fanlar

706. «Arkon» so'zining ma'nosi ...

- A) ustunlar, tayanchlar
- B) davlat
- C) narsa, buyum
- D) fanlar

707. «Rizvon» so'zining ma'nosi ...

- A) fanlar
- B) jannat
- C) g'am uyi
- D) ustunlar, tayanchlar

708. E.Vohidovning she'rlari ...

A) «O'zbekiston», «O'lmas edi, balki, odamzod», «Nega yapon yuz yil yashar...», «Dangasalar»

B) «Yaxshidir achchiq haqiqat», «O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa», «O'lmas edi, balki, odamzod», «Nega yapon yuz yil yashar...», «Dangasalar»

C) «O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa», «Odamlar», «Oqsoqol», «Dangasalar»

D) «Nega yapon yuz yil yashar...», «Dangasalar», «Munojotni tinglab»

709. E.Vohidov nima bo'lsa, «paytavaning salia bo'lgani shudir» deydi?

- A) o'zbek Atoyini o'qimay qo'ysa
- B) o'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa
- C) kitob o'qimay qo'ysa
- D) mehnat qilmay qo'ysa

710. E.Vohidov «O'lmas edi, balki, odamzod» she'rida qachon odamzod dunyoga ustun bo'lishi mumkinligini aytadi?

- A) aqli jahlidan ziyod bo'lsa, sabri nafsidan ustun bo'lsa

- B) Navoiyni o'qisa
- C) g'amsiz yashasa
- D) o'zligini anglasa

711. E.Vohidov «O'lmas edi, balki, odamzod» she'rida odamni nima o'ldiradi deydi?

- A) nafs
- B) jahl
- C) g'am
- D) ayriliq

712. E.Vohidov yapon yuz yil yashashini, o'zbek buncha yashay olib masligini qanday izohlaydi?

- A) g'ami ko'pligi sabab
- B) o'zbeklarning sahar turib oshiqqa borishi bilan
- C) dunyo tashvishini yelkalab olgani sabab
- D) barchasi

713. E.Vohidov «Dangasa» she'rida shoir bo'lganini qanday izohlaydi?

- A) qiziquvchanligidan
- B) dangasaligidan
- C) havas qilganidan
- D) tasodifan

714. S.Yesenin singlisi Shuragan atab yozgan she'ri qanday nomlanadi?

- A) «Ona ibodati»
- B) «Xurosonda bir darvoza bor»
- C) «Bu dunyoda men bir yo'lovchi...»
- D) «Shahinam, o', mening Shahinam»

715. S.Yesenin «Ona ibodati» she'rida qanday g'oya ilgari surilgan?

- A) onaning iztiroblari, xo'jayini tomonidan olib ketilgan bolalarini qidirayotgan ona it iztiroblari
- B) onaning urushga ketgan, Vatani uchun jang qilayotgan o'g'li uchun qilayotgan ibodati
- C) Vatan sog'inchi, hissi
- D) ustozlar o'g'iti

716. S.Yeseninning «lt haqida doston» she'rida ona it nechta kuchukni dunyoga keltiradi?

- A) 4 ta
- B) 5 ta
- C) 3 ta
- D) 7 ta

717. «lt haqida doston» she'rida qanday g'oya ilgari surilgan?

A) onaning iztiroblari, xo'jayini tomondan olib ketilgan bolalarini qidirayotgan ona it iztiroblari

B) onaning urushga ketgan, Vatan uchun jang qilayotgan o'g'li uchun qilayotgan ibodati

- C) Vatan sog'inchi, hissi
- D) ustozlar o'g'iti

718. «Ikkimiz ham shu sevgi bilan Shu vatanga qo'yganimiz ko'ngil».

Misralar S.Yeseninning qaysi she'ridan olingan?

- A) «Xurosonda bir darvoza bor»
- B) «Ona ibodati»
- C) «Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan»
- D) «Bu dunyoda men bir yo'lovchi...»

719. S.Yeseninning «Shahinam, o', mening Shahinam» she'ri qanday shaklda yozilgan?

- A) murabba
- B) musallas
- C) beshlik (muxammas)
- D) musabba

720. «Shahinam, o', mening Shahinam» she'rida bir necha marotaba takror holda kelgan misra ...

- A) «Shahinam, o', mening Shahinam»
- B) «Oy nur sepgan boshloqlardan ham»
- C) «Dalalarda so'ylaymi senga?»
- D) «Yana tushdi rus sari yo'lim»

721. Shahi obrazl Yeseninning qaysi she'rida keltirilgan?

- A) «Ona ibodati»
- B) «Bu dunyoda men bir yo'lovchi»
- C) «Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan»
- D) «Xurosonda bir darvoza bor»

722. *Yana tushdi Rus sari yo'lim, Eron, sendan ketgumdir hali.*

Misralar Yeseninning qaysi she'ridan olingan?

- A) «Bu dunyoda men bir yo'lovchi»
- B) «Xurosonda bir darvoza bor»
- C) «Ona ibodati»
- D) «Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan»

723. A.Oripovning she'rlari ...

1. «Odamlar».
2. «Bola edim...».
3. «Dorboz».
4. «Temir odam».
5. «Tilla baliqcha».
6. «Onajon».
7. «Men anglab yetgan haqiqat».
8. «Genetika».
9. «Sen bahorni sog'inmadingmi?».
10. «Men nechun sevaman O'zbekistonni?».
11. «Munojotni tinglab».
12. «Birinchi muhabbatim».
13. «O'zbekiston».

- A) 1, 6, 8, 10, 12, 13
- B) barchasi
- C) 2, 3, 4, 6, 8, 13
- D) 1, 5, 7, 9, 11, 12

724. «Ajrailishar ular, hattoki Ismlarin so'rashmaslar ham.

*Ular qayta uchrashar, balki, Balki, qayta uchrashmaslar ham...»*

Bu misralar A.Oripovning qaysi she'ridan olingan?

- A) «Odamlar»
- B) «Genetika»
- C) «Temir odam»
- D) «Sen bahorni sog'inmadingmi?»

725. A.Oripov dunyo dahshatlaridan bekinishi mumkinligini, lekin inson

**o'zidan bekina olmasligini qaysi she'ri-  
da aks ettirgan?**

- A) «Men anglab yetgan falsafa»
- B) «Odamlar»
- C) «Dorboz»
- D) «Bola edim...»

**726. A.Oripovning qaysi she'rida ro-  
botlar haqida fikr boradi?**

- A) «Bola edim...»
- B) «Temir odam»
- C) «Tilla baliqcha»
- D) «Odamlar»

**727. «Bor shunday g'ariblar – temirlar  
hissiz». Misrada A.Oripov kimlarni tas-  
virlagan?**

- A) hayvonlar    B) manqurtlarni
- C) insonlarni    D) yulduzlarni

**728. A.Oripovning «Tilla baliqcha»  
she'ri qachon yozilgan?**

- A) 1966-yili    B) 1967-yili
- C) 1965-yili    D) 1964-yili

**729. A.Oripov «Tilla baliqcha» she'ri-  
da tilla baliqchani nimanı dunyo deb  
bilishidan azoblanadi?**

- A) qorni to'yishini
- B) o'zi yashaydigan ko'lmak hovuzni
- C) atrofıdagi do'stlarini
- D) tashqari dunyoni

**730. A.Oripovning «Onajon» she'ri  
kimga bag'ishlangan?**

- A) shoirning onasi Robiyabibiga
- B) shoirning onasi Qorasoch momoga
- C) shoirning onasi Turdi Karvon qi-  
ziga
- D) shoirning onasi Turg'un Karvon  
qiziga

**731. «Onajon» she'ri qaysi misralar  
bilan boshlanadi?**

- A) Necha kunki yo'q oromim,  
Kelolmayman hushimga.

Onajonim kechalari  
Kirib chiqar tushimga

- B) Dilda neki jur'atim bor,  
Dilda neki hayajon,  
Bari-bari senga bo'lsin,  
Senga bo'lsin, onajon

- C) Esimdadir, titrar edim  
G'amgin, bolish ostidan  
Kitobimni ko'rdim nogoh  
Boshginangni ostida

- D) Tushlarimda, mayli, boshim  
Silab turgin, onajon.  
Qolganlarga endi umr  
Tilab turgin, onajon

**732. A.Oripov qaysi she'rida dunyo-  
ni bozorga o'xshatadi?**

- A) «Odamlar»
- B) «Men anglab yetgan falsafa»
- C) «Temir odam»
- D) «Tilla baliqcha»

**733. «Men anglab yetgan falsafa»  
she'rining hajmi ...**

- A) 3 misra    B) 2 misra
- C) 5 misra    D) 4 misra

**734. Ohu bolasi bu – ohuday boqqan,  
Sherbachchada esa sherning shiddati.**

**Misralar A.Oripovning qaysi she'ri-  
dan olingan?**

- A) «Genetika»
- B) «Temir odam»
- C) «Onajon»
- D) «Dorboz»

**735. «Genetika» she'rida qaysi mash-  
hur shaxslar tilga olingan?**

1. Bobo Kayfiy. 2. Ulug'bek. 3. Mu  
qanna. 4. Bobur. 5. Shiroq. 6. Alpomish  
7. Pushkin. 8. Matrosov.

- A) 1, 2, 4, 5, 6, 8
- B) 1, 3, 4, 6, 7, 8
- C) 1, 2, 3, 6, 7, 8
- D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8

736. *To'fon, qasirg'alar kechar-ku hali,  
Kechadi avlodlar qator, galma-gal.  
Balki, oro topib bashar sayqali,  
Tug'ilar eng oliy inson, mukammal.*

**Bu misralar A.Oripovning qaysi she'ridan olingan?**

- A) «Temir odam»
- B) «Onajon»
- C) «Dorboz»
- D) «Genetika»

737. **A.Oripovning qaysi she'ri «Senga talpinaman, buyuk nabiram...» misrasi bilan tugallanadi?**

- A) «Genetika»
- B) «Temir odam»
- C) «Onajon»
- D) «Dorboz»

738. **A.Oripovning qaysi she'ri «Uy-g'onguvchi bog'larni kezdim, Topay dedim qirdan izingni» misralari bilan boshlanadi?**

- A) «Birinci muhabbatim»
- B) «Sen bahorni sog'inmadingmi»
- C) «Tilla baliqcha»
- D) «Men nechun sevaman O'zbekistonni?»

739. *«Yurtim, seni faqat*

*boyliklaring-chun*

*Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!»*

**Bu misralar A.Oripovning qaysi she'riga yakun yasaydi?**

- A) «O'zbekiston» qasidasi
- B) «Sen bahorni sog'inmadingmi»
- C) «Men nechun sevaman O'zbekistonni?»
- D) «Munojot»ni tinglab»

740. **May kuychisi Xayyom, Navoiy obrazlari A.Oripovning qaysi she'rida keltirilgan?**

A) «Men nechun sevaman O'zbekistonni?»

B) «Munojot»ni tinglab»

C) «Genetika»

D) «Men anglab yetgan falsafa»

741. *«Sen beshik emassan, dorsan,*

*tabiat,*

*Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!»*

**Bu misralar A.Oripovning qaysi she'ridan olingan?**

A) «Birinci muhabbatim»

B) «Sen bahorni sog'inmadingmi»

C) «Odamlar»

D) «Munojot»ni tinglab»

742. **A.Oripovning «Birinci muhabbatim» she'ri qanday shaklda yozilgan?**

A) beshlik (muxammas)

B) musaddas

C) murabba

D) musamman

743. **«Birinci muhabbatim» she'ri-ning qofiyalanishi qanday?**

A) a-a-a-a-b, c-c-c-c-c-b

B) a-a-a-b-b, c-c-c-b-b

C) a-a-b-a, c-c-b-c

D) a-a-a-b, b-b-b-c

744. **A.Oripovning «O'zbekiston» qasidasi hajmi ...**

A) 10 misralik 14 banddan iborat

B) 10 misralik 18 banddan iborat

C) 14 misralik 20 banddan iborat

D) 10 misralik 12 banddan iborat

745. **«O'zbekiston» qasidasida keltirilgan tarixiy shaxslar kimlar?**

1. H.Olimjon. 2. G'.G'ulom. 3. A.Temur.

4. Ulug'bek. 5. Beruniy. 6. Kolumb.

7. A.Navoiy. 8. Chingiz. 9. Sobir Rahimov.

10. Oybek. 11. Habib Abdulla.

- A) 1, 3, 4, 6, 7, 11
- B) 1, 2, 5, 8, 9, 10
- C) barchasi
- D) 2, 3, 4, 5, 6, 9

**746. A.Oripovning «Sohibqiron» dramasi necha pardaii?**

- A) 8 pardali
- B) 5 pardali
- C) 4 pardaii
- D) 3 pardaii

**747. «Sohibqiron» dramasida Amir Husaynni tutib kelgan shaxs kim edi?**

- A) Buqalamun
- B) Mir Said Baraka
- C) Barlos Bahodir
- D) Xuttalon hokimi Kayxusrav

**748. Amir Husayn Temurga qanday qarindosh edi («Sohibqiron»)?**

- A) quda (qizini Temurning nabirasiga bergan)
- B) qaynog'a (xotini Uljoy Turkonning akasi)
- C) qaynuka (xotini Uljoy Turkonning ukasi)
- D) qaynuka (xotini Bibixonimning ukasi)

**749. Temur tilga olgan piri komil kim edi («Sohibqiron»)?**

- A) Shayxulislom
- B) Barlos Bahodir
- C) Kayxusrav
- D) Said Baraka

**750. Said Baraka Amir Husaynning qaysi qilgan ishini gunoh sifatida keltiradi («Sohibqiron»)?**

- A) Balx shahridagi begunoh odamlarga zulm o'tkazganini
- B) Balx shahrida masjidlarning mablag'ini ishlatib kayf-safo uchun saroy qurdirganini
- C) Kayxusravning otasini o'ldirganini
- D) Temurga xiyonat qilganini

**751. Temur Amir Husaynning Qozong'on nabirasiligini, o'zining kim ekanligini aytadi («Sohibqiron»)?**

- A) temurzoda
- B) barloszoda
- C) chingiziy
- D) u ham Qozog'on nabirasi ekanligini

**752. Temur Amir Husaynga oyoq qo'lini bog'lab kelgan narsa sifatida nimani keltiradi («Sohibqiron»)?**

- A) hasadni
- B) qo'rqinchni
- C) yolg'onni
- D) qasosni

**753. Amir Husaynni madrasaga beringan paytida kim ko'rib tanib qoladi («Sohibqiron»)?**

- A) Mir Said Baraka
- B) Buqalamun
- C) Barlos Bahodir
- D) Kayxusrav

**754. Madrasaga bekingan Amir Husaynni Kayxusrav nimasidan tanib qoladi («Sohibqiron»)?**

- A) sallasidan
- B) zarbof to'nidan
- C) qilichidan
- D) etigidan

**755. Kayxusravning otasini kim o'ldirgan edi («Sohibqiron»)?**

- A) Yildirim Boyazid
- B) Aloviddin
- C) Amir Husayn
- D) Buqalamun

**756. Kayxusravning otasi qayerning hokimi edi («Sohibqiron»)?**

- A) Badaxshon
- B) Sajiston
- C) Movarounnahr
- D) Kobul

757. Temur bir oyog'i va bir qo'lining nogironligini qayerdagi jangdan qolganligini aytadi («Sohibqiron»)?

- A) Badaxshon
- B) Sajiston
- C) Qandahor
- D) Kobul

758. Temur sarbadorlardan birini dor-dan asrab qolgan. U kim edi («Sohibqiron»)?

- A) Amir Husayn
- B) Mavlonozoda
- C) A.Yassaviy
- D) A va B

759. «Unutmagil, muzaffarman haq-ligim uchun». Bu so'zlar kimga tegishli («Sohibqiron»)?

- A) Temur
- B) A.Yassaviy
- C) A.Husayn
- D) Yildirim Boyazid

760. «Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi, Termultirib xaloyiqqa zor ayladi».

Misralar muallifi kim («Sohibqiron»)?

- A) Yassaviy
- B) H.Sheroziy
- C) Mashrab
- D) Navoiy

761. «Sohibqiron» dramasida: «Musalmonning qonin to'kmoq joiz bo'lma-gay», – deb Amir Husaynga tavba qilishni taklif etgan qahramon ...

- A) A.Husayn
- B) Temur
- C) Sayid Baraka
- D) Yildirim Boyazid

762. Zulfiya «Xotiram siniqlari» poemasida kimni: «Buncha chidam qaydan – po'lat, olovdan, Metindan yaralgan jonmidi?» – deb ta'riflaydi?

- A) onasini
- B) akasini
- C) otasini
- D) bobosini



14. «Sovg'a» hikoyasidagi Sobirjon kim edi?

- A) Buvinisaning o'g'li
- B) A'lobushning o'g'li
- C) Qumri otinning o'g'li
- D) Shahodat xolaning o'g'li

15. Nima sababdan Valijon Shahodat xola nomiga o'g'lidan xat yozadi («Sovg'a»)?

- A) Shahodat ayani xursand qilish maqsadida
- B) 8-martga sovg'a qilish maqsadida
- C) onasi aytgani uchun
- D) Shahodat ayadan suyinchi olish maqsadida

16. Valijon nima sababdan bayram bilan tabriklash maqsadida Shahodat xolani tanlaydi («Sovg'a»)?

- A) o'qituvchisi aytgani uchun
- B) oyisi aytgani uchun
- C) oyisi bilan tanlagan, ukasi yaxshi ko'rgani uchun
- D) o'zi Shahodat xolani yaxshi ko'rgani uchun

17. «Qariya» hikoyasi muallifi kim?

- A) O'. Umarbekov
- B) Sh.Xolmirzayev
- C) N.Norqobilov
- D) Sh.Bo'tayev

18. Qo'ziboy chol qaysi asar qahramoni?

- A) «Sovg'a»
- B) «Olim o'g'il»
- C) «Dasht-u dalalarda»
- D) «Qariya»

19. Qo'ziboy cholning kasbi nima («Qariya»)?

- A) qorovul
- B) turli ishlar, asosan jarchilik (ishchi)
- C) qassob
- D) darboz

20. «... oriq, oyoqlari chilcho'pdek. Yurganda boshini har tomonga burib, xuddi jarchilik qilayotgandek keskin, qaltis harakatlar qilib qadam tashlaydi. Kishilarga benihoya jiddiy nazar soladi. Choyxonaga kirsa umrida ko'rmagan odami bilan ham nihoyatda quyuq so'rashib, avlod-ajdodlarini surishtiradi». Bu kimning ta'rifi («Qariya»)?

- A) Qo'ziboy cholning
- B) Qodir miskarning
- C) Qobil qassobning
- D) G'oziboy choyxonachining

21. Qo'ziboy cholning omadi yurish ketadigan vaqt ... («Qariya»)

- A) bozor kuni
- B) ravoch chiqqanida
- C) pishiqchilik vaqtida
- D) bahorda

22. Qo'ziboy chol nimaning evaziga har oy bozorkomdan 60 so'm maosh olar edi («Qariya»)?

- A) bozordagi mevalar po'choqlarni yig'gani, tozalagani, supurgani uchun
- B) mol bozorida tezak to'plagani evaziga
- C) guruchlarni tashib bergani evaziga
- D) A va B

23. «Cholning ota avlodidan ham, ona avlodidan ham hech kimi yo'q. Shuni eses biladiki, bolaligida qishloqlarini qurolangan odamlar bosgan. U somonxonaga bekinib jon saqlab qolgan. Keyin chorbozchilarga qo'shilib ko'mir koni yaqinidagi qishloqqa borgan». Parcha qaysi asardan olingan?

- A) «Sovg'a» hikoyasidan
- B) «Ko'k eshik» hikoyasidan
- C) «Qariya» hikoyasidan
- D) «Olim o'g'il» hikoyasidan



24. «Cholning ota avlodidan ham, ona avlodidan ham hech kimi yo'q. Shuni es-es biladiki, bolaiigida qishloqlarini qurollangan odamlar bosgan. U somonxonaga bekinib jon saqlab qolgan. Keyin chorbozchilarga qo'shilib ko'mir koni yaqinidagi qishloqqa borgan». Parcha kim haqida («Qariya»)?

- A) Qodir miskar B) Qo'ziboy chol  
C) Qobil qassob D) Jamol aka

25. Qo'ziboy cholning xotini vafot etganiga qancha bo'lgan edi («Qariya»)?

- A) 8 yil B) 6 yil  
C) 7 yil D) 9 yil

26. Qo'ziboy chol xotini qabri qayerda («Qariya»)?

- A) bozor yaqinida  
B) Qizil Gazada  
C) Qo'ng'irotda  
D) qo'shni qishloqda

27. Qo'ziboy chol xotini nimasi-ni asrab qo'ygan edi («Qariya»)?

- A) ro'molini  
B) ziraklarini  
C) uchiga paxta qo'shib o'rilgan qub-bali jamalagi, kiygichini  
D) suratini

28. Qo'ziboy chol qanchadan beri o'lim vasvasasiga tushib qolgan edi («Qariya»)?

- A) 8 yildan beri B) 4 yildan beri  
C) 5 yildan beri D) 3 yildan beri

29. Qo'ziboy chol o'limligi uchun yig'ib qo'ygan pulini kimga berib qo'yadi («Qariya»)?

- A) Qobil qassobga  
B) Qodir miskarga  
C) Qo'ziboyga  
D) G'oziboyga

30. «Qariya» hikoyasida kimning o'limi haqida gap boradi?

- A) Qobil qassob B) Qodir miskar  
C) Jamol aka D) Qo'ziboy

31. Qo'ziboy cholning yoshi nechta edi («Qariya»)?

- A) oltmish yetti B) ikki kam yetmish  
C) yetmish ikki D) oltmish to'qqiz

32. Qo'ziboy cholning nechta farzandi bor edi («Qariya»)?

- A) 2 ta  
B) farzandlari yo'q edi  
C) 4 ta  
D) 3 ta

33. Kim Qo'ziboy cholning o'limligi uchun to'plab qo'ygan pulini ishlatib yuborgan («Qariya»)?

- A) Qo'ziboy B) Qobil qassob  
C) Qodir miskar D) G'oziboy

34. «Shaytanat» asarining muallifi kim?

- A) O'.Hoshimov B) Sh.Xolmirzayev  
C) Tohir Malik D) N.Eshonqul

35. Qaysi asarda tuya haqida hikoyat keltirilgan?

- A) «Bahor qaytmaydi»  
B) «Shaytanat»  
C) «Ot kishnagan oqshom»  
D) «Maymun yetaklagan odam»

36. «Shaytanat»da keltirilishicha, tuya egasining qaysi ishini kechira olmasligini aytadi?

- A) eshakning hukmiga bo'ysundirib qo'yganini  
B) eshakni yonida urganini  
C) og'ir yuk ortganini  
D) tamg'a bosganini

37. «Shaytanat»da Asadbek o'zini qaysi hayvonga o'xshatadi?

- A) eshakka B) nortuyaga  
C) otga D) sherga

38. Asadbekning nechta o'g'li bor edi («Shaytanat»)?

- A) 2 ta            B) 3 ta  
C) 4 ta            D) 1 ta

39. «Bek aka, siz bilan bizning taqdiri-miz Kremi devorlari ortida hal qilinadi. Biz bu devorni buzmas ekanmiz, bag'rimiza shamol tegmaydi». Bu gap kimniki («Shaytanat»)?

- A) Mahmudniki    B) deputatniki  
C) Asadbekniki    D) Xongireyniki

40. Asadbekning sodiq xizmatchisi kim («Shaytanat»)?

- A) Jamshid        B) Chuvrindi  
C) Haydar        D) Jalil

41. Chuvrindining asli ismi ... («Shaytanat»)?

- A) Jamshid        B) Mahmud  
C) Haydar        D) Halimjon

42. Ilohi, yomon af'olimdin

*parishonligim cho'ktur  
Va shum nafsimga pushaymonlik  
yo'qtur,*

*Mundoq balolarg'a umidim sendin o'ktur.*

Parcha qaysi asarda kimning tilidan aytilgan?

- A) «Shaytanat»da Asadbek tilidan  
B) «Shaytanat»da donishmand tilidan  
C) «Shaytanat»da Xongirey tilidan  
D) «Shaytanat»da Haydar tilidan

43. Asadbekning xotini kim («Shaytanat»)?

- A) Mavjuda        B) Ma'mura  
C) Manzura        D) Zaynab

44. Ilohi, dard-u holimni har kimga aytsam, Rad qilsa, senga tavajjuh etgaymen Va agar sen rad qilsang, netgayman Va kimga ketgayman?

Bu misralar qaysi asardan olingan?

A) «Bahor qaytmaydi»

B) ««Shaytanat»

C) «Alvido, bolalik»

D) «Yo Jamshid!»

45. Ilohi, dard-u holimni har kimga aytsam, Rad qilsa, senga tavajjuh etgaymen Va agar sen rad qilsang, netgayman Va kimga ketgayman?

Misralar muallifi kim?

- A) Jomiy            B) A.Navoiy  
C) Lutfiy            D) Z.M.Bobur

46. Musaylama kazzobning o'zini payg'ambar deb e'lon qilishi, ko'zi xiralashgan qariyaning ko'zini kuf-suf bilan butunlay ko'r qilib qo'yishi haqida hikoya qaysi asarda uchraydi?

- A) «Sovg'a»da  
B) «Shaytanat»da  
C) «Qorako'z majnun»da  
D) «Hisomiddin al-Yog'iy»da

47. «Shaytanat»da qarg'ish tekkan gunohsiz qahramon kim?

- A) Jamshid  
B) Haydar  
C) Manzura  
D) Asadbekning qizi Zaynab

48. Asadbek: «Sen ham amaki qatori-dasan», – demoqchi bo'ldi-yu, biroq tili bu gapga aylanmadi. Gap kim haqida («Shaytanat»)?

- A) Mahmud        B) Halimjon  
C) Kesakpolvon    D) Jamshid

49. Asadbekka videokassetani kim tashlab ketgandi («Shaytanat»)?

- A) Mahmud  
B) Hosilboyvachcha  
C) Kesakpolvon  
D) Jamshid

50. «O'qilon» nomli boy qaysi asarda uchraydi?

- A) «Shaytanat»da
- B) «Alvido, bojalik»
- C) «Yo Jamshid!»
- D) «Bozor qushning qarg'ishi»

**51. Asadbekka baqiribmas, ingrab aytilgan qarg'ish qanday so'zlardan iborat edi («Shaytanat»)?**

- A) «llohim, xor bo'lib o'll»
- B) «Bir burda nonga zor qol!»
- C) «Ota-onangning xo'rlanganini ko'rib o'll»
- D) «Sen bolalaringning xo'rlanganini ko'rgin-u, so'ng o'lgin...»

**52. Asadbek necha yildan beri olgan qarg'ishining qutqusidan qutulolmayotgan edi («Shaytanat»)?**

- A) 10 yildan beri
- B) 20 yildan beri
- C) 15 yildan beri
- D) 18 yildan beri

**53. Xongireyning tili bilan aytganda, Asadbekning o'rniga kim bek bo'lgan edi («Shaytanat»)?**

- A) Jamshid
- B) Kesakpolvon
- C) Mamatbey
- D) Chuvrindi

**54. «Dunyoning ishlari» qissasi muallifi kim?**

- A) O'.Hoshimov
- B) T.Malik
- C) Sh.Xolmirzayev
- D) O'.Umarbekov

**55. «Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam – onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bog'langan». Ushbu fikr qaysi asar haqida?**

- A) «Shaytanat»
- B) «Dunyoning ishlari»
- C) «Bahor qaytmaydi»
- D) «Ot kishnagan oqshom»

**56. «O'ris bolaning oyisi», «Iltijo» hikoyalari qaysi asarda uchraydi?**

- A) «Oltin vodiya shabadalar»
- B) «Shaytanat»
- C) «Me'mor»
- D) «Dunyoning ishlari»

**57. «Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o'xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag'ishlanadi, aziz onajonlar!» Parcha qaysi asarda epigraf tarzida keltirilgan?**

- A) «Qorako'z majnun»
- B) «Dunyoning ishlari»
- C) «Sovg'a»
- D) «Shaytanat»

**58. Valining asl ismi ... («Dunyoning ishlari»)?**

- A) Vladimir
- B) Valentin
- C) Abduvali
- D) Alisher

**59. Valining kasbi nima edi («Dunyoning ishlari»)?**

- A) shifokor
- B) o'qituvchi
- C) shofyor
- D) harbiy

**60. Valining onasi kim («Dunyoning ishlari»)?**

- A) Zebi xola
- B) Jannat xola
- C) Saodat aya
- D) Sharofat xola

**61. «Poshsho singlimdan qolgan yodgorim», – deganida Zebi xola kimni nazarda tutgan edi («Dunyoning ishlari»)?**

- A) o'g'lini
- B) muallifni
- C) Valini
- D) nevarasini

**62. «Dunyoning ishlari»da oltita bolaning duosini olib o'tirgan qahramon ...**

- A) Sharofat xola
- B) Zebi xola
- C) muallifning onasi
- D) Saodat xola

63. Zebi xolaning e'tiborini tortgan duxoba g'ilofli narsa nima edi («Dunyoning ishlari»)?

- A) dutor
- B) rubob
- C) doira
- D) nay

64. «Erkaklardek barvasta g'ovdali, qop-qora bu xotinning yo'g'on ovozi ham, uzun qirra burni, ketmonni yelkasiga tashlaganча etik kiyib g'oz yurishi ham boshqa ayollarga o'xshamas, hatto qoramtir siyrak mo'ylovigacha bor edi. U qachon qarasa qulog'iga rayhon taqib yurardi». Parchada kimning ta'rifi keltirilgan («Dunyoning ishlari»)?

- A) muallifning onasining
- B) Sharofat xolaning
- C) Zebi xolaning
- D) Jannat xolaning

65. «Q» va «g'»ni yaxshi aytolmagan bolani buni aytishga qiynamaydigan Risolat opa degan chiroyli o'qituvchi qaysi asar qahramoni?

- A) «Olim o'g'il»
- B) «Dunyoning ishlari»
- C) «Sovg'a»
- D) «Shaytanat»

66. «Dunyoning ishiari»da keltirili-shicha, jo'raboshining Valini urib bur-nini qonatishiga sabab nima edi?

- A) jo'raboshining gapiga kirmagani
- B) jo'raboshining sigirini qaytarmagani
- C) jo'raboshini ukasini urgani
- D) sigirlarining jo'raboshining yerlari-da o'tlashiga yo'l qo'ygani

67. Toy, Xo'ja kabi bolalar qaysi asar qahramonlari?

- A) «Alvido, boialik»
- B) «Shaytanat»
- C) «Dunyoning ishlari»
- D) «Sovg'a»

68. «Dilxiroj», «To'rg'ay», «Qarl navo» kabi kuylarning ijrosi qaysi asardan o'rln olgan?

- A) «Qorako'z majnun»
- B) «Dunyoning ishlari»
- C) «Dasht-u dalalarda»
- D) «Maymun yetaklagan odam»

69. Yor yurgan ko'chalarni supuray sochim bilan,  
Changl chiqsa, suv sepay ko'zdagi yoshim bilan.

Misralar qaysi asarda kim tomoni-dan aytilgan?

- A) «Dunyoning ishlari»da Zebi xola
- B) «Sovg'a»da Shahodat xola
- C) «Qorako'z majnun»da Qumri
- D) «Ufq»da Jannat xola

70. Jon bolam, jonim bolam, qaydasan,  
bergil xabar,  
G'amda boshim, ko'zda yoshim, ichganim  
bo'ldi zahar.

Za'farondek sarg'ayurman hasratingda  
qon yutib,  
Ko'zlarimning nuri ketdi yo'llaringga  
ko'z tutib.

Misralar qaysi asarda kim tomoni-dan aytilgan?

- A) «Sovg'a»da Shahodat xola
- B) «Qorako'z majnun»da Qumri
- C) «Dunyoning ishlari»da Zebi xola
- D) «Chinor»da Sharofat xola

71. Zebi xolaning o'z o'g'li kim («Dun-yoning ishlari»)?

- A) Valentin
- B) Kimsan
- C) Vali
- D) Alisher

72. Zebi xolaning asrab olgan o'g'li kim («Dunyoning ishlari»)?

- A) Abduvali
- B) O'tkir
- C) Valentin
- D) Ahmad

73. Zebi xolaning eri va o'g'li taqdiri qanday yakunlangan («Dunyoning ishlari»)?

- A) chet elga ketgan
- B) taqdiri noma'lum
- C) o'g'ir kasal
- D) ota-boladan bir oyda «qoraxat» kelgan

74. «O'ris bolaning oyisi» hikoyasida kim haqida fikr yuritiladi?

- A) muallifning bolaiigi haqida
- B) Vali (Valentin) va uning onasi Zebi xola haqida
- C) muallifning onasi haqida
- D) ikki aka-uka haqida

75. «Oftob haqidagi cho'pchak» qaysi asar tarkibida keltirilgan?

- A) «Muzqaymoq»da
- B) «Ufq»da
- C) «Shaytanat»da
- D) «Dunyoning ishiari»da

76. «Dunyoning ishlari»dagi «iltijo» hikoyasida nima haqida fikr yuritiladi?

- A) onasining qabri qoshidagi iltijolari
- B) onasining betoblighi
- C) ikki aka-ukaning ahillighi
- D) oftob haqida

77. «Dasht-u dalalarda» hikoyasi muallifi kim?

- A) O'lmas Umarbekov
- B) Shukur Xolmirzayev
- C) Murod Muhammad Do'st
- D) Xurshid Do'stmuhammad

78. «Xadicha ketdi-yu, ko'ngildan halovat ham ketdi». Parcha qaysi asarning boshlanishi?

- A) «Ot kishnagan oqshom»
- B) «Yo Jamshid!»
- C) «Bozor qushning qarg'ishi»
- D) «Dasht-u dalalarda»

79. To'rt yashar qizcha Chaman qaysi asar qahramoni?

- A) «Dasht-u dalalarda»
- B) «Sovg'a»
- C) «Bozor qushning qarg'ishi»
- D) «Ko'k eshik»

80. Nazar Maxsum, Sanaqulbek, Sattorqul, G'uchchi chol, Salim chaqich, usta Xoliyor kabi qahramonlar qaysi asarda uchraydi?

- A) «Shaytanat»
- B) «Yo Jamshid!»
- C) «Dasht-u dalalarda»
- D) «Maymun yetaklagan odam»

81. «Dasht-u dalalarda» hikoyasida polvonning uyini yig'ishtirib, sigirlarini sog'ib yordam berib turadigan shaxs kim edi?

- A) Maxpirat
- B) singlisi Adolat
- C) Chaman
- D) Xadicha

82. Polvon kim bilan janjallashgani da oraga Maxpirat tushib ularni ajratadi («Dasht-u dalalarda»)?

- A) Sattorqul bilan
- B) Hasanboy bilan
- C) Nazar maxsum bilan
- D) Salim chaqich bilan

83. Polvonning xotini kim edi («Dasht-u dalalarda»)?

- A) Adolat
- B) Xadicha
- C) Maxpirat
- D) Chaman

84. Polvonning xotini ketib qolganiga qancha bo'lgan edi («Dasht-u dalalarda»)?

- A) 20 kun
- B) 1 oy
- C) 40 kun
- D) 3 oy

85. Polvonga xotinining talog'ini berish haqida kim maslahat soladi («Dasht-u dalalarda»)?

- A) Salim
- B) Hasanboy
- C) Sattorqul
- D) Nazar maxsum

86. «O'ychining o'yi bituncha tavak-lalchining ishi bitadi» maqoli kimning tilidan aytilgan («Dasht-u dalalarda»)?

- A) Nazar maxsum B) polvon
- C) Sattorqul D) Hasanboy

87. Nazar Maxsum polvondan xotini-ning talog'ini olib kimga mo'ljal qilayotgan edi («Dasht-u dalalarda»)?

- A) Salimga B) O'rolga
- C) Hasanboyga D) o'g'liga

88. Xotinini olishga ketgan polvonni kaltaklagan kim edi («Dasht-u dalarda»)?

- A) O'rol
- B) xotinining ukasi Sattorqul
- C) Hasanboy
- D) Salim

89. Yuqori labi kemtik, jikkakroq odam Oshiq va Ahmad shayton qaysi asar qahramoni?

- A) «Yo Jamshid!»
- B) «Dasht-u dalalarda»
- C) «Qariya»
- D) «Ko'k eshik»

90. «Ot kishnagan oqshom» qissasi muallifi ...

- A) Xurshid Do'stmuhammad
- B) Shukur Xolmirzayev
- C) Shoyim Bo'tayev
- D) Tog'ay Murod

91. «Odamlar meni kal deydi» bo'ldi. Ziyodulla kal emish!» Parcha qaysi asardan olingan?

- A) «Ot kishnagan oqshom» qissasidan
- B) «Oydinda yurgan odamlar» qissasidan

- C) «Yo Jamshid!» qissasidan
- D) «Maymun yetaklagan odam» qissasidan

92. Diplom so'ramaydigan ishlarda ishlagan, qorovul, go'lax, podachi bo'lgan qahramon qaysi asarda keltirilgan?

- A) «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida
- B) «Ot kishnagan oqshom» qissasida
- C) «Ko'k eshik» qissasida
- D) «Qariya» hikoyasida

93. «Ot kishnagan oqshom» qissasida kim Ziyodulla kalni mayizni sotishga havaslantiradi?

- A) Kapitan Ro'ziyev
- B) Qulmat polvon
- C) Pochtachi
- D) Xotini

94. Ziyodulla chavandozning xotini nimaga boshqorong'i bo'lgandi («Ot kishnagan oqsom»)?

- A) asalga
- B) Namangan olmasiga
- C) Surxondaryo qovuniga
- D) Xorazm jiydasiga

95. Qaysi asarda Dono momoning vafoti berilgan?

- A) «Sovg'a»da
- B) «Bozor qushning qarg'ishi» qissasida
- C) «Ot kishnagan oqshom» qissasida
- D) «Dasht-u dalalarda» hikoyasida

96. «Ot kishnagan oqshom» qissasida bozordagi to'polon qaysi kun bo'lgan edi?

- A) 24-yanvar yakshanba kuni
- B) 20-yanvar dushanba kuni
- C) 23-yanvar yakshanba kuni
- D) 24-yanvar dushanba kuni

97. **Dono momoning vafoti haqida befarq gapirgan o'qimishli odam kim («Ot kishnagan oqsom»)?**

- A) Ro'ziyev      B) Rixsiyev  
C) Qodirov      D) Qurbonov

98. *«Hech qachon eldan qolmang, aka. Xususan, ikki vaqt elning yonida bo'ling. Biri to'yida. Elning to'yini belingizni besh joyidan boylab xizmat qilib, o'ynab-kulib, xush, xushvaqt o'tkazib bering... Yana biri azasida... O'lim qayg'usini bir odam ko'tarolmaydi. Og'irlik qiladi... Odam shu ikki vaqtda odamligini bildiradi».* **Bu fikr qaysi asarda kimning tilidan aytilgan?**

- A) «Ot kishnagan oqshom» qissasida Qulmat polvon  
B) «Ot kishnagan oqshom» qissasida Ziyodulla kal  
C) «Ot kishnagan oqshom» qissasida Qodirov  
D) «Dasht-u dalalarda» hikoyasida polvon

99. **«Ot kishnagan oqshom» qissasida umri kolxozda o'tgan, qariganida magazinda qorovul bo'lgan qahramon kim edi?**

- A) Ziyodulla  
B) Qulmat polvon  
C) Shukurov  
D) Dono momo

100. **Eron xalqidan qattiq tashvishga tushgan, u yerdagi ahvolga achinib munosabat bildirgan qahramon ... («Ot kishnagan oqsom»)**

- A) Rixsiyev      B) Ro'ziyev  
C) Sattorov      D) Shukurov

101. **«Ot kishnagan oqshom» qissasida yuz bergan voqeaning guvohi bo'lgan choyxonachi kim?**

- A) Sattorov      B) Rixsiyev  
C) Qurbonov      D) Shukurov

102. **«Ot kishnagan oqshom» qissasida mushtlashuvning guvohi bo'lgan baliqpaz...**

- A) Sattorov      B) Rixsiyev  
C) Shukurov      D) Ro'ziyev

103. **«Ot kishnagan oqshom» qissasida yuzlariga dori surtib yotgan, bo'lgan to'polonning sababchisi deb bilinayotgan qahramon kim?**

- A) Qulmat polvon  
B) «Kommunizm» ko'chasida turadigan Mo'min  
C) Dono momo  
D) Ziyodulla

104. **«Ot kishnagan oqshom» qissasida kampilarning o'limini mahalliy gap sifatida baholagan qahramon kim?**

- A) Qurbonov      B) Ro'ziyev  
C) Rixsiyev      D) Shukurov

105. *«Rixsiyev aka, odam it emas, oyog'idan sudrab borib chuqurga tashlab kela bergani. Odam o'z nomi bilan odam Odamdan ulug' jonzot bormi!»* **Bu gap kimning tilidan aytilgan («Ot kishnagan oqsom»)?**

- A) Mo'min  
B) Qulmat polvon  
C) Ziyodulla kal  
D) Dono momo

106. **«Beozor qushning qarg'ishi» hikoyasi muallifi ...**

- A) Xurshid Davron  
B) Murod Muhammad Do'st  
C) Xurshid Do'stmuhammad  
D) Nazar Eshonqul

107. **Hikoyadagi beozor qush haqidagi hikoya kimning tilidan aytilgan?**

- A) Farida      B) Qadriya  
C) Zulfiya      D) Halima

108. Hikoyadagi hikoya kimga aytilib berilgan?

- A) Furqatga B) Fozilbekka  
C) Umidga D) Otabekka

109. «Musulmon kishida nafrat emas, muhabbat kuchliroq bo'ladi». Bu fikr kimga tegishli («Beozor qushning qarg'ishi»)?

- A) Otabekka B) Qadriyaga  
C) Zulfiyaga D) Fozilbekka

110. Qadriyaning kasbi nima edi («Beozor qushning qarg'ishi»)?

- A) tikuvchi  
B) hamshira  
C) bozorda sut-qatiq sotardi  
D) o'qituvchi

111. Qadriya qaldirg'ichni otasi uyidan quvgan paytida necha yoshda edi («Beozor qushning qarg'ishi»)?

- A) 7 yosh B) 6 yosh  
C) 8 yosh D) 10 yosh

112. Beozor qushning qarg'ishi kimga uradi («Beozor qushning qarg'ishi»)?

- A) Qadriyaga  
B) Qadriyaning onasiga  
C) Qadriyaning akasi Umidga  
D) Qadriyaning opasi Zulfiyaga

113. Zulfiya opasining uzatilganiga qancha muddat bo'lgan edi («Beozor qushning qarg'ishi»)?

- A) 40 kun B) 20 kun  
C) 1 oy D) 3 oy

114. «Kim qaldirg'ichni o'ldirsa, qo'li qaltiroq bo'lib qoladi». Bu gap kim tomonidan qaysi asarda ishlatilgan?

- A) «Beozor qushning qarg'ishi» hikoyasida Umid tomonidan  
B) «Beozor qushning qarg'ishi» hikoyasida Qadriyaning onasi tomonidan

C) «Maymun yotaklagan odam» tokiyasida chol tomonidan

D) «Yo Jamuliddin hikoyasida Salomat tomonidan

115. «Ko'k eshik» hikoyani muallifi kim?

- A) Normurod Norqobilov  
B) Erkin A'zamov  
C) Nazar Eshonqul  
D) Xayriddin Sultonov

116. Ungurda sakrab yurgan hurkak ot tasviri aks etgan surat qaysi asarda keltirilgan?

- A) «Dasht-u dalalarda»  
B) «Hisomiddin al-Yog'iy»  
C) «Olim o'g'li»  
D) «Ko'k eshik»

117. «Ko'k eshik» hikoyasida kampirning nechta farzandi bor edi?

- A) 3 ta: 1 o'g'il, 2 qiz  
B) 1 ta o'g'il  
C) 2 ta: 1 o'g'il, 1 qiz  
D) 4 ta: 2 o'g'il, 2 qiz

118. «Ko'k eshik» hikoyasida kampirning o'g'li qanday inson?

A) daydi, onasiga qarashmaydi, xabar olmaydi. Harbiydan qaytgach bir beva ayolga uylanib allaqayerlarda yashar edi

B) nogiron, hech bir ishga yaramaydigan edi

C) katta ishda ishlaydigan amaldor bo'lgani uchun ham onasidan xabar olishga vaqti yo'q edi

D) o'lgan edi

119. Kampirning oldiga ichib kelib janjal ko'taradigan qahramon ... («Ko'k eshik»)

- A) qo'shnisi B) o'g'li  
C) Bo'ribov D) Hamid



120. Kampirning o'g'li haqidagi voqealarni ijarachilarga kim so'zlab bergan («Ko'k eshik»)?

- A) qo'shnisi
- B) Hamid
- C) Bo'riboyning akasi
- D) Bo'riboy aka

121. Ijarada turadigan yigitlardan tashqari hovlida kimlar yashar edi («Ko'k eshik»)?

- A) kampir, Hamid
- B) kampir, Bo'riboy aka
- C) kampir, kampirning qizi
- D) Bo'riboy, Hamid

122. Bo'riboy kimning o'g'li edi («Ko'k eshik»)?

- A) Sharofat xolaning
- B) qo'shni kampirning
- C) Zebi xolaning
- D) Hamidning

123. Bo'riboy aka nima sababdan bu hovlida yashar edi («Ko'k eshik»)?

- A) boradigan boshqa joyi yo'q edi
- B) farzandsizligi tufayli
- C) akasi bilan murosasiz qilolmay, arazlab shu yerda so'qqabosh yashardi
- D) otasidan arazlab kelib qolgan edi

124. Bo'riboy akaning sevib o'qiydigan jurnali qaysi («Ko'k eshik»)?

- A) «Jahon adabiyoti»
- B) «Vokrug sveta»
- C) «Tirik satrlar»
- D) «Mushtum»

125. «Ko'k eshik» hikoyasida «Musofir» laqabi kimga tegishli?

- A) Hamidga
- B) Ziyodullaga
- C) Bo'riboy akaga
- D) kampirga

126. Suygani tashlab ketgan, «ilmly ish» qilish orzusunda yuradigan qahramon ... («Ko'k eshik»)

- A) kampirning o'g'li
- B) Bo'riboy aka
- C) Hamid
- D) Salim

127. Ijarachilar kimning uyida ijaraga turardilar («Ko'k eshik»)?

- A) Zaynab xolaning uyida
- B) Zuhra kampirning uyida
- C) Bo'riboyning uyida
- D) Zebi xolaning uyida

128. Zuhra kampir kimga mehr qo'ygani edi («Ko'k eshik»)?

- A) Bo'riboyga
- B) Hamidga
- C) Ziyodullaga
- D) Hasanboyga

129. «Yo Jamshid!» hikoyasi muallifi ...

- A) Shoyim Bo'tayev
- B) Nazar Eshonqul
- C) Erkin A'zam
- D) Xayriddin Sultonov

130. «Yo Jamshid!» hikoyasi epigrafi ...

- A) «Rabbim!» – de, Mariya!»
- B) «Chirimoqda Sibirda ulug' turk shoirlari»
- C) «...eng zo'r chiqish yo'li hamisha oradan o'tadi»
- D) epigraf mavjud emas

131. «Yo Jamshid!» hikoyasida epigraf kimning nutqidan keltirilgan?

- A) Robert Frost
- B) Valentin Rasputin
- C) Xayriddin Sultonov
- D) Grigor Narikatsi

132. «Yo Jamshid!» hikoyasida O'rinboyning akasi kim?

- A) Samar      B) Zarif  
C) Orif        D) Islomboy

133. Islomboy O'rinboydan necha yosh katta edi («Yo Jamshid»)?

- A) 5 yosh      B) 3 yosh  
C) 4 yosh      D) 6 yosh

134. Uyg'a xavotirlanib kirgan Islomboy nimani (kimni) ko'rib «xayriyat» deydi («Yo Jamshid»)?

- A) onasini  
B) Anziratni  
C) qatorasiga soingan o'rinda 4 bolaning boshini  
D) ammasini

135. O'rinboyning xotini kim («Yo Jamshid»)?

- A) Salomat    B) Zebi  
C) Anora      D) Anzirat

136. Islomboyga xabarni kim yetkazgan edi («Yo Jamshid»)?

- A) Samar      B) Zarif  
C) Orif        D) Anzirat

137. O'rinboyga onasi nima uchun bu ismni qo'ygandi («Yo Jamshid»)?

- A) shu ismi yoqtirgani uchun  
B) mahallasidagi shunday ismli odamga havas qilib  
C) og'amning o'rmini bosar deb (akasi)  
D) akasiga o'xshasin deb

138. O'rinboy qancha yutqizgan edi («Yo Jamshid»)?

- A) 20 ming (yangi pulda)  
B) 25 ming (yangi pulda)  
C) 15 ming (yangi pulda)  
D) 22 ming (yangi pulda)

139. O'rinboynikiga maslahat oshiga kimlar yig'ilgan («Yo Jamshid»)?

- A) Islomboy, Orif, Zarif buva  
B) Islomboy, Salomat, Orif, Zarif buva, O'rinboyning onasi, Anzirat  
C) Islomboy, Islomboyning qudasi, Anzirat, O'rinboyning onasi  
D) Salomat, Islomboy, Orif, Zarif buva

140. «Yo Jamshid!» hikoyasida keltirilgan amakilarning kichigi kim?

- A) Orif            B) Zarif  
C) Samar        D) Hamid

141. «Nayza» laqabi kimga tegishli edi («Yo Jamshid»)?

- A) Orifga        B) Islomboyga  
C) O'rinboyga   D) Zarifga

142. Nasibaning beshik to'yiga pul yig'ib yurgan qahramon ... («Yo Jamshid»)?

- A) Anzirat  
B) Islomboy  
C) Salomat  
D) O'rinboyning onasi

143. Xotinidan beso'roq bir so'm ham sarflolmaydigan qahramon kim («Yo Jamshid»)?

- A) Zarif buva    B) O'rinboy  
C) Islomboy     D) Orif

144. «Buniyam erkak o'ynaydi, qani, xotin o'ynab ko'rsin-chi» degan fikr kimga tegishli («Yo Jamshid»)?

- A) Salomatga    B) O'rinboyga  
C) Anziratga    D) Zarif buvaga

145. «... qasos, lazzatli qasos tuyg'usi uning yurak-bag'rini o'rtab borardi». Parcha qaysi asardan olingan?

- A) «Olim o'g'il»  
B) «Ko'k eshik»  
C) «Yo Jamshid!»  
D) «Maymun yetaklagan odam»

146. «Zino qilgan, bironing haqini yegan, qimor o'ynagan odam do'zaxi bo'lar ekan». Bu fikr kimniki («Yo Jamshid»)?

- A) Salomat B) Orif  
C) Islomboy D) Zarif nayza

147. Qarzidan qutulish maqsadida O'rinboy nimani sotmoqchi bo'ladi («Yo Jamshid»)?

- A) sigirlarni  
B) hovlini  
C) onasining tillalarini  
D) mashinasini

148. «Oxir-oqibati baribir kuyov-da, kuyov – yov, o'g'il bo'farmidi menga!» Bu gapni kim aytgan («Yo Jamshid»)?

- A) Anzirat B) Salomat  
C) Islomboy D) Zarif

149. Mashina olib berasiz deb holi-joniga qo'ymayotgan qahramon ... («Yo Jamshid»)?

- A) O'rinboy  
B) Islomboyning qizi (kuyov)  
C) Salomatning qizi (kuyov)  
D) Islomboy

150. Hikoya qanday yakunlanadi?

- A) onasining o'limi bilan  
B) Islomboyning «Yo Jamshid!» degan so'zlari bilan  
C) O'rinboyning «Yo Jamshid!» degan so'zlari bilan  
D) O'rinboyning yana yutqazishi bilan

151. «Hisomiddin al-Yog'iy» hikoyasi muallifi ...

- A) Pirimqul Qodirov  
B) Shoyim Bo'tayev  
C) Odil Yoqubov  
D) Xayriddin Sultonov

152. «Hisomiddin al-Yog'iy» qanday hikoya?

- A) mavhum hikoya  
B) voqeiy hikoya  
C) tarixiy hikoya  
D) lirik hikoya

153. Hikoyada «Mehrob oldida dav veshlar darveshi, shayxlar shayxi» deb kim ta'riflanadi?

- A) Hisomiddin al-Yog'iy  
B) Alouddin Tarmashirin  
C) Burg'ubek  
D) Shamsiddin Abu Abdulloh at-Tanijiy/Ibn Battuta

154. «Hisomiddin al-Yog'iy» hikoyasidagi Movarounnahr ulug' sultoni kim?

- A) Burg'ubek  
B) Shamsiddin Abu Abdulloh at-Tanijiy/Ibn Battuta  
C) «Hisomiddin al-Yog'iy»  
D) Alouddin Tarmashirin

155. «Maqsura» so'zining ma'nosi ...

- A) masjid  
B) namoz suralari  
C) mehrob yonida alohida ajratilgan o'rin, davlat boshliqlari namoz o'qiydigan joy  
D) qo'shni xona

156. Qo'shinlarining hisobsizligi, yovqurligi, sarhadlarining poyonsizligi, ilkidagi zaminning jannatmakonligi, ahli riyatning farovonligi, ular orasida adolat qaror toptirgani sabab yengilmas va qudratli deb nom chiqargan sulton qaysi asarda uchraydi?

- A) «Yulduzli tuniar» romanida  
B) «Hisomiddin al-Yog'iy» hikoyasida  
C) «Ulug'bek xazinasi» romanida  
D) «Boburnoma»da

157. «Boshiga mo'g'ulcha qalpoq bos-tirgan, egnidagi mo'g'ulcha po'stinning juni joni bor jonivornikiday hurpayib turardi». Tasvir kim haqida («Hisomiddin al-Yog'iy»)?

- A) Chopar
- B) Amir Jondor
- C) Burg'ubek
- D) Hisomiddin al-Yog'iy

158. «Hisomiddin al-Yog'iy» hikoyasi-da sayyohni dunyo kezishga, qidirishga majbur qilgan fikr ...

- A) Odamzod misli hasharot, ammo uni yuksaltiruvchi birgina narsa bor. Nima o'sha narsa?
- B) Bu dunyo faqat yovuzlikdan iboratmasligini isbotlash
- C) Yaxshilikka har doim yaxshilik qaytishini ko'rish
- D) Shoh va gadoni bir ko'ra oladigan insonlar borligiga ishonch hosil qilish

159. Sayyoh sultonning qaysi gapini kim biian ko'rishsa ham takrorlardi («Hisomiddin al-Yog'iy»)?

- A) «Yaxshimisiz, xush ko'rdik»
- B) «Xushmisan, yaxshimisan, quttug' o'lsun»
- C) «Yaxshimisan, xushmisan, xush ko'rdik»
- D) «Xushmisan, yaxshimisan»

160. «Vaqt shunday hakamdirki, uning qarshisida shoh-u gado barobardir». Bu fikr kimniki («Hisomiddin al-Yog'iy»)?

- A) Burg'ubek
- B) Shamsiddin Abu Abdulloh at-Tanjiy/Ibn Battuta
- C) Alouddin Tarmashirin
- D) Hisomiddin al-Yog'iy

161. «Tilidan bol-u qo'lidan qon oqqan zolimlar bu dunyoning eng jirkanch

maxluqlardir». Bu fikr qaysi asarda ishlatilgan?

- A) «Hisomiddin al-Yog'iy» hikoyasida
- B) «Ulug'bek xalqasi» romanida
- C) «Avlodlar dovoni» romanida
- D) «Boburnoma»da

162. Sayyohning bu yurtga kelganiga qancha muddat bo'lgan edi («Hisomiddin al-Yog'iy»)?

- A) 55 kun
- B) 50 kundan oshgandi
- C) 60 kun
- D) 40 kun

163. Hisomiddin al-Yog'iyga kim po'stin taklif qilgan («Hisomiddin al-Yog'iy»)?

- A) chopar
- B) sayyoh
- C) podshoh
- D) qizi

164. Hisomiddin al-Yog'iy 50 yil muqaddam qanday qasam ichgan edi («Hisomiddin al-Yog'iy»)?

- A) yolg'on gapirmayman
- B) yordamga muhtoj odamga qo'limdan kelganicha yordam beraman
- C) Allohdan o'zga hech kimdan tuhfa olmayman, olsam faqat undan olgan bo'lardim
- D) shoh va gadoni bu yo'lda teng ko'raman

165. Hisomiddin al-Yog'iyning ustidagi yamoq tushgan, eskirgan po'stin, aslida, kimniki edi («Hisomiddin al-Yog'iy»)?

- A) o'g'liniki
- B) otasiniki
- C) bobosidan qolgan
- D) qizini

166. «Podshohning ziyofati xos kishilar uchun harom. Uning qilayotgan xayr-u ehsonlari olomon uchundir, chunki olomon

shunday narsalarga o'ch, shu tufayli uning barcha gunohlarini kechirib yuboraveradi. Shu bois men o'rduga borolmayman, harom kiymayman, harom yemayman deb Olohga qasam ichganman». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

- A) «Ulug'bek xazinasi»dan
- B) «Boburnoma»dan
- C) «Hisomiddin al-Yog'iy»dan
- D) «Shaytanat»dan

167. Suyak talashayotgan amaldorlar qaysi asarda uchraydi ?

- A) «Ulug'bek xazinasi»
- B) «Boburnoma»
- C) «Hisomiddin al-Yog'iy»
- D) «Shaytanat»

168. Suyakka ega chiqqan amaldor kim («Hisomiddin ai-Yog'iy»)?

- A) sayyoh
- B) Burg'ubek
- C) Majiddiddin
- D) Fasihiddin

169. «Hisomiddin al-Yog'iy» hikoyasidagi sayyohning ismi ...

- A) Burg'ubek
- B) Shamsiddin Abu Abdulloh at-Tanjiy/lbn Battuta
- C) Alouddin Tarmashirin
- D) Shamsiddin Abu Abdulloh at-Tajjalliy

170. «Sizing oyog'ingiz dunyoning ko'p davlatlariga yetadi. Ular, albatta, biz haqimizda so'rasalar, o'z sultonining taklifini rad qila oladigan qudratli odamlar bor ekan deb ayting. Ular u odamlarning qudrati nimada ekan deb so'rashsa, halolliklari va tantiliklarida ekan deb ayting».

Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

- A) «Ulug'bek xazinasi»
- B) «Boburnoma»
- C) «Hisomiddin al-Yog'iy»
- D) «Shaytanat»

171. Sayyoh Ibn Battuta qayerlik edi («Hisomiddin ai-Yog'iy»)?

- A) misriik
- B) marokashlik
- C) iroqlik
- D) yunonistonlik

172. «Maymun yetaklagan odam» hikoyasi muallifi kim?

- A) Shoyim Bo'tayev
- B) Nazar Eshonqul
- C) Luqmon Bo'rixon
- D) Murod Muhammad Do'st

173. «Qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko'rimsiz yuzi tarix kitoblarida tasvirlangan badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ko'tardi». Parchada kimning ta'rifi keltirilgan («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) cholning
- B) qo'shni yigitning
- C) rassomning
- D) rassomning o'g'lining

174. «Maymun yetaklagan odam» hikoyasida rassom nimaga o'xshatiladi?

- A) cho'chqaga
- B) ko'rshapalakka
- C) badjahl ma'bud haykaliga
- D) ma'yus, bechorahol maymunga

175. Rassom nechanchi yillarda mashhur bo'lganligi aytiladi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) 20-yillarda
- B) 30-yillarda
- C) 40-yillarda
- D) 25-yillarda

176. Rassom nechanchi yillarda mas'ul lavozimlarda ishlaganligi aytiladi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) 20-yillarda
- B) 25-yillarda
- C) 30-yillarda
- D) 40-yillarda

177. Komsomol bo'lib bosmachi larga qarshi kurashgan, yangi hayot

qurishda faol ishtirok etgan kim edi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) qo'shni chol
- B) rassom
- C) hoji buva
- D) Mirahmad ota

178. Rassomning nechta farzandi bor edi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) 2 ta
- B) farzandi yo'q
- C) 3 ta
- D) 1 ta

179. Rassomning o'g'li nima ish qilardi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) harbiy
- B) rassom
- C) yozuvchi
- D) kissavur bo'lgan, keyin qotillik qilgani uchun qamalib chiqqan, endi esa qimorning orqasidan kun ko'rardi

180. Rassomning o'g'li otasining oldiga nima maqsadda kelardi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) otasini ko'rgani
- B) dam olgani
- C) pul olish maqsadida
- D) uydagi ishlariga yordamlashgani

181. Rassom chizgan rasmlar qay tartibda terilgan edi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) 1926, 1928, 1936, 1937, 1947, 1947, 1957...
- B) 1921, 1926, 1937, 1957, 1947...
- C) 1957, 1947, 1937, 1928, 1926...
- D) 1957, 1937, 1926, 1921, 1947...

182. Rassom tartib bilan tergan suratlarining oxirgisi nechanchi yili chizilgan edi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) 1921-yili
- B) 1926-yili
- C) 1937-yili
- D) 1957-yili

183. Rassom chizgan ilk surat ... («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) o'rmonzor
- B) o'rmon, maymun, chol. Maymun umidsiz, ko'zlariga g'am cho'kkan, yuz ko'zida hayotdan nishona qolmagan, munkaygan bir cholni o'rmon sari yetaklab borardi

C) quyuq o'rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta gavdali yigit tasviri

D) har xil odamiarning tasviri

184. Rassom chizgan rasmlarda suratdan suratga o'tib borayotgan narsa nima edi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) oq rang
- B) qora rang
- C) ko'k rang
- D) qizil rang

185. «Maymun yetaklagan odam» hi-koyasida asar qahramoniga qaysi surat yoqqan?

- A) o'rmon, maymun, chol
- B) maymun yetaklab borayotgan yigit surati
- C) tabiat tasviri
- D) maymunning surati

186. Asar qahramoni va rassomning suhbatini nima haqida boradi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) hayot haqida
- B) rassom haqida
- C) yaxshilik va yomonlik
- D) odamlar haqida

187. Qog'ozlar bilan odamlarni himoya qilgan amaldor haqidagi hikoya kimning tilidan bayon etiladi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) rassom
- B) yigit
- C) qo'shni ayol
- D) rassomning o'g'li

188. Rassom hikoya qilib bergan amaldor do'sti necha yil amal kursisini egallab turgan («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) 25 yil            B) 27 yil  
C) 30 yil            D) 32 yil

189. Asar qahramoni qanday kishilar yaxshilik va yomonlikni teran anglashlarini ta'kidlaydi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) ilimli kishilar  
B) e'tiqodli kishilar  
C) vijdonli kishilar  
D) iymonli kishilar

190. Asar qahramoni qaysi asarni tarjima qilayotgan edi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) Dantening asarlarini  
B) Onettining hikoyalarini  
C) Pushkin asarlarini  
D) Jek London asarlarini

191. Rassom qaysi faslda vafot etgan («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) qishda            B) yozda  
C) kuzda            D) bahorda

192. Rassomning so'nggi suratida nima tasvirlangandi («Maymun yetaklagan odam»)?

- A) e'tiqodli odamlar tasviri  
B) maymun yetaklagan yigit tasviri  
C) o'rmon, maymun, chol. Maymun umidsiz, ko'zlariga g'am cho'kkan, yuz-ko'zida hayotdan nishona qolmagan, munkaygan bir cholni o'rmon sari yetaklab borardi  
D) kuz tasviri

193. «Olim o'g'il» hikoyasi muallifi kim?

- A) Shoyim Bo'tayev  
B) Tog'ay Murod

- C) Shukur Xolmirzayev  
D) Normurod Norqobilov

194. «Olim o'g'il» hikoyasida olim o'g'ilning otasi ...

- A) Sadir chol        B) Shayman chol  
C) O'roq chol        D) Qodir chol

195. Olim o'g'il Shayman cholning nechanchi farzandi edi («Olim o'g'il»)?

- A) to'ng'ichi        B) kenjasi  
C) o'rtanchasi      D) uchinchi o'g'li

196. O'roq chol qayerliklarning hammasi o'qiganligini, rayon (tuman)ning kattalari shulardan ekanligini aytadi («Olim o'g'il»)?

- A) mirzacho'lliklar  
B) sho'rquduqliklar  
C) urgutliklar  
D) jarqo'rg'onliklar

197. Kimning o'g'li o'qigan bo'lsa ham tuzuk ukol qilishni bilmaydi («Olim o'g'il»)?

- A) Qodir shapkaning  
B) Haydar ko'saning  
C) Olim pakananing  
D) Eshqul cho'loqning

198. Uquvsizligi tufayli Chala cho'tirning kampiri o'limiga sababchi bo'lgan qahramon kim edi («Olim o'g'il»)?

- A) Qodir shapkaning o'g'li  
B) Eshqul cho'loqning o'g'li  
C) Haydar ko'saning o'g'li  
D) Olim pakananing o'g'li

199. Abrayning bevasiga uylanmoqchi bo'lgan qahramon ... («Olim o'g'il»)

- A) Eshqul cho'loq  
B) Qodir chol  
C) Sadir chol  
D) O'roq chol

200. «Olim o'g'il» hikoyasida suhbat qurgan chollar kimlar?

A) O'roq chol, Qodir chol, Shayman chol, Sadir chol, Olim pakana, Poyon chol

B) Shayman chol, Haydar ko'sa, Olim pakana, Sadir chol

C) Sadir, O'roq chol, Qodir chol, Ahmad chol

D) Poyon chol, Eshqul cho'loq, Shayman chol, Sadir chol

201. «Olim» nimaligini tushunmagan qahramon ... («Olim o'g'il»)

A) Shayman chol

B) Qodir chol

C) Poyon chol

D) Sadir chol

202. Olim o'g'il qaysi soha mutaxassis edi («Olim o'g'il»)?

A) osmon jismlarini o'rganardi

B) shifokor

C) o'simliklarni o'rganardi

D) mexanik

203. Shayman chol kim bilan quda bo'layotgan edi («Olim o'g'il»)?

A) Olim pakana bilan

B) Haydar ko'sa bilan

C) Qodir shapka bilan

D) Eshqul cho'loq bilan

204. Shayman chol kim o'qimagan bo'lsa ham, tayog'ini bir silkitsa, hov-

lisiga somon, xashak tushib turishini pisanda qiladi («Olim o'g'il»)?

A) Olim pakana

B) Sadir chol

C) Qobul shapka

D) Eshqul cho'loq

205. Qobil shapka kim bo'lib ishlardi («Olim o'g'il»)?

A) shifokor

B) o'qituvchi

C) militsioner

D) xat tashuvchi

206. Shayman cholga pul nima uchun kerak edi («Olim o'g'il»)?

A) to'ngich o'g'liga uy olish uchun

B) to'y qilish uchun

C) do'sti Qodir cholga qarz berish uchun

D) Haydar ko'saga qalin berish uchun

207. Uzoq guppi kim («Olim o'g'il»)?

A) Qobul shapkaning otasi

B) Eshqul cho'loqning o'g'li

C) Shayman cholning o'rtog'i

D) Olim pakananing otasi

208. «Koinot sirlarini anglamoqqa yetgan aqli bu yerdagi bu xil sinoatni idrok etmoqqa o'jiz» asar qahramoni qaysi asarda keltirilgan?

A) «Tog' odami» hikoyasida

B) «Olim o'g'il» hikoyasida

C) «Sovg'a» hikoyasida

D) «Qariya» hikoyasida



## O'ZBEK SHE'RIYATIDAN NAMUNALAR

1. Halima Xudoyberdiyevaning she'r-lari ...

- A) «Dorilamon kunlar keldi...», «Ona tilimga alyor»
- B) «Dorilomon kunlar keldi...», «Uyg'on so'zin aytgach...»
- C) «Ayolga baxt bering», «Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud»
- D) «Ona tilimga alyor», «Uyg'on so'zin aytgach...»

2. H.Xudoyberdiyevaning «Dorilomon kunlar keldi» she'ri qanday undalma bilan boshlanadi?

- A) O'zbekiston B) o'g'lonim
- C) onaginam D) Vatanim

3. «Dorilomon kunlar keldi» she'rida nima «goh sharobdan, goh og'udan qilar bizni mast» deb ta'riflanadi?

- A) Vatan B) sevgi C) tabiat D) hayot

4. «Dorilomon kunlar keldi» she'rida nima «ham suyumlidir, ham ko'zlari ko'r» deya ta'riflanadi?

- A) hayot B) sevgi C) ona D) tabiat

5. «Dorilomon kunlar keldi» she'rida nima «bir tansiq taom, unga ursang qo'l, borgan sari ochiladi ishtahang sening» deb ta'riflanadi?

- A) go'zallik B) yashamoq
- C) ilm D) tabiat

6. Kimning qaysi she'rida «Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor» satri takrorlanadi?

- A) H.Xudoyberdiyevaning «Uyg'on so'zin aytgach...» she'rida
- B) H.Xudoyberdiyevaning «Dorilomon kunlar keldi» she'rida
- C) O.Hojiyevaning «Ona tilimga alyor» she'rida
- D) Z.Mirzoning «Vatan» she'rida

7. «Dorilomon kunlar keldi» she'rida shoira fikr-mulohazalarini kimga murojaat shaklida bildirgan?

- A) qiziga
- B) onasiga
- C) shogirdlariga
- D) nevarasiga

8. H.Xudoyberdiyevaning qaysi she'rida «Chirimoqda Sibirda ulug' turk shoirlari» epigrafi keltirilgan?

- A) «Dorilomon kunlar keldi»
- B) «Uyg'on so'zin aytgach»
- C) «Vatan»
- D) «Istiqloq tarixning imtihonidir»

9. «Chirimoqda Sibirda ulug' turk shoirlari» so'zlari muallifi...

- A) I.Gaspirinskiy
- B) Mehmed Ermin Yurdaqul
- C) Grigor Narikatsi
- D) A.S.Pushkin

10. «Uyg'on so'zin aytgach» she'rida shoira kimga murojaat etadi?

- A) onasiga
- B) qiziga
- C) nevarasiga
- D) yosh qalamkashlarga

11. «Uyg'on» so'zin aytgach» she'ri-da shoira kimning «Sochdan to tirmog'i qadar kuyib chopganini, o'zini ...ligini tuyib chopganligini» ta'kidlaydi?

- A) Cho'lponning
- B) U.Nosirning
- C) H.Olimjonning
- D) Oybekning

12. «Uyg'on» so'zin aytgach» she'ri-da shoira kimni «uyg'on» so'zini aytgach hushdan ayrildi» deb ta'riflaydi?

- A) Cho'lponni
- B) Fitratni
- C) U.Nosimi
- D) G'.G'ulomni

13. «Uyg'on» so'zin aytgach» she'ri-da shoira oxirgi bandda kimga murojaat etadi?

- A) onasiga
- B) ona eliga
- C) shogirdlariga
- D) farzandlariga

14. «Uyg'on» so'zin aytgach» she'ri qanday boshlanadi?

- A) Baxtiyorman degan birgina so'zni Aytish uchun kerak qancha kuch, chidam...
- B) Tarix dashtlarini goho quyuq qor yopgan Bo'lsa hamki ayon bo'lgan kimlar ne chekdi?
- C) Ehtimol, o'ldirar bir kuni ko'rlar, Tomiringda olov qoning bo'laman. Jonbaxsh quchog'ingga jimgina singgan Bir halol qurboning bo'laman
- D) Ona elim, Ming shukrki, qolmadik tunda, Tilak shulki, qodir Olloh yoningni olsin

15. H.Xudoyberdiyevaning qaysi she'rida «Mening ma'yus onaginam, bormisan omon?» misralari uchraydi?

- A) «Dorilomon kunlar keldi»
- B) «Uyg'on» so'zin aytgach»

- C) «Vatan»
- D) «Istiqlol tarixning imtihonidir»

16. Qaysi she'r «Erk bayrog'i azal-abad o'zingda qolsin» misrasi bilan tugallanadi?

- A) «Uyg'on» so'zin aytgach»
- B) «Vatan»
- C) «Istiqlol tarixning imtihonidir»
- D) «Dorilomon kunlar keldi»

17. «Uyg'on» so'zin aytgach» she'ri qachon yozilgan?

- A) 1996-yil
- B) 1998-yili
- C) 1997-yili
- D) 1995-yili

18. Dunyo kimyogaming rangiday qaynar,

Zehn-u qalb kiradur o'zga sifatga.

Biri amaldorning og'zini moylar

Erishmoq-chun obro', mansab, davlatga.

Bu misralar kimning qaysi she'ridan olingan?

- A) H.Xudoyberdiyeva «Dorilomon kunlar keldi»
- B) Z.Mirzo «Vatanim»
- C) O.Hojiyeva «Istiqlol tarixning imtihonidir»
- D) O.Hojiyeva «Ona tilimga alyor»

19. Kim o'z she'rida istiqlolni «to'rt yozni ko'rgan o'z bolang» deb ta'riflaydi?

- A) Z.Mirzo
- B) O.Hojiyeva
- C) H.Ahmedova
- D) H.Xudoyberdiyeva

20. Qaysi she'r: «Og'zimdagi novvotim, Boshimdagi minnatim», – deb boshlanadi?

- A) O.Hojiyeva «Ona tilimga alyor»
- B) O.Hojiyeva «Istiqlol tarixning imtihonidir»

- C) H.Xudoyberdiyeva «Dorilomon kunlar keldi»  
D) Z.Mirzo «Vatanim»

**21. O.Hojiyevaning «Istiqloq tarixning imtihonidir» she'ri qachon yozilgan?**

- A) 1994-yili B) 1995-yili  
C) 1996-yili D) 1997-yili

**22. O.Hojiyeva asarlari ...**

- A) «Ona tilimga alyor», «Uyg'on» so'zin aytgach  
B) «Ona tilimga alyor», «Istiqloq tarixning imtihonidir»  
C) «Istiqloq tarixning imtihonidir», «Vatanim»  
D) «Dorilomon kunlar keldi», «Ona tilimga alyor»

**23. O.Matjonning «Navoiy g'azaliga muxammas» she'ri qaysi radif bilan yozilgan?**

- A) «Netay»  
B) «Bo'lg'usi»  
C) «Avvalgilarga o'xshamas»  
D) «Kelmadi»

**24. «Navoiy g'azaliga muxammas» she'rida shoir Navoiyning qaysi qahramonlarini tilga oladi?**

- A) Farhod, Shirin, Bahrom, Layli  
B) Bahrom, Dilorom, Majnun, Layli  
C) Husayn Boyqaro, Farhod, Shirin  
D) Farhod, Shirin, Majnun, Layli, shoh G'oziy

**25. O.Matjon asarlari ...**

- A) «Ikki qal'a», «O'zbekiston»  
B) «Navoiy g'azaliga muxammas», «Ikki qal'a», «Shoir bo'lmoqchiman deb-san»  
C) «Ikki qal'a», «Shoir bo'lmoqchiman deb-san», «Navoiy»  
D) «Navoiy g'azaliga muxammas», «Egasi bor yurt», «Baxt so'zi»

**26. Bul jahon tun birla tong bahs etar bir hujrakim, Voh, quyosh savdosig'a shamlar nechuk bo'ldi hakim, Ishq bu o'z umrim, anga nechun qasamiar ichmakim, Demangiz Shirin-u Layli oncha bor ishq ichrakim.**

**Bu misralar qaysi asardan olingan?**

- A) «Navoiy»  
B) «Navoiy g'azaliga muxammas»  
C) «Vatanim»  
D) «Aytgil, do'stim»

**27. O.Matjon «Ikki qal'a» she'rida qaysi qal'alarni nazarda tutadi?**

- A) Qo'qondagi Oqmachit, Avliyooti qal'asi  
B) Qo'qondagi Ichon qal'a, Dishon qal'a  
C) Xivadagi Ichon qal'a, Avliyooti qal'asi  
D) Xivadagi Ichon qal'a, Dishon qal'a

**28. O.Matjon nimani Xorazmning faxri deb ta'riflaydi?**

- A) Oqmachit qal'ani  
B) Dishon qal'ani  
C) Ichon qal'ani  
D) Sherg'ozixon madrasasini

**29. «Ikki qal'a» she'rida shoir nimani «bahornaqsh gumbazlar, minor, sardoba... Shundadur ul buyuk Mahmudnabiy qabri» deb ta'riflaydi?**

- A) Muhammad Amin madrasasini  
B) Sherg'ozixon madrasasini  
C) Ichon qal'ani  
D) Dishon qal'ani

**30. O.Matjon «Ikki qal'a» she'rida odamni qaysi qal'aga, orzusini qaysi qal'aga o'xshatadi?**

- A) odamni Oqmachit qal'aga, orzusini Dishon qal'aga

B) odamni Dishon qal'aga, orzusini ichon qal'aga

C) odamni Ichon qal'aga, orzusini Dishon qal'aga

D) odamni Dishon qal'aga, orzusini Avliyoota qal'aga

**31. «Ikki qal'a» she'rida Dishon qal'a qanday ta'riflanadi?**

A) buyuk B) Xorazm faxri

C) xaroba D) mag'rur

**32. «Ikki qal'a» she'ri yakunida avlodlarga qaysi qal'ani asrash uchun Dishon qal'a qurilgani aytiladi?**

A) Dishon qal'ani

B) Ichon qal'ani

C) Oqmachit qal'ani

D) Avliyoota qal'ani

**33. O.Matjon «Shoir bo'lmoqchiman debsan» she'rida fikrlarini kimga murojaat shaklida beradi?**

A) ukasiga B) o'g'liga

C) shogirdiga D) singlisiga

**34. Shoirlikni «haq deya yonish»ga o'xshatgan shoir kim?**

A) Mirtemir B) Cho'lpon

C) O.Matjon D) Oybek

**35. O.Matjon «Shoir bo'lmoqchiman debsan» she'rida shoir qalbi xaritasida bosh tomirlar sifatida nimalarni keltiradi?**

A) so'z, xayol, tuyg'u, imon

B) ilhom, tuyg'u, rang, imon

C) so'z, tuyg'u, rang, imon

D) so'z, tuyg'u, ilhom, imon

**36. Sen do'st bo'l, vaqtida fosh et Yagoni, Ishqda Otellodan bo'lg'in besh battar.**

*Asrab qolmoq uchun Mo'min mirzoni*

*Tutqaz Alisherning qo'lga xanjar.*

**Bu misralar kimning qaysi she'ridan olingan?**

A) Cho'lpon «Men shoirmi»

B) «Mirtemir «Kipriklarim»

C) O.Matjon «Shoir bo'lmoqchiman debsan»

D) O.Muxtor «Shoir bo'lmoqchiman debsan»

**37. O.Matjon «Shoir bo'lmoqchiman debsan» she'ri yakunida ukasiga qachon haqiqiy shoir bo'lasan deydi?**

A) «Yaxshi o'qisang»

B) «Shu elga xizmat qilsang»

C) «Yaxshi she'r yozsang»

D) «Shu yurtni bir umr sevsang»

**38. Usmon Azim asarlari ...**

A) «Qush», «Yuragimga kirganim», «Unutilgan tillar»

B) «Baxshiyonona» turkumidan», «Navoiy», «Qush», «Yuragimga kirganim», «Ba'zan dunyo kabiman»

C) «Baxshiyona» turkumidan», «Navoiy», «Qush», «Baxt so'zi»

D) «Ba'zan dunyo kabiman», «Navoiy g'azaliga muxammas», «Qush», «Yuragimga kirganim»

**39. «Baxshiyona» turkumidan» she'ridagi baxshining ismi ...**

A) Eldor baxshi

B) Umir baxshi

C) Berdi baxshi

D) Elbek baxshi

**40. «Baxshiyona» turkumidan» she'rida yov yurtning shoiri o'z pahlavonlarini qanday ta'riflaydi?**

A) «Bildim mardlarning qilig'ini, beshikdagi bolalarga tig' sanchdilar»

B) «Tog'day bo'lib turgan, yer-u osmonni bosar toshi»

C) «Ortdan kelib pichoq sanchar, to'g'ri kelsa, yengolmaydi ariniyam»

D) «Ko'krak kerib maydon kirsfa falakni ham yiqar»

**41. Elbek baxshi yov yurtning pahlavonlarini qanday ta'riflaydi («Baxshiyona» turkumidan)?**

A) «Ko'krak kerib maydon kirsfa falakni ham yiqar»

B) «Bildim mardlarning qiiig'ini, be-shikdagi bolalarga tig' sanchdilar»

C) «Ortdan keiib pichoq sanchar, to'g'ri kelsa, yengolmaydi ariniyam»

D) «Tog'day bo'lib turgan, yer-u osmonni bosar toshi»

**42. Yov yurtning shoiri navkarboshisini qanday ta'riflaydi («Baxshiyona» turkumidan)?**

A) «Ortdan keiib pichoq sanchar, to'g'ri kelsa, yengolmaydi ariniyam»

B) «Tog'day bo'lib turgan, yer-u osmonni bosar toshi»

C) «Nomdor odam ko'zlarini olib qochdi, Uning, asli, hovli-joyi zindondadur»

D) «Bu donishmand podshohingning tegrasida aylanadi yeng ichiga pichoq solib»

**43. Elbek baxshi yov yurtning navkarboshisini qanday ta'riflaydi («Baxshiyona» turkumidan)?**

A) «Ortdan keiib pichoq sanchar, to'g'ri kelsa, yengolmaydi ariniyam»

B) «Nomdor odam ko'zlarini olib qochdi, Uning, asli, hovli-joyi zindondadur»

C) «Qo'rqq, xoin, xiyonatkor, Bu zuqlarning davrasiga boshdir azal»

D) «Bu donishmand podshohingning tegrasida aylanadi yeng ichiga pichoq solib»

**44. Yov yurtning shoiri xazinachisini qanday ta'riflaydi («Baxshiyona» turkumidan)?**

A) «Nomdor odam, mol-dunyoning qulfi shunda»

B) «Nomdor odam ko'zlarini olib qochdi, Uning, asli, hovli-joyi zindondadur»

C) «Dono odam»

D) «Qo'rqq, xoin, xiyonatkor, Bu zuqlarning davrasiga boshdir azal»

**45. Elbek baxshi yov yurtning xazinachisini qanday ta'riflaydi («Baxshiyona» turkumidan)?**

A) «Dono odam»

B) «Nomdor odam, mol-dunyoning qulfi shunda»

C) «Nomdor odam ko'zlarini olib qochdi, Uning, asli, hovli-joyi zindondadur»

D) «Bu donishmand podshohingning tegrasida Aylanadi yeng ichiga pichoq solib»

**46. Yov yurtning shoiri o'ng qo'l vazirini qanday ta'riflaydi («Baxshiyona» turkumidan)?**

A) «Bu donishmand podshohingning tegrasida Aylanadi yeng ichiga pichoq solib»

B) «Dono odam»

C) «Qo'rqq, xoin, xiyonatkor, Bu zuqlarning davrasiga boshdir azal»

D) «Ortdan keiib pichoq sanchar, to'g'ri kelsa, yengolmaydi ariniyam»

**47. Elbek baxshi yov yurtning o'ng qo'l vazirini qanday ta'riflaydi («Baxshiyona» turkumidan)?**

A) «Uning asli hovli-joyi zindondadur»

B) «Qo'rqq, xoin, xiyonatkor, Bu zuqlarning davrasiga boshdir azal»

C) «Bu donishmand podshohingning tegrasida Aylanadi yeng ichiga pichoq solib»

D) «Ortdan keiib pichoq sanchar, to'g'ri kelsa, yengolmaydi ariniyam»

**48. Elbek baxshi yov yurtning podshosini qanday ta'riflaydi («Baxshiyona» turkumidan)?**

A) «Tog'day bo'lib turgan, yer-u osmonni bosar toshi»

- B) «Aylanadi yeng ichiga pichoq solib»  
 C) «Qo'rqoq, xoin, xiyonatkor, Bu-  
 zuqlarning davrasiga boshdir azal»  
 D) «Ko'krak kerib maydon kirsfa fa-  
 lakni yiqar»

49. Elbek baxshining qaysi tog'da o'tirishi aytiladi («Baxshiyona» turkumidan)?

- A) Asqartog'da B) Boboxon tog'da  
 C) Murodtepada D) Qizil tog'da

50. Kimlar Elbek baxshidan qo'shiq aytib berishini so'raydi («Baxshiyona» turkumidan)?

- A) nevaralari  
 B) Oqbotir va Qorabotir  
 C) Qorajon va Oqbotir  
 D) Qorabotir va Qorajon

51. Elbek baxshidan Oqbotir va Qorabotir qanday mavzudagi she'r aytib berishini so'rashadi («Baxshiyona» turkumidan)?

- A) «Bo'lar elning farzandi qanday bo'ladi-yu, sho'rlik elning farzandi qanday bo'ladi»  
 B) «Qo'shchi qo'shig'i»  
 C) «Ohu-va hay»  
 D) «Mard yigit orzusi»

52. «Baxshiyona» turkumidan she'rida bo'lar elning farzandlari qanday ta'riflanadi?

1. «Ko'zini o'yib olishsa ham ko'radi».  
 2. «Oyoqlarini kesishsa ham yuradi».  
 3. «Tilin kesib tashlashsa ham «haq» deydi».  
 4. «Dushman ming bor o'ldirsa ham yashaydi».

- A) 1, 2 B) 2, 3, 4  
 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 3, 4

53. «Baxshiyona» turkumidan she'rida sho'rlik elning farzandlari qanday ta'riflanadi?

1. «Ikki ko'zi ochiq turib ko'r bo'lar».  
 2. «Yurtin eshakdayin minib kun ko'rar».  
 3. «Og'iz ochar faqat ovqat yemoqqa».  
 4. «O'zi bilmay tiriklikda o'ladir». 5. «Elin so'yib yemoqqa ham tayyorlar».  
 A) 1, 2, 4, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5  
 C) 1, 3, 4, 5 D) 2, 3, 4, 5

54. Kimning qaysi asarida «Bu dunyodan hamma istaganini ko'rib o'tadi degan ekan yaxshilar» ifodasi uchraydi?

- A) U.Azim «Qush»  
 B) U.Azim «Baxshiyona» turkumidan»  
 C) A.Suyun «Ustoz va shogird»  
 D) U.Azim «Yuragimga kirgandim»

55. U.Azim «Navoiy» she'rida qaysi shaharni qidiradi, chinqiradi, o'sha shahar yo'q?

- A) Badaxshon B) Iroq  
 C) Hirot D) Astrobod

56. U.Azim «Navoiy» she'rida «dunyoning barcha yo'llari» qaysi shahar bilan boshlanib, qaysi shahar bilan tugashini aytadi?

- A) Hirot B) Astrobod  
 C) Iroq D) Xuroson

57. Qachondir, Bir paytlar qushlik vaqtida... Shu misralar bilan boshlanuvchi she'r ...

- A) Sh.Rahmon «Baxt so'zi»  
 B) U.Azim «Yuragimga kirgandim»  
 C) U.Azim «Qush»  
 D) Sh.Rahmon «Xirgoyi»

58. «Qush» she'rida nima tasvirlanadi?

- A) ota-onasiz qolgan polapon  
 B) bir paytlar qush bo'lib tuzoqqa tushib qolgani  
 C) sovuqlarda qush misol tentirab yurganini  
 D) barchasi



- C) soxta kulguga
- D) barchasi

**71. Sh.Rahmon «Qarsak nima o'zi?» she'rida shoir O'zbekiston uchun qanday xizmatchi bo'lib ishga kirishini aytadi?**

- A) harbiy
- B) shifokor
- C) qarsak chaidigan xizmatchi
- D) o'qituvchi

**72. Hammamiz quyoshda kuygan jizzamiz,**

*qachon tiz cho'kuvdik, hamon izzamiz, sirqirab og'riydi pishgan tizzamiz, o'rindan ozgina tursak maylimu?*

**Bu misralar kimning qaysi she'ridan olingan?**

- A) S.Sayyid «Biz ovqatlanamiz»
- B) M.Kenjabek «Yutqiziq»
- C) Sh.Rahmon «Xirgoyi»
- D) Sh.Rahmon «O'git»

**73. Nega siz bo'lmaysiz sira xijolat, nega men so'rayman sizdan ijozat?**

**Bu misralar kimning qaysi she'ridan olingan?**

- A) Sh.Rahmon «Xirgoyi»
- B) «Sh.Rahmon «Baxt so'zi»
- C) S.Sayyid «Biz ovqatlanamiz»
- D) Sh.Rahmon «Qarsak nima o'zi?»

**74. Sh.Rahmon «O'git» she'rida kitobxonga nimani nasihat qiladi?**

- A) do'st orttirishni
- B) qo'rqoqning ko'ziga tik qarashni
- C) dushmani mahv etishni
- D) ota-onani ulug'lashni

**75. Azim Suyun asarlari ...**

- A) «Ustod va shogird», «Kechinma»
- B) «Ustod va shogird», «Unutilgan tillar»
- C) «Oq va qora», «Unutilgan tillar»
- D) «Ota qabri», «O'q»

**76. A.Suyunning «Ustod va shogird» she'rida ustod necha hunar egasi ediyu, shogirdiga qanchasini o'rgatgandi?**

- A) 40 usulni bilardi, 39 usulni o'rgatgandi
- B) 41 usulni bilardi, 40 tasini o'rgatgandi
- C) barcha usullarni o'rgatgandi
- D) 41 usulni bilardi, 39 tasini o'rgatgandi

**77. A.Suyun qaysi she'rida tilning o'lganligini xalqning o'lganligiga qi-vo'slaydi?**

- A) «Oq va qora»
- B) «Istiq'for»
- C) «Unutilgan tillar»
- D) «Ustod va shogird»

**78. A.Suyun unutilgan tillarni nima-ga o'xshatadi?**

- A) o'lik tillarga
- B) keraksiz buyumga
- C) so'nik tillarga
- D) bebaho durga

**79. «Ota qabri» asari muallifi kim?**

- A) Xurshid Do'stmuhammad
- B) Murod Do'stmuhammad
- C) Xurshid Davron
- D) Shavkat Rahmon

**80. «Ota qabri» she'rida cholning nechta farzandi bor edi?**

- A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 1 ta

**81. «Ota qabri» she'rida ota kimni voris etib tayinladi?**

- A) to'ng'ich o'g'il
- B) o'rtancha o'g'il
- C) kenja o'g'il
- D) hech kimni, qarorni chiqarishni qoziga topshirdi

**82. Qozi o'g'illarga qanday shart qo'ydi («Ota qabri»)?**



- A) qabrini qo'riqlashni  
 B) ipning egasini topishlarini  
 C) g'or ichidagi cholning oldiga boshlarini  
 D) uning kasbini davom ettirishlarini
- 83. G'or ichidagi chol o'g'illarga qanday shart qo'ydi («Ota qabri»)?**  
 A) devni yengishni  
 B) ota qabrini buzishni  
 C) tog'dan suv chiqarishni  
 D) yoy tortishni
- 84. Qaysi o'g'il ota qabrini buzishni xohlamadi («Ota qabri»)?**  
 A) to'ng'ich o'g'il  
 B) o'rtancha o'g'il  
 C) kenja o'g'il  
 D) uchala o'g'il ham
- 85. Go'r ichidagi chol voris etib kimni tanladi («Ota qabri»)?**  
 A) kenja o'g'ilni  
 B) o'rtancha o'g'ilni  
 C) voris tanlamadi  
 D) to'ng'ich o'g'ilni
- 86. O'g'lim, bobong yonida Yotsam, saqla tinchimni. Sen meni qo'riqlagin Dast tutib qilichingni. Misralar qaysi she'rdan olingan?**  
 A) X.Davron «Ota qabri»  
 B) Y.Eshbek «Ona duosi»  
 C) Sh.Rahmon «O'git»  
 D) U.Azim «Navoiy»
- 87. Yo'ldosh Eshbek asarlari ...**  
 A) «Qo'shchi qo'shig'i», «Ota qabri»  
 B) «Ona duosi», «O'q»  
 C) «Ona duosi», «Qo'shchi qo'shig'i»  
 D) «Unutilgan tillar», «Ota qabri»
- 88. «Ona duosi» she'rida onaning duosi kimga qarata aytiladi?**

- A) yurtiga      B) bobosiga  
 C) bolasiga    D) shogirdlariga

**89. «Ona duosi» she'ring qofiyalanishi ...**

- A) a-a-b-a (naqarat), c-c-b-c (naqarat)  
 B) a-a-a-b (naqarat), c-c-c-b (naqarat)  
 C) a-a-a-a-a, b-b-b-b-b  
 D) a-b-a-a, c-b-c-c

**90. Y.Eshbek «Ona duosi» she'rida nimani «dong'i chiqmas yakka ot»ga o'xshatadi?**

- A) hasadgo'ylikni B) yolg'izlikni  
 C) befarqlikni    D) B va C

**91. Y.Eshbekning qaysi she'ri «Qadim ohanglarda» shaklida yozilgan?**

- A) «Ona duosi»  
 B) «Qo'shchi qo'shig'i»  
 C) «Baxt so'zi»  
 D) «Xirgoyi»

**92. «Qo'shchi qo'shig'i» she'rida nima «no'noq tabib»ga o'xshatiladi?**

- A) hayot      B) go'zallik  
 C) dunyo      D) qo'shiq

**93. Muhammad Yusuf asarlari ...**

- A) «Madhiya», «O'zbekiston»  
 B) «Mehr qolur», «Kechinma»  
 C) «Madhiya», «Vatan tuyg'usi»  
 D) «Mehr qolur», «Madhiya»

**94. M.Yusufning «Mehr qolur» she'ri qanday shaklda yozilgan?**

- A) musallas    B) murabba  
 C) masnaviy    D) musamman

**95. Anor, sening yuzlaring suiuv, Xumor, sening ko'zlaring suluv, Yodda qolmas so'zlaring suluv...**

**Bu misralar qaysi asardan olingan?**

- A) M.Yusuf «Madhiya»  
 B) M.Yusuf «Vatanim»

C) M.Yusuf «Mehr qolur, muhabbat qolur»

D) Z.Mo'minova «Ayolga baxt ber-ing»

**96. M.Yusufning «Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim» misrasi bilan boshlanuvchi she'ri qaysi?**

A) «Mehur qolur, muhabbat qolur»

B) «Vatanim»

C) «Tilak»

D) «Madhiya»

**97. «Madhiya» she'ringing har bandi so'ngida undalma sifatida qanday birikma takrorlanadi?**

A) Ulug'imsan, vatanim

B) Ona elim

C) Xalq bo'l, elim

D) Yurtim

**98. Mirza Kenjabek asarlari ...**

A) «O'zbekiston», «O'q», «Yutqiziq»

B) «Egasi bor yurt», «O'q», «Yutqiziq»

C) «Vatan nadir», «O'zbekiston», «O'q»

D) «Vatanim», «O'q», «Yutqiziq»

**99. Qaysi shoir: «Mening she'rlarim-da Afrika savannalari tovlanadi», – deydi?**

A) M.Yusuf      B) M.Kenjabek

C) Y.Eshbek     D) O.Matjon

**100. M.Kenjabek «O'zbekiston» she'rida: «... bo'lib nechun men seni bir umr boshimda yurdim ko'tarib», – deganida qaysi ijodkorni nazarda tutgan?**

A) Oybek      B) H.Olimjon

C) Mirtemir    D) G'.G'ulom

**101. «Olamda boshqa hech O'zbekiston yo'q», – deya hayqirgan ijodkor ...**

A) O.Matjon    B) S.Sayyid

C) I.Mirzo      D) M.Kenjabek

**102. M.Kenjabekning qaysi she'ri «Ulash boboga xat» epigrafi bilan berilgan?**

A) «O'zbekiston» B) «Yutqiziq»

C) «O'q»          D) «Vatan nadir»

**103. «O'q» she'ri qanday boshlanadi?**

A) Ishongil, Yolg'iz sen emassan,  
otam,

Vujuddagi o'qdan qiynalib qolgan

B) Ishongil, Yolg'iz sen emassan,  
onam,

Vujuddagi o'qdan qiynalib qolgan

C) Ishongil, Jismimda o'q bor

mening ham

Ko'krak qafasimni larzaga solgan

D) Mening ham bu og'riq asoratidan  
Jaranglab o'tadi butun hayotim!

**104. «O'q» she'ri qanday tugallanadi?**

A) Sening vujudingda otilgan o'q bor,  
Mening vujudimda otilajak o'q

B) Ishongil, Yolg'iz sen emassan,  
otam,

Vujuddagi o'qdan qiynalib qolgan

C) Ishongil, Jismimda o'q bor

mening ham

Ko'krak qafasimni larzaga solgan

D) Mening ham bu og'riq asoratidan  
Jaranglab o'tadi butun hayotim!

**105. M.Kenjabekning qaysi she'rida «pul», «aldov», «xiyonat», «haq» tushunchalari ishlatilgan?**

A) «O'zbekiston» B) «Yutqiziq»

C) «O'git»        D) «O'q»

**106. M.Kenjabekning Y.Eshbekka atab yozgan she'ri ...**

A) «O'q»          B) «O'zbekiston»

C) «Yutqiziq»    D) «O'git»

**107. M.Kenjabek «Yutqiziq» she'rida qaysi o'yinni ta'riflaydi?**

- A) shashkani      B) shaxmatni  
C) tennisni      D) futbolni

**108. M.Kenjabek «Yutqiziq» she'rida qoralarning qismati qanday ekanligini ta'kidlaydi?**

- A) g'oliblik      B) yovuzlik  
C) mag'lublik      D) ishonchsizlik

**109. M.Kenjabek «Yutqiziq» she'rida qaysi toshni «mustaqil yo'li yo'q katak ustida» deb ta'riflaydi?**

- A) vazirni      B) piyodani  
C) otni      D) shohni

